21. Mill John Stuart, Considerations on Representative Government, in Utilitarianism, Liberty, and Representative Government (London: Dent and Sons, 1947).
22. Phillips Anne. Politics of Presence, New York: Clarendon. 1995.
23. Pitkin H. The Concept of Representation, Los Angeles: University of Press. 1967.; Schwartz N. The Blue Guitar: Political Representation and Community, Chicago: University of Chicago Press. 1988.; Pennock J. Roland and John Chapman (eds.), Representation, New York: Atherton Press. 1968.

24. Pitkin Hanna Fenichel, *The Concept of Representation* (Berkeley: University of California Press, 1972).
25. Rehfeld Andrew. *The Concept of Constituency: Political Representation, Democratic Legitimacy and Institutional Design*, Cambridge: Cambridge University Press. 2005.
26. Richardson Henry. "Representative government," in *Democratic Autonomy*, Oxford: Oxford University Press, Ch. 14, 2002. pp. 193–202.
27. Saward Michael. "Representation and Democracy: Revisions and Possibilities," *Sociology Compass*, 2008. 2: 1000-1013.
28. Schattschneider E. *The Semisovereign People*, New York: Holt, Rinehart, and Winston. 1960.
29. Strolovitch Dara Z. "Affirmative Representation," *Democracy and Society*, 2004. 2: 3-5.
30. Urbinati Nadia. "Representation as Advocacy: A Study of Democratic Deliberation," *Political Theory*, 2000. 28: 258–786.; Urbinati Nadia. "Political Representation as Democratic Process," *Redescriptions (Yearbook of Political Thought and Conceptual History: Volume 10)*, Kari Palonen (ed.), Helsinki: Transaction Publishers. 2011.
31. Williams Melissa. *Voice, Trust, and Memory: Marginalized Groups and the Failings of Liberal Representation*, Princeton, NJ: Princeton University. 1998.
32. Young Iris Marion. "Justice, Inclusion, and Deliberative Democracy" in *Deliberative Politics*, Stephen Macedo (ed.), Oxford: Oxford University. 1999.

**Аннотация.** В статье рассматривается сущность понятия репрезентации и проводится сравнительный анализ существующих теорий о ней. В рамках теории представительного управления описывается понятие политического представительства, его составляющие, виды и связанные с ними проблемы. Он также основан на необходимости вовлечения населения в систему политического представительства путем обновления современных концепций политического представительства.

**Ключевые слова:** представитель, политический представитель, представительное управление, вексель, суррогат, гироскопическое, символическое, аскриптивное представительство.

**Abstract.** The article discusses the essence of the concept of representation and conducts a comparative analysis of existing theories about it. Within the framework of the theory of representative governance, the concept of political representation, its components, types and related problems are described. It is also based on the need to involve the population in the system of political representation by updating modern concepts of political representation.

**Key words:** representative, political representative, representative government, promissory note, surrogate, gyroscopic, symbolic, ascriptive representation.

# ЎЗБЕКИСТОН-ҲИНДИСТОН СТРАТЕГИК ШЕРИКЛИК МУНОСАБАТЛАРИДА ХАВФСИЗЛИК ЙЎНАЛИШИ

**Раъно ТЎЙЧИЕВА**

Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ҳузуридаги Ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти докторанти, с.ф.ф.д.(PhD)

**Аннотация.** Мазкур мақолада хавфсизлик ва барқарорликка эришиш Ўзбекистон - Ҳиндистон ҳамкорлигининг муҳим шарти ва истиқболли йўналиши сифатида таҳлил қилинади. Хусусан, Ўзбекистон хавфсизлик сиёсати тарихига назар ташланиб, айнан Ҳиндистон билан ушбу соҳадаги ҳамкорлик алоқалари қайси даврдан бошланиб ривожланиб келаётганига ургу қаратилади. Тадқиқот мақсади ва вазифаларини бажаришда тарихий, хронологик ва қиёсий таҳлил, шунингдек, тизимли ёндашув услубларидан фойдаланилади.

**Калит сўзлар:** хавфсизлик, мудофаа, таҳдиidlар, ҳудудий яхлитлик, ШХТ, миллий хавфсизлик стратегияси.

## Кириш

Мустақилликнинг дастлабки йилларидан бошлаб Ўзбекистонда ҳам миллий хавфсизликни таъминлаш концепцияси ишлаб чиқилиб, унинг асосини яратувчи қонунлар жорий қилинди. Миллий хавфсизлик масаласида ягона давлат сиёсати бўлишига, барча сиёсий, иқтисодий, ташкилий, ҳарбий, ҳуқуқий ва бошқа чора-тадбирларнинг уйғунашган тизимини яратишга эришиш йўлидан борилди. Миллий хавфсизликни таъминлаш мақсадида жаҳондаги мамлакатлар, халқаро ташкилотлар билан яқиндан алоқалар ўрнатилди. Миллий хавфсизликни таъминлаш бўйича давлат сиёсати ва унинг узоқ йилларга мўлжалланган стратегияси тамойиллари 1995 йил 24 февралда бўлиб ўтган Олий Мажлис сессиясида

аниқ баён қилиб берилди. 1996 йил 24 апрелда Олий Мажлис сессиясида «Миллий хавфсизлик тўғрисида»ги Қонун муҳокамага қўйилди. 1997 йил август ойидаги бўлиб ўтган Олий Мажлис сессиясида эса Республиkanинг Миллий хавфсизлик концепцияси қабул қилинди<sup>1</sup>. Миллий хавфсизлик энди фақат давлат хавфсизлигини кўзда тутмай, шахс ҳуқуқ ва эркинликларини, жамиятнинг моддий ва маънавий бойликларини, давлатнинг конституциявий тузуми, суверенитети ва ҳудудий яхлитлигини сақлашни ҳам кўзда тутди.

Миллий хавфсизликни сақлаш билан боғлиқ давлатимиз ташки сиёсатининг устувор йўналишлари 2005 йилдаги Олий Мажлис Палаталарининг кўшма мажлисида мамлакат Президент-

<sup>1</sup> «Ўзбекистон Республикасининг Миллий хавфсизлик концепцияси тасдиқлаш тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 29.08.1997 йилдаги 467-1-сон // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси-нинг Ахборотномаси, 1997 й., 11-12-сон, 295-модда.

ти томонидан кўрсатиб ўтилди. Ўзбекистоннинг хавфсизлиги Марказий Осиёдаги тинчлик ва барқарорликка, кўшни давлатлардаги хавфсизлик ҳолатига боғлиқлиги, Ўзбекистоннинг хавфсизлигини таъминлаш ўйлида халқаро ва минтақавий ташкилотлар билан ҳамкорликни кучайтириш зарурлиги эътироф этилди. Ўзбекистон Конституциясининг XXVII боби мудофаа ва хавфсизлик соҳасига бағишланган бўлиб, унда Ўзбекистоннинг давлат суверенитети ва ҳудудий яхлитлиги, аҳолининг тинч ҳаёти ва хавфсизлигини ҳимоя қилиш ўз ифодасини топди<sup>2</sup>. «Мудофаа тўғрисида»ги Қонунга асосан, мудофаа яхлит бир тизим бўлиб (Қонуннинг 2-моддаси), у аниқ принциплар асосида ташкил қилинди<sup>3</sup>.

Хозирги даврда мамлакатимиз хавфсизлиги жиддий хавф туғдираётган омиллар кун сайин ортиб бормоқда. Шунинг учун мамлакат мудофааси ва хавфсизлигини таъминлашга қаратилган чора-тадбирлар кўлами кенгайтирилмоқда. Ўзбекистонда «Фуқаро муҳофазаси тўғрисида» иккита маҳсус қонун мавжуд бўлиб, унда фуқаролар муҳофазасини ташкил этиш билан боғлиқ барча масалалар ҳукуқий жиҳатдан белгиланган.

## АСОСИЙ ҚИСМ

Ўзбекистон Президенти, шунингдек, 2016 йил 8 сентябрда Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Қонунчилик палатаси ва Сенатининг кўшма мажлисида «Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз» мавзусидаги нутқида «Ўзбекистоннинг халқаро миқёсдаги обрў-эътибори ва позициясини янада кучайтириш мақсадида Ўзбекистон Республикасининг Ташки сиёсий фаолияти концепцияси фаол амалга оширилади..... Биз Ҳиндистон, Покистон ва Жанубий Осиёнинг бошқа давлатлари билан сиёсий, савдо-иктисодий, транспорт-коммуникация ва маданий-гуманитар соҳаларда ҳамкорликни янада ривожлантириш тарафдоримиз....», деб таъкидлайди. Бу эса мамлакатлар ўртасидаги муносабатлар истиқболидан кўзланган мақсадларнинг қанчалик юксаклигини кўрсатади.

Юқорида кўриб ўтганимиздек, сўнгги бир неча йил ичida Ҳиндистон Марказий Осиё билан муносабатини янада ривожлантиришга уриниб келмоқда. У ўзининг тарихий алоқалари, ижобий ва қулай имижи, хавфсизлик ва иқтисодий манфатларнинг бир-бирига мос келишига асосланиб, улкан қўшнилари билан муносабатларни фаоллаштиришга интилоқда.

<sup>2</sup> <https://constitution.uz/uz/clause/index>, 125-модда

<sup>3</sup> 2001 йил 11 майдаги Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисining 211-II-сон «1992 йил 3 июлда қабул қилинган “Мудофаа Тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартишлар ва қўшимчалар киритиш хақида»ги Қарори. <https://lex.uz/acts/108083>

Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон Фармонига мувофиқ қабул қилинган «2017 – 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси»нинг (кейинги ўринларда – Ҳаракатлар стратегияси)нинг 5-йўналиши – Хавфсизлик, миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенгликни таъминлаш ҳамда чуқур ўйланган, ўзаро манфатли ва амалий ташки сиёсат соҳасидаги устувор йўналишлар, деб белгиланиб, унга мувофиқ ўтган беш йиллик давр мобайнида Ўзбекистон ички ва ташки сиёсатда хавфсизлик ва барқарорлик шартларининг муҳим ва долзарб тамойилларига кўра иш олиб борди. 2021 йил 6 ноябрдаги Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев 2-марта президентлик лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталари қўшма мажлисида олиб борилаётган улкан ислоҳотларнинг узвийлиги ва давомийлигини таъминлаш мақсадида «Ҳаракатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сариси» деган тамойилни илгари сурди. «Тараққиёт стратегияси»нинг олтинчи устувор йўналиши глобал муаммоларнинг миллий ва минтақавий даражадаги ечимларини топиш, бу борадаги барча саъй-ҳаракатларни уйгунлаштиришдан иборатлиги эътироф этилган бўлса, мамлакатимизда тинчлик ва хавфсизликни таъминлашнинг ишончли кафолати бўлган Қуролли Кучларимиз қудратини янада ошириш еттинчи устувор вазифа сифатида таъкидланди. Шундан келиб чиқиб, хозирда Ўзбекистон жаҳоннинг барча давлатлари билан очиқ, конструктив ва тинчликка асосланган ташки сиёсатни ривожлантириш, айниқса, Марказий Осиё ва унга ёндош минтақалар давлатлари билан бошқа соҳалар қаторида хавфсизлик ва мудофаа бўйича ҳам ўзаро муносабатларни мустаҳкамлаш ўйлидан бормоқда. Жумладан, Ўзбекистоннинг Жанубий Осиё минтақаси давлатлари, хусусан, Ҳиндистон Республикаси билан ҳамкорлик алоқаларини ривожлантириши Тараққиёт стратегиясининг 6-йўналишида белгиланган Ўзбекистоннинг ён-атрофида хавфсизлик, барқарорлик ва аҳил қўшничилик муҳитини шакллантириш, мамлакатнинг халқаро нуфузини мустаҳкамлаш, мамлакатда олиб борилаётган ислоҳотлар тўғрисида жаҳон ҳамжамиятига холис ахборот етказиш, мамлакатнинг ташки сиёсий ва ташки иқтисодий фаолиятининг норматив-ҳукуқий базасини ҳамда халқаро ҳамкорликнинг шартномавий-ҳукуқий асосларини такомиллаштириш каби вазифаларни амалга оширишнинг муҳим таркибий қисми бўлиб хизмат қиласи.

Юқоридаги таҳлиллардан аёнки, ўзаро алоқалар тарихи минг йилга бориб тақалади деб талқин қилаётган Марказий Осиё мамлакатлари ва Ҳин-

дистон аслида умумий тарихга эга бўлиб, келажакда ҳам улар муштарак манфаатлар ва мақсадлар атрофида ҳамкорлик қилишда давом этадилар<sup>4</sup>.

М.С.Рой эса «Эслатиб ўтамиз, Ўзбекистон ўз тарихида биринчи марта БМТ Инсон ҳукуклари бўйича кенгашига аъзо этиб тайинланди. Ушбу йўналишда белгиланган мақсадларга еришиш учун Хиндистон ва Ўзбекистон ҳамкорлиқда ишлашлари лозим. Икки давлат ҳам ўзларининг глобал ва минтақавий таъсирини оширишга қаратилган милллий ривожланишларни қўлга киритётган бир пайтда минтақавий хавфсизлик масалалари бўйича бирлашиш, яқинроқ иқтисодий ҳамкорликни йўлга кўйиш, инфратузилмани ривожлантириш ва одамлар ўртасидаги муносабатларни мустаҳкамлаш бўйича манфаатларнинг яқинлашуви кузатилмоқда»<sup>5</sup>, дея таъкидлайди.

Дарҳақиқат, ташқи сиёсатнинг долзарб масалалари ҳақида сўз юритилганда, Ўзбекистон–Хиндистон қарашларининг муштараклигини таъкидлаш лозим. Шу нуқтаи назардан, Ўзбекистон билан алоқалар Ҳиндистоннинг Марказий Осиё ҳисоб-китобларида асосий ўринни эгалламоқда. Ҳиндистоннинг Евросиёда алоқалар ва ривожланиш лойиҳаларини яратишга интилиши Ўзбекистоннинг айнан шу йўналишдаги мақсад ва режаларига мос келади. Айтиш мумкинки, Ўзбекистон Ҳиндистоннинг «Шимолга ҳаракат» ташаббусининг таянчига айланди. Ўзбекистоннинг минтақадаги марказий ўрни ва глобал эътирофи тобора ортиб бораётганини ҳисобга олсан, унинг Ҳиндистон учун Марказий Осиёга кириш эшиги ва ишончли шериги бўлиш истиқболи юқори.

Юқорида кўриб чиқилганидек, Жанубий Осиёда муаммолар кўламининг кенгайиши Ҳиндистон хавфсизлигига нисбатан икки ва ташқи таъсирларнинг ортиши билан кечмокда. Бу ҳолат эса узоқ ўтмишдан ушбу мамлакат билан анъанавий ва мустаҳкам иқтисодий, сиёсий, ижтимоий ва маданий-маънавий алоқаларга эга Ўзбекистон манфаатларига ҳам бевосита таъсир кўрсатмоқда.

Ҳиндистон ва Ўзбекистон ўртасидаги ҳамкорлик алоқаларининг ривожланишига туртки бўлаётган асосий омиллардан бири – минтақавий тинчлик ва барқарорликка еришишда давлатлар мақсадларининг бирлигидир. Икки давлат тинчлиги ва барқарорлигига дахл қилувчи таҳдид омилларни ички ва ташқи турларга ажратадиган бўлсан, Ҳиндистон ва Ўзбекистон ҳар иккиси бўйича ҳам умумий жиҳатларга эга. Бу ҳолат ўз-ўзидан уларга қарши курашишда ва чораларни ишлаб чиқиша

<sup>4</sup> Joshi N. Reconnecting India and Central Asia Emerging Security and Economic Dimensions. Central Asia-Caucasus Institute & Silk Road Studies Program – A Joint Transatlantic Research and Policy Center. 2010. P.7

<sup>5</sup> Roy M.S. A New Uzbekistan in Central Asia: Opportunities for India. Capture the Emerging Markets of Central Asia. // Business Central Asia. Part 1 of the Vol. 13, No. 2, September 2021. Pp. 28-30. www.facebook.com/businesscentralasia

икки мамлакатни ўзаро ҳамкорлик қилишга унда-моқда. Мазкур фаслда айнан хавфсизликка ташқи таҳдидларга қарши икки мамлакат ҳамкорлиги масалалари кўриб чиқилади. Асосий ташқи таҳдид омилларини таҳлил қилгач, уларнинг 80 % қисми, яъни ҳалқаро терроризм, диний экстремизм, Афғонистон муаммоси, кибер ва уюшган жиноятчилик, наркотрафикка ва ИШИД муаммоси кабилар бир вақтнинг ўзида ҳар икки давлат учун ҳам долзарб аҳамиятга эга деб айтиш мумкин. Жумладан, минтақа бўйлаб ўтадиган кўплаб гиёхванд моддалар савдосида Марказий Осиё транзит майдонга айланниб қолмоқда. Гиёхванд моддалар савдоси, терроризм, экстремизм ва уюшган жиноятчилик ўртасидаги боғлиқликни ҳисобга олган ҳолда минтақада хавфсизлик масаласи янада мухим аҳамиятга эга бўлмоқда. Бу минтақавий террористик гурухларнинг ўзаро боғлиқлиги фонида Марказий Осиёда зўравонликнинг тарқалиш динамикасини оширо-моқда.

Биргина терроризм хавфининг таъсирини кўрадиган бўлсан, 2020 йилги глобал терроризм индексига кўра, энг кўп терроризм таъсирига учраган давлатлар ўнталигига Ҳиндистон Покистондан сўнг саккизинчى ўринда турмоқда. Шунингдек, охирги 10 йил ичida терроризмнинг Ўзбекистонга таъсири 65 фоиздан 133 фоизгacha ўсиб борганини кўриш мумкин<sup>6</sup>.

Ёшлар орасида радикаллашувнинг кучайиши оқибатида турли экстремистик гурухларнинг ҳам таъсири ортиб бормоқда. Натижада 2020 йилларга келиб 5000дан ортиқ Марказий Осиёликлар ИШИД сафига кўшилгани аниқланган. Ўз навбатида, Афғонистон ва Покистон худудларида ИШИД таъсирини ортиши тўғридан-тўғри Кашмирда ҳам сезила бошлади. ИШИД аллақачон Ҳиндистонга ҳам таҳдид солишига улгурди. Яқин Шарқдаги ҳиндларнинг кўпчилиги ушбу ҳаракатга жалб қилинди.

Айни пайтда ҳар икки мамлакат Афғон муаммосига бефарқ қарай олмайди. Марказий ва Жанубий Осиё минтақалари бўйлаб автоуловлар қатновининг хавфсизлиги ва барқарорлиги Афғонистондаги вазият билан бевосита боғлиқ. Ҳиндистон Жамму ва Кашмир штати орқали Афғонистон билан 330км атрофидаги худудда ҳалқаро чегарага эга, лекин ушбу худуд ҳозирда Покистон назорати остидалиги учун, Ҳиндистон Афғонистон билан куруқлик чегарасига кира олмаяпти, мамлакат Афғонистонга денгиз орқали (Чабахар порти) етиб боради. Ўзбекистон эса Афғонистон билан 137 километр узунликдаги белгиланган чегара худудларига эга бўлиб, чегаралараро терроризмнинг кучайиши давлатлардан хавфсизликка кўпроқ эътибор беринши талаб қилмоқда. Мудофаа ва хавфсизлик

<sup>6</sup> Institute for Economics & Peace. Global Terrorism Index 2020: Measuring the Impact of Terrorism, Sydney, November 2020. Available from: <http://visionofhumanity.org/reports>.

нұқтаи назаридан, Ҳиндистон Афғонистонда терроризм ва экстремизмға қарши курашиш ҳамда унинг Жанубий ва Марказий Осиё ўртасида тижорат күпрги ролининг таъминланишида ёрдам беришни хоҳлади. Құшма баёнотларда Ҳиндистон ва Марказий Осиёning умумий хавфсизлиги ва барқарорлигини таъминлаш учун Афғонистонда тинчлик ўрнатыш мақсади аниқ баён этилади. Сабаб үтилған қатор муаммолар авж олган даврда Ҳиндистон ўзининг шимолий ва шимоли-ғарбий қисми, яғни кенгайтирилған минтақасида содир бўлаётган ўзгаришларга бефарқ тура олмайди.

Минтақада хавфсизликини таъминлашга кўмаклашиш ташаббуси Ўзбекистон билан терроризмга қарши кураш бўйича Қўшма ишчи гурухларни тузиш ҳамда қўшма ҳарбий машгулотлар, тадқиқотлар ва Афғонистон бўйича чукур маслаҳатлашувларни ҳамда мудофаа соҳасида ҳамкорликни такомиллаштириш кабиларни ўз ичига олмоқда<sup>7</sup>. Музокараларда сиёсий алоқалар, хавфсизлик, терроризмга қарши кураш каби мавзулар марказий ўринни эгалламоқда. Миллый ва минтақавий барқарорлик ва фаровонликка таҳдид солаётган хавф-хатарларга етарли даражада ҳамда ўз вақтида жавоб бериш муҳимлиги қайд этилмоқда.

Томонлар минтақавий таҳдидларга қарши курашишда қонунлар сифатини яхшилаш ва уларни мувофиқлаштиришга, шунингдек, Терроризмга қарши кураш бўйича Ўзбекистон-Ҳиндистон қўшма ишчи гурӯҳи доирасида иккى мамлакат ҳукуқни муҳофаза қилиш идоралари ва маҳсус хизматлари фаолиятини кенгайтириш, мудофаа ва киберхавфсизлик соҳаларида ҳамкорликни ривожлантириш ҳам алоҳида вазифа қилиб белгиланди. ШХТ Ҳиндистонга ушбу воқеаларнинг ривожланишини яқин атрофдан кузатиб бориш ва ўз стратегиясини калибрлаш билан бирга қатор фойда ва имкониятларни ҳам бермоқда. Бу ташкилот Ҳиндистон учун Марказий Осиёга кириш дарвозаси бўлиш билан бирга, энергия хавфсизлигининг кафолатини ҳам тақдим этади. Умуман олганда, ўзининг кенгайтирилған минтақавий қўшничилик сиёсатининг самарали амалга оширилишида муҳим ва қулай платформа вазифасини бажаради.

Ҳиндистон ва Ўзбекистон ўртасидаги Терроризмга қарши кураш бўйича ҳарбий ва ҳарбий-техникавий ҳамкорлик тўғрисидаги келишув 2005 йилдан бери амал қилиб келмоқда. Мудофаа ва киберхавфсизлик, ҳукуқни муҳофаза қилиш идоралари ва маҳсус хизматлар билан ҳамкорликни кенгайтириш тўғрисида 2015 йил июль ойида келишиб олинди<sup>8</sup>.

<sup>7</sup> Stobdan P. The Strategic Dimension India and Central Asia 2020. Manohar Parrikar Institute for Defence Studies and Analyses, New Delhi KW Publishers, New Delhi// Stobdan, P. Building a strategic partnership with Kazakhstan: A blueprint for India's Central Asia Policy. // Central Asia and The Caucasus, 5 (41), (2006). Рр.123-135

<sup>8</sup> <https://eoii.gov.in/tashkent/?2615?000>

2016 йилда Ҳиндистон Республикасининг Электроника ва ахборот технологиялари департаменти ва Ўзбекистон Республикасининг ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги ҳузуридаги Ахборот хавфсизлиги маркази ўртасида киберхавфсизлик бўйича ҳамкорлик тўғрисида Меморандум имзоланди ва мазкур ҳамкорлик битими келажақдаги мулоқот учун янада кенгроқ асос яратиш, кибер ҳужумлар тўғрисида маълумот алмашиш, уларга жавоб бериш ва киберхавфсизлик ҳодисаларининг сабаблари ҳамда уларнинг оқибатларини ўрганиш, киберхавфсизлик



технологиялари соҳасидаги ҳамкорликни ривожлантириш ва умумий киберхавфсизлик сиёсати бўйича маълумот алмашиш амалиётини йўлга қўйиш каби масалаларни ўз ичига олди<sup>9</sup>.

Айтиш лозимки, Ҳиндистон билан узоқ муддатли шерикликни мустаҳкамлаш Ўзбекистон ташкисиёсатининг устувор йўналишларидан биридир. Ўтган тўрт йил мобайнида икки давлат ҳамкорлиги янгича ривожланиш босқичига ўтди. Икки томонлама динамик ҳамкорлик деярли барча соҳаларда ривожланмоқда. Ўзбекистоннинг Ҳиндистондаги мухтор элчиси Дилшод Ахатовнинг таъкидлашича, «Биринчи навбатда, мунтазам ва интенсив сиёсий мулоқотлар ва расмий учрашувларнинг кўпайгани амалий ҳаракатларнинг тезлашиши ва самарадорлигининг ошишига хизмат қилмоқда. Шунуктаи назардан, томонлар халқаро ҳамжамият хавфсизлиги, фаровонлиги ва барқарор ривожланишига бевосита таъсир кўрсатувчи терроризм ва экстремизм, наркотик моддаларнинг ноқонуний айланиши ва бошқа трансчегаравий жиноятлар каби таҳдидларга қарши курашишда принципial позицияни эгаллаётганини алоҳида қайд этиш лозим»<sup>10</sup>, деба таъкидлайди.

<sup>9</sup> Memorandum of Understanding between Indian Computer Emergency Response Team (CERT -In) (Department of Electronics and Information Technology) of the Republic of India and Information Security Center (ISC) under the Ministry for Development of Information Technologies and Communications of the Republic of Uzbekistan On Cooperation in the area of Cyber Security. 2016.

<sup>10</sup> Akhatov D. H.E. – the Ambassador of Uzbekistan to India. India and Uzbekistan ushering into new era of friendship. Capture the Emerging Markets of Central Asia. Business Central Asia. Part 1 of the Vol. 13, No. 2,

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг 2018 йил 30 сентябрь - 1 октябрь кунларида Ҳиндистонга қылган давлат ташрифи ҳам икки давлат ўртасида кўплаб соҳалар қаторида худудий хавфсизлик йўналишидаги ҳамкорликнинг яна бир пофона кўтарилишига асос бўлди. Икки томонлама музокаралар давомида Ҳиндистон ва Ўзбекистон ўртасидаги сиёсий алоқалар, мудофаа, хавфсизлик, терроризмга қарши кураш каби турпли соҳаларни қамраб олган узоқ муддатли ҳамкорликни кенгайтириш ва янада мустаҳкамлаш масаласи ҳам кўрилди. Иккала томон ҳам Халқаро терроризмга қарши кенг қамровли конвенцияни муддатидан олдин якунлашни бир овоздан кўллаб-куватладилар. Томонлар ўртасида мудофаа соҳасидаги ҳамкорликни кенгайтириш, терроризмга қарши курашиш бўйича қўшма ҳарбий машғулотлар ўтказиш, ҳарбий таълим ва ҳарбий тиббиёт соҳасида ҳамкорлик қилиш, уларнинг ижросини назорат қилиш бўйича Кўшма ишчи гурӯҳ тузиш ҳамда Ҳиндистондаги Ўзбекистон элчихонасида Мудофаа қанотини тузишга эришилди.



Охирги беш йиллиқда ҳукуматлараро комиссия йиғилишлари, икки томонлама расмий ташрифларнинг мунтазам равища ташкил этиб келинаётгани минтақавий ва глобал масалалар бўйича саъй-ҳаракатларни бирлаштириш, хавфсизликни таъминлаш ва тинчликка эришиш йўлидаги яқдил қарашларни шакллантириш имконини бермоқда.

Марказий Осиё тадқиқотлари маркази раҳбари профессор Н.Жоши «...келажақда Ҳиндистон Марказий Осиё билан муносабатларини ривожлантиради. Афғонистоннинг Жанубий Осиё Минтақавий Ҳамкорлик Ююшмасига аъзолигини ҳисобга олсан, Тоҷикистон ва Ўзбекистон ҳам ушбу ташкилотга аъзо бўлишлари мумкин», деб ёзади<sup>11</sup>. Шунингдек, Ҳиндистон «Марказий Осиё билан боғланиш» сиёсати бўйича амалий натижага эришмоқчи бўлса, мамлакат Эрон ва Афғонистон орқали Ўзбекистон

September 2021. Pp.8-10. [www.facebook.com/businesscentralasia](http://www.facebook.com/businesscentralasia)

<sup>11</sup> Joshi N. Reconnecting India and Central Asia Emerging Security and Economic Dimensions. Central Asia-Caucasus Institute & Silk Road Studies Program – A Joint Transatlantic Research and Policy Center. 2010. P.16

ва Тоҷикистонга борувчи транспорт йўлагини қуриши ҳамда ишга тушириши лозимлигини таъкидлайди.

Шунингдек, М.С.Ройнинг таъкидлашича, «Марказий Осиёда ўзига хос қўллаб-куватловчи ва дўстлик имижига эга бўлган Ҳиндистон Ўзбекистон учун муҳим стратегик аҳамиятга эга. Ҳиндистоннинг миллий қурилиш соҳасидаги ютуқлари, глобал иқтисодий ўсиш пасаяётган даврда ижобий иқтисодий истиқболи ҳамда минтақавий ҳамкорликка янгича ёндашуви, *Vasudhaiva Kutumbakam* («Vasudhaiva Kutumbakam» Маҳа Упанишад ҳиндуд матнларида учрайдиган санскритча ибора бўлиб, «дунё бир оила» деган маънони англатади) ва *Vishwa Bandhutva* («VishwaBandhutva» Маҳа Упанишад ҳиндуд матнларида учрайдиган санскритча ибора бўлиб, «Биродарлик – тинчликка эришиш» деган маънони англатади) каби тамоиллар ижросининг амалий ифодаси деб айтиш мумкин. Ўз навбатида, Ҳиндистоннинг барча билан ҳамкорлик қилиш ва глобал муаммоларни ҳамкорлиқда ҳал қилиш истаги Тошкентда ҳам резонанс бергани жуда муҳим<sup>12</sup>.

Президент Ш.Мирзиёевнинг ижобий ва диалогга асосланган қўшничилик сиёсати остида Ўзбекистон Марказий Осиё учун «интегратор» ролини ўйнамоқда. Шу жиҳатидан ҳам, икки мамлакат раҳбарлари ва сиёsatчилари ўртасидаги доимий мулоқот ва ўзаро ҳамкорлик Ҳиндистоннинг Марказий Осиё билан узоқ муддатли ижобий алоқасини таъминлаш учун жуда фойдали бўлади. Ҳиндистон ва Ўзбекистон ўртасидаги икки томонлама муносабатларни янада мустаҳкамлаш ҳар икки мамлакатнинг узоқ муддатли манфаатларига йўл очади. Иқтисодий жиҳатдан тез ўсиб бораётган Ҳиндистон савдо, инвестиция, юқори технологиялар ва туризм соҳаларида Ўзбекистоннинг барқарор шерикларидан бирига айланиб улгурди. Бу ўз навбатида, нафақат Ҳиндистон ва Ўзбекистон ўртасида икки томонлама ҳамкорликни, балки Марказий Осиё минтақасининг Жанубий Осиё мамлакатлари билан ўзаро алоқаларни кенгайтириш ва чуқурлаштириш учун барча зарур шарт-шароитларни яратади.

## Хулоса

Хулоса ўрнида айтиш лозимки, Ҳиндистоннинг Ўзбекистон билан ҳавфсизлик йўналишидаги ҳамкорлик алоқалари биринч галда Афғонистонда тинчлик ўрнатилишига эришиш, терроризм, диний экстремизм, кибержиноятчилик ва наркотик моддалар савдоси каби жиддий муаммоларга қарши

<sup>12</sup> Roy M.S. A New Uzbekistan in Central Asia: Opportunities for India. Capture the Emerging Markets of Central Asia.//Business Central Asia. First of the Vol.13, No.2, 2021. Pp. 29 [www.facebook.com/businesscentralasia](http://www.facebook.com/businesscentralasia)

биргалиқда курашиш, Эроннинг Чабаҳар порти орқали боғловчи транспорт йўллагига эришиш, бошқа минтақалардаги «ўйинчилар» стратегияларига қарши турувчи кучли минтақавий стратегияни шакллантириш каби асосий масалаларни ўз ичига олмоқда. Шунингдек, ўтган йиллар давомида икки томонлама имзоланган келишувлар, меморандум ва битимлар ижроси юзасидан амалий натижалар сифатини яхшилашга эришиш ҳам муҳим мақсадлар қаторида турмоқда.

Миллий ва минтақавий хавфсизликка таҳди дларга адекватни ва ўз вақтида жавоб бериш муҳимлигини таъкидлаб, Ўзбекистон ва Ҳиндистон томонлари бир-бирларининг ҳукуқларини муҳофаза қилиш органлари ва маҳсус хизматларини

мувофиқлаштиришни кучайтириш ниятини билдиришмоқда. Шунингдек, терроризмга қарши кураш, мудофаа ва киберхавфсизлик соҳаларида ҳамкорликни кенгайтириш бўйича имзоланган қатор битим ва келишувлар ижросини самарали бошқариш ҳам стратегик шериклиқдаги бош вазифалардан бирига айланди. Томонлар БМТ глобал тинчлик ва хавфсизликни сақлашда, умумий ривожланишга ва ҳалқаро ҳамкорликни ривожлантиришда марказий рол ўйнаши кераклигини Ташкилотнинг қатор саммитларида таъкидлаб келмоқдалар. Икки давлат истиқболда ҳам БМТ, ШХТ ҳамда бошқа ҳалқаро ва минтақавий ташкилотларда ўзаро қўллаб-куvvatлаш ва ҳамкорликни мустаҳкамлашда давом этади.

### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. 1997 йил 29 августдаги Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 467-л-сон «Ўзбекистон Республикасининг Миллий хавфсизлик концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги Қарори. <https://lex.uz/docs/118360>
2. 2001 йил 11 майдаги Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 211-л-сон «1992 йил 3 июлда қабул қилинган “Мудофаа тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзgartishiшлар ва қўшимчалар киритиш ҳақида»ги Қарори. <https://lex.uz/acts/108083>
3. 2018 йил 15 мартағи Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг «Ўзбекистон Республикаси Давлат Хавфсизлик Хизмати тўғрисида» Қарори (Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 21 апрелдаги ўРҚ-683-сонли Қонуни таҳририда) 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон. <https://lex.uz/docs/3610935>
4. Akhatov D. H.E. – the Ambassador of Uzbekistan to India. India and Uzbekistan ushering into new era of friendship. Capture the Emerging Markets of Central Asia. Business Central Asia. Part 1 of the Vol. 13, No. 2, September 2021. Pp.8-10. [www.facebook.com/businesscentralasia](http://www.facebook.com/businesscentralasia)
5. Joshi N. Reconnecting India and Central Asia Emerging Security and Economic Dimensions. Central Asia-Caucasus Institute & Silk Road Studies Program – A Joint Transatlantic Research and Policy Center. 2010. P.7
6. Institute for Economics & Peace. Global Terrorism Index 2020: Measuring the Impact of Terrorism, Sydney, November 2020. Available from: <http://visionofhumanity.org/reports>.
7. Memorandum of Understanding between Indian Computer Emergency Response Team (CERT -In) (Department of Electronics and Information Technology) of the Republic of India and Information Security Center (ISC) under the Ministry for Development of Information Technologies and Communications of the Republic of Uzbekistan On Cooperation in the area of Cyber Security. 2016.
8. Roy M.S. A New Uzbekistan in Central Asia: Opportunities for India. Capture the Emerging Markets of Central Asia. // Business Central Asia. Part 1 of the Vol. 13, No. 2, September 2021. Pp. 28-30.
9. Stobdan P. The Strategic Dimension India and Central Asia 2020. Manohar Parrikar Institute for Defence Studies and Analyses, New Delhi KW Publishers, New Delhi//Stobdan, P. Building a strategic partnership with Kazakhstan: A blueprint for India's Central Asia Policy. // Central Asia and The Caucasus, 5 (41), (2006). Pp.123-135
10. <https://constitution.uz/uz/clause/index>, 125-модда
11. <https://eoic.gov.in/tashkent/?2615?000>

**Аннотация.** В данной статье достижение безопасности и стабильности анализируется как важное условие и перспективное направление узбекско-индийского сотрудничества. В частности, будет рассмотрена история политики безопасности Узбекистана, а также будет подчеркнут период сотрудничества с Индией в этой сфере. При решении целей и задач исследования используются методы исторического, хронологического и сравнительного анализа, а также методы системного подхода.

**Ключевые слова:** безопасность, оборона, угрозы, территориальная целостность, ШОС, стратегия национальной безопасности.

**Abstract.** In this article, the achievement of security and stability is analyzed as an important condition and prospective direction of Uzbekistan-India cooperation. In particular, the history of Uzbekistan's security policy will be looked at, and the period of cooperation with India in this field will be emphasized. Historical, chronological and comparative analysis, as well as systematic approach methods are used in the fulfillment of research goals and objectives.

**Key words:** security, defense, threats, territorial integrity, SCO, national security strategy.

# ДАВЛАТ ХИЗМАТЧИЛАРИ ФАОЛИЯТИ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШДА ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАСИ

Раъно ТЎРАХЎЖАЕВА

Ўзбекистон Республикаси Президенти  
ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси  
таянч докторанти

**Аннотация.** Ушбу мақолада давлат хизматчилари фаолияти самараадорлигини баҳолаш, уларнинг иш унумдорлигига кўра рағбатлантирилишида замонавий методлардан фойдаланиш бўйича Германия, АҚШ, Буюк Британия, Канада, Россия каби ривожланган мамлакатлар тажрибалари ҳақида сўз боради. Хусусан, сўнгги йилларда хориж мамлакатларида нафақат хусусий сектор, балки давлат секторида ҳам кенг қўлланилаётган самараадорлик кўрсаткичлари тизимини (KPI) ҳақида, тизимининг асосий тамойиллари, самараадорлик кўрсаткичлари тизими давлат секторига жорий этиши босқичлари ҳақида маълумотлар келтирилган.

**Калит сўзлар:** давлат хизмати, давлат хизматчиси, самараадорлик кўрсаткичлари, KPI тизими, рағбатлантириш, хориж тажрибаси, “10/80/10” қоидаси, 360 градусли баҳолаш методи, натижадорлик коэффициенти.

## Кириш

Давлат бошқаруви тизимини ислоҳ қилиш ва самараадорлигини ошириш масаласи сўнгги йилларда мамлакатимизда ижтимоий, иқтисодий ва сиёсий ривожланиш нуқтаи назаридан долзарб масалалардан бири бўлиб келмоқда. Бу борада республикамизда кенг қўлламли ишлар амалга оширилмоқда. Маълумки ижро органлари фаолияти самараадорлиги ҳамда давлат хизматлари кўрсатиш сифатини ошириш давлат сиёсатининг асосий йўналишларидан бири саналади.

2022 — 2026 Йилларга Мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт Стратегияси тўғрисидаги давлат дастурининг 10-мақсадида: Давлат фуқаролик хизмати тизимини замонавий стандартлар асосида ташкил этиш:

-Давлат хизматида коррупция омилларини бартараф этиш, кадрларни танлов асосида ишга қабул қилиш ва улар фаолияти самараадорлигини баҳолашнинг хукукий асосларини такомиллаштириш.

- Давлат хизматчилари ва давлат органлари фаолиятини энг муҳим самараадорлик кўрсаткичлари (KPI) асосида баҳолаш тизими бўйича «Миллий рейтинг» тизимини жорий этиш вазифалари белгилаб берилган.

Зеро, мамлакатни жадал ривожлантириш, унинг стратегик мақсадларини амалга оширишнинг муҳим омили бўлган давлат хизматчилари фаолияти самараадорлигини оширишга йўналтирилган рағбатлантириш тизимининг шаффофлигини таъминлашда замонавий баҳолаш тизимларини татбиқ этиш муҳим аҳамиятга эга. Шу кунга қадар давлат фуқаролик хизматчиларини самараадорлик

кўрсатгичлари бўйича амалга оширилган ишларнинг қонуний асослари етарли эмас эди. Ушбу масала ўз навбатида самарадорлик кўрсатгичларини илмий ўрганиш ва амалиётга тадбиқ этишда қатор қийинчиликларни келтириб чиқарар эди.

## Асосий қисм

Жорий йилнинг 8 август куни Ўзбекистон Республикаси Президенти давлат органлари ва ташкилотларида мөҳнат қилаётган 118 минг нафардан ортиқ давлат фуқаролик хизматчиларининг ҳуқуқий мақомини белгиловчи ва улар фаолиятини ягона қоидалар асосида ҳуқуқий тартибга солувчи “Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида”ги Қонунни имзолади. Қонунинг 8-моддасида келтирилганидек: Махсус ваколатли давлат органининг давлат фуқаролик хизматчилари фаолияти самарадорлигини баҳолашнинг (энг муҳим кўрсаткичларига оид) ўлчанадиган индикаторлар тизимини жорий этиши ва уларнинг натижаларини таҳлил қилиши эндиликда давлат фуқаролик хизматчиларини самарадорлик кўрсатгичларини ишлаб чиқиш ва уни амалиётга тадбиқ этишнинг ҳуқуқий асоси бўлиб хизмат қилади.

Юқорида таъкидлаганимиздек ижро органлари фаолияти самарадорлиги ҳамда давлат хизматлари кўрсатиш сифатини оширишда давлат фуқаролик хизматчиларини рағбатлантириш, фаолиятларини баҳолашда кўпгина хорижий мамлакатлар KPI (key performance indicator) тизимидан фойдаланишади. KPI –бошқарув жараёнида ташкилот ва ходимлар мақсадларини белгилашга, белгиланган мақсадга эришилганлик даражасини таснифловичи, ташкилот ва ходимлар ўз салоҳиятини таҳлил қилиш ҳамда самарадорликни ошириш ва уни назорат қилиш имкониятини берувчи тизимдир<sup>1</sup>.

Давлат хизматчиси фаолияти самарадорлигини баҳолаш тизими қуйидаги асосий функциялар билан чамбарчас боғлиқ:

1. Режалаштириш: амалга оширилган ишларни баҳолаш орқали ташкилот учун талаб этиладиган ходимлар салоҳияти ва эҳтиёжларини аниқлаш.

2. Ходимларни ёллаш: ходимларни баҳолаш ташкилотда янги ходимларни жалб қилиш ва танлаш усууларини қанчалик самарали эканлигини кўрсатиш.

3. Кадрларни ўқитиш: ходимларнинг малака оширишга қанчалик эҳтиёжлари мавжудлигини аниқлайди ва амалдаги ўқув дастурларининг самарадорлигини белгилаш.

4. Кадрлар захирасини шакллантириш: ташкилот ёки компания ходимларининг меҳнат фаолияти натижасини баҳолаш орқали кадрлар захирасини шакллантириш.

5. Ходимларни шакллантириш: ходимларни баҳолаш орқали маълум бир ташкилот ёки компания ходимларининг меҳнатни баҳолаш учун тегишли стандартлар ва кўрсаткичларни аниқлаш имконини берувчи мезонларни ишлаб чиқариш.

6. Ходимларни касбий ва интеллектуал ривожланиши: ходимларнинг иш салоҳиятини қайдаражада эканлигини кўрсатиб бериш.

7. Моддий ва номоддий рағбатлантириш тизими: мотивация тизимларининг самарадорлигини ошириш ҳамда янги методлар жорий қилиш имконини бериши<sup>2</sup>.



Хорижий мамлакатлар тажрибаси шуни кўрсатадики, KPI тизими нафақат тижорат компаниида, балки давлат хизматида ҳам фаолият самарадорлигини оширишга ёрдам беради.

KPI тизими жорий этилгунига қадар кўплаб ғарб мамлакатларида давлат хизматчиларини моддий рағбатлантириш улар эгаллаб турган лавозимига боғлиқ эди. Уларни мотивациялаш эса фақат хизмат пиллапоясидан ўсиш учун шароит яратишдан иборат эди. Ҳодимнинг лавозимдан лавозимга ўтиши эса ходимнинг давлат хизматида неча йилдан бери фаолият юритаётгандиги билан боғлиқ бўлган. Шунингдек, давлат хизматчиларининг ойлик маошлари тадбиркорлик соҳаси, бизнес вакиллари ойлик маошларидан анча паст эди, бу эса давлат хизматчилари фаолият самарадорлигининг пасайишига сабаб бўлиб, кадрлар қўнимизлигини келтириб чиқарар эди.

Ва ниҳоят, XX асрнинг 90-йилларида келиб, Буюк Британия, Нидерландия, Канада, АҚШ каби давлатлар биринчилардан бўлиб, KPI тизимидан давлат хизматчиларининг иш самарадорлигига қараб моддий рағбатлантиришда фойдалана бошладилар. Аввал бу тизим ўрта ва юқори бўғин

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 3 октябрдаги ПФ-5843-сон Фармонига 1-ИЛОВА (<https://lex.uz/acts/4549998>)

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикасининг Давлат Фуқаролик хизмати тўғрисидаги Қонуну (<https://lex.uz/uz/docs/6145972>)



рахбарларыда синовдан ўтказилди ва 2004 йилда бутун Европа мамлакатлари давлат хизматчилари учун ташкилот мақсад-вазифаларидан келиб чиқкан ҳолда КРІ тизими татбиқ этилди<sup>3</sup>.

Давлат хизматчиларини фаолият самарадорлигининг кўрсаткичлари бўйича рағбатлантириш тизимини амалга ошириш ҳамда унинг мувоффақиятли ишлаши учун Европа мамлакатларида алоҳида кўмиталар ташкил этилди.

Мисол учун, Ирландияда 2001 йил охирида Мехнат унумдорлиги ва рағбатлантириш кўмитаси ташкил этилган. Кўмита мақсади – давлат хизматчилари фаолиятининг самардорлигига қараб рағбатлантириш тизими мониторингини олиб бориш эди. Шунингдек, кўмита давлат хизматчилари олдига кўйилган мақсад-вазифаларни тасдиқлаш, ўзгартириш ваколатига ҳам эга. Кўмита вазифасига, шунингдек, давлат хизматчиларини баҳолаш тизимининг очиқ ва холислиги, баҳолаш мезонларининг бир-бираига мос келишини таъминлаш киради. Бу эса, ўз навбатида, давлат хизматчиларини моддий рағбатлантириш тизими шаффоғлигини таъминлайди.

Давлат хизмати бўйича Европа мамлакатлари орасида алоҳида эътибор қозонган Германия Федератив Республикасида КРІ тизими 1997 йилда татбиқ этилган бўлиб, 2002 йилга келиб қонун доирасида ягона рағбатлантириш тизими қабул қилинди<sup>4</sup>.

Ҳар бир ташкилот мақсад-вазифаларидан келиб чиқкан ҳолда ўз баҳолаш кўрсаткичларини ишлаб чиқди. Улардан кўп учрайдигани:

- натижадорлик кўрсаткичи, бунда белгилangan мақсад вазифалар йил давомида тўлақонли бажарилганлигига қараб моддий рағбатлантириш;

- “ижро интизоми”ни таъминлаш кўрсаткичи бўйича рағбатлантириш;

- “маҳсус лойиҳалар” кўрсаткичи, маълум

<sup>3</sup> Office of Human Resources Management URL: <https://www.commerce.gov/hr>

<sup>4</sup> Лесина Т.В., Чернов Д.А. Ключевые показатели эффективности на службе. Эффективность работы госслужащих // Вестник Евразийской науки, 2018 №2

вақт доирасида фаолият олиб борганлиги учун рағбатлантириш.

КРІ тизими орқали барча давлат органлари учун Федерал даражада амалга ошириладиган юқори самарадорлик кўрсаткичига эга давлат хизматчиларини рағбатлантириш амалга оширилади. Сўнгги маълумотларга кўра, давлат хизматчиларини рағбатлантириш учун Федерал бюджетдан ҳар йили 50 миллион евродан ортиқ маблағ ажратилади. Моддий рағбатлантириш, устама ҳақлари билан боғлиқ бир қанча чекловлар мавжуд бўлиб, ушбу чекловлар «Давлат хизматчилари тўғрисида»ги Қонунда белгилаб қўйилган<sup>5</sup>.

Америка Қўшма Штатларида Давлат хизматчилари 18 тоифага бўлинган бўлиб, юқори даражадаги раҳбарлар 15-18- тоифаларга киради. Қоидага кўра, улар ҳокимият органлари ҳамда давлат органларининг йирик таркибий бўлимларини бошқарадилар. Юқори тоифали давлат хизматчилари фаолияти самарадорлиги ва персонални бошқариш бўлими (Office of Personnel Management) шугулланади.

АҚШда вазирлик ва агентликлар раҳбарияти ходимларнинг индивидуал иш режаларини мустақил белгилайдилар. Давлат хизматчиси фаолиятининг самарадорлиги мониторинги тузилган индивидуал режа асосида йил сўнгидаги баҳоланади. Ҳар бир вазифа ижросининг муҳимлик даражалари асосида ҳисоблаб чиқилади.

Масалан, АҚШ Ички ишлар вазирлиги фаолият самарадорлигини баҳолашда кўйидаги 5та кўрсаткичдан фойдаланади: “қониқарсиз даража”, “минимал қониқишиш даражаси”, “белгиланган барча талабларга жавоб берувчи”,

“юқори даражадаги натижалар”, “аъло даражадаги натижалар”<sup>6</sup>. Белгиланган режа ижросини баҳолаш юқоридаги кўрсаткичларбўйича амалга оширилади. Баҳолаш натижаларининг йигиндиси кўйидаги тамойилларга мувофиқ амалга оширилади:

- агар камида битта асосий вазифа натижаси “қониқарсиз даража” деб баҳоланса, натижадорликнинг умумий кўрсаткичи ҳам “қониқарсиз” деб белгиланади;

- агар асосий вазифалардан биттасининг натижаси “минимал қониқишиш даражаси”да бўлса натижадорлик кўрсаткичи “минимал даражада қониқарли” деб белгиланади;

<sup>5</sup> Moon M. (2000). Organizational Commitment Revised in New Public Management. Motivation, Organizational Culture, Sector and Managerial Level // Public Productivity & Management Review. Vol. 24. №. 2.

<sup>6</sup> Schroter E. (2007). Reforming the Machinery of Government: The Case of the German Federal Bureaucracy // R. Koch & J. Dixon (eds.) (2007). Public Governance and Leadership, Deutscher Universitäts-Verlag, Wiesbaden, P. 251-271. URL: www.springerlink.com/index/g4g-360847w34r645.pdf

- агар барча асосий вазифаларнинг бажарилиш натижалари “белгиланган барча талабларга жавоб берувчи” тоифасига кирса ва ундан юқори бўлса, натижадорлик кўрсаткичи “белгиланган барча талабларга жавоб берувчи”, деб белгиланади;

- агар асосий вазифалар ижроси 75% ни ташкил этса, “юқори даражадаги натижалар” кўрсаткичига тўғри келса, белгиланган асосий вазифаларнинг ижроси таъминланган бўлса, ушбу натижадорликка “аъло даражадаги натижадорлик” кўрсаткичи белгиланади;

асосий вазифалар ижроси 75% дан юқори бўлса, “аъло даражадаги натижадорлик” кўрсаткичи белгиланади<sup>7</sup>.

Албатта, ушбу кўрсаткичлар давлат хизматчисининг даражасидан келиб чиқсан ҳолда тузилади ва баҳоланади. Давлат хизматчиларини баҳолаш натижалари давлат хизматчилари фаолияти самарадорлигини мониторинг қилувчи комиссия(Performance Review Board) томонидан кузатиб борилади. Бу каби комиссиялар ҳар бир ташкилотда мавжуд бўлиб, уларнинг қарори муҳим саналади. Агарда ходимда натижадорлик кўрсаткичлари йиғиндиси белгиланган вақт давомида “қониқарсиз” деб белгиланадиган бўлса, ташкилот раҳбари ходимни ишдан озод қилиш хуқуқига эгадир.

Буюк Британияда бошқарув кадрлари фаолияти самарадорлигини баҳолаш бўйича. биринчи навбатда, натижадорлик тўғрисидаги келишув имзоланади. Давлат хизматчисининг натижадорлиги тўғрисидаги келишувнинг асосий бўлимлари куйидагилардан иборат:

- масъулиятлилик;
- вазифалар, самарадорлик мезонлари;
- “мақсадга эришилган” ёки “мақсадга эришилмаганлик” даражалари;
- ярим йиллик ҳисбот;
- индивидуал ривожланиш режаси, шу жумладан, баҳолаш мезонлари.

Баҳолаш йилда икки маротаба яъни йил ўртасида ва охирида ўтказилади. Йил якунлари бўйича раҳбар таркибдаги хизматчи ўзини ўзи баҳолаш ёки ҳар томонлама баҳолаш, яъни “360 градус”<sup>8</sup>. усулидан фойдаланилади. Баҳолашнинг“360 градус” усулида ходим нафақат унинг раҳбари томонидан, балки унинг ҳамкаслари ва бир поғонадаги ходимлар томонидан баҳоланади. Ушбу баҳолаш турининг ўзига хос хусусияти ҳам айнан шундаки, ходимни баҳолашда

турли лавозимдаги ходимлар баҳолашда иштироки таъминланади. Барча баҳоловчилар бир хилдаги маҳсус шаклни тўлдиришлари керак бўлади, барча натижалар компьютер ёрдамида анонимликни таъминлаган ҳолда қайта ишланади ва баҳолаш якунлари ходимга эълон қилинади. Ушбу усул ёрдамида раҳбар ўз қўли остидаги ходимининг шахсий ва профессионал фазилатларининг тўлиқ тавсифи, билим ҳамда кўникмалари ҳақида объектив тасаввурни ҳосил қиласиди. Бу эса, ўз навбатида, раҳбарга, ходим ҳақида холисона хулоса чиқаришга асос бўлиб хизмат қиласиди. Ушбу усул қўйидаги асосий баҳолаш кўрсаткичлари амал қиласиди: 1. Лидерлик; 2. Жамоада ишлай олиш; 3. Ходимларни бошқариш қобилияти; 4. Ўз устидиа ишлаш 5. Киришимлилик (мулоқот); 6. Ташкилотчилик қобилияти; 7. Қарор қабул қилиш самарадорлиги ; 8. Профессионаллик; 9. Ташаббускорлик; 10. Турли вазиятларга мослашувчанли<sup>9</sup>

Йил якуни бўйича баҳолашда вазирликларда раҳбарият таркибидаги давлат хизматчилари лавозимларининг ҳар бир гурӯҳи доирасида яхшидан ёмонга қараб, 4 та гурӯхга ажратилади:

- биринчи гурӯҳ - баҳоланаётганларнинг энг яхши даражаси – 25 %;
- иккинчи гурӯҳ - баҳоланаётганларнинг кейинги даражаси – 40 %;
- учинчи гурӯҳ - баҳоланаётганларнинг кейинги даражаси – 20-25 % и;
- тўртинчи гурӯҳ - баҳоланаётганларнинг энг паст даражаси – 5-10 % и.

Баҳоланган ходимларнинг раҳбарлари тегишли вазирликнинг юқори бошқарув таркибидаги давлат хизматчиларига (Senior Civil Service Pay Committee), меҳнатига ҳақ тўлаш қўмитасига давлат хизматчиларининг маошини ошириш ва уларга мукофотлар ажратиш тўғрисидаги тавсияларни тақдим этади.



Канадада департамент ва агентликлар са- марадорлик натижаларини режалаштириш ва

<sup>7</sup> Draft F. Civil Service in Germany: Characteristics of Public Employment and Modernization of Public Personnel Management. URL: [www.uni-konstanz.de/](http://www.uni-konstanz.de/)

<sup>8</sup> Guide to the Senior Executive Service. United States Office of Personnel Management. 2001. [URL: http://www.jobs.bpa.gov/ses/OPMSES-GUIDE](http://www.jobs.bpa.gov/ses/OPMSES-GUIDE)

<sup>9</sup> <https://www.opm.gov/policy-data-oversight/senior-executive-service/>



натижаларни назорат қилишда мустақил қарорлар қабул қилишади. Шу билан бир қаторда, самарадорлик түғрисидаги келишувда киритилиши лозим бўлган бир қатор талаблар белгиланган<sup>10</sup>. Улар қўйидагилардан иборат:

- иш жараёнининг бошланиш ва тугалланиш саналари;
- жорий мажбуриятлар ва самарадорлик мезонлари;
- асосий мажбуриятлар ва самарадорлик мезонлари;
- эришилган натижалар (иш жараёнининг якунида тўлдирилади);
- ёзма баҳолаш (иш жараёнининг якунида тўлдирилади).

Канадада раҳбарлик лавозимида давлат хизматчилари фаолият самарадорлигининг мониторинги расман олиб борилмайди. Баҳолаш жараёни бевосита Яширин кенгаш (Privy Council Office) томонидан амалга оширилади. Давлат хизматчилари самарадорлигини баҳолашда якуний баҳо уларнинг фаолияти түғрисидаги шартномада белгиланган мажбуриятларнинг баҳарилганиги бўйича қўйилган баҳолар йиғиндишидир. Баҳолашнинг объективлигини таъминлаш мақсадида ўзини ўзи баҳолаш натижалари юқори лавозимдаги шахслардан олинган сўров маълумотлари билан тўлдирилади<sup>11</sup>.

Канадада раҳбар кадрларни баҳолаш кўрсаткичлари қўйидагилардан иборат:

- баҳоланувчига унинг бевосита раҳбари берган тавсифнома;
- молиявий ва инсон ресурсларини ўрганиш бўйича ҳисботот топширувчи маҳсус ташкилотлар

<sup>10</sup> Ketelaar A., Manning N., Turkisch E. (2007). Performance-based Arrangements for Senior Civil Servants OECD and other Country Experiences // OECD Working Papers on Public Governance, OECD Publishing. 2007. № 5, 34-38

<sup>11</sup> Performance Management Program Guidelines (2007 – 2008). Heads of Agencies and other Governor in Council Appointees. Senior Personnel and Special Project Secretariat. Privy Council Office, Canada. 2008. URL: [http://www.pco-bcp.gc.ca/index.asp?lang=eng&page=secretariats&sub=spsppsp&doc=pmp-pgr/hoaco/guide\\_e.htm](http://www.pco-bcp.gc.ca/index.asp?lang=eng&page=secretariats&sub=spsppsp&doc=pmp-pgr/hoaco/guide_e.htm)

томонидан баҳоланувчига нисбатан берилган тавсифнома;

- Газначилик котибияти (Treasury Board Secretariat) ва Давлат хизматлари агентлиги (Public Service Agency) томонидан баҳоланувчига нисбатан бериладиган тавсифнома;

- баҳоланувчи эгаллаб турган лавозимда унгача фаолият юритган шахс тавсияси, бунда баҳоланувчининг амалда эгаллаб турган лавозимида бажарган ижобий ўзгаришларига қараб баҳоланади;

- юқори даражадаги давлат хизматчилари билан ишловчи Қўмита томонидан бериладиган тавсифнома.

Канадада самарадорликни баҳолаш натижаларига кўра ходимни хизмат вазифаси бўйича ўсиш рағбатлантириш нazarда тутилмасада ходимларни бошқа ишга ўтказиш түғрисида қарорлар қабул қилишда хизматчиларнинг эришган ютуқлари, албатта, ҳисобга олинади.

Янги Зеландияда ҳам давлат хизматидаги юқори лавозимларни бошқариш мустақил идора – Давлат хизмати бўйича комиссия (State Services Commission) томонидан амалга оширилади. Янги Зеландияда раҳбарлик бўғинидаги хизматчилар учун меҳнатга ҳақ тўлаш ва улар фаолиятининг самарадорлигини баҳолаш кўрсаткичлари баҳоланаётган хизматчининг бевосита бошлиғи томонидан тузилади. Юқори лавозимдаги хизматчилар фаолиятини баҳолаш давлат хизмати бўйича комиссия (State Services Commissioner) раҳбари томонидан ўтказилади<sup>12</sup>.

Бу эса баҳонинг объективлиги ва баҳоланувчининг ишончини оширади, самарадорликни таҳлил қилишнинг асосий усули баҳоловчи интервью ҳисобланади. Ҳал килувчи мезонларга раҳбарларнинг нафақат давлат органи мақсадларига эришишдаги, балки, умуман, давлат хизмати тизимини ривожлантериш ва унинг самарадорлигини оширишдаги ҳиссаси ҳам киради. Давлат хизмати бўйича комиссия раҳбари юқори лавозимдаги хизматчилари меҳнатига ҳақ тўлаш масалаларини тартибга солиш ҳуқуқига эга.

Юқорида келтирилган тажрибалардан келиб чиқиб россиялик олимлар томонидан давлат хизматчилари фаолият самарадорлигини баҳолашда фойдаланиш мумкин бўлган кўрсаткичлар тизимини келтирмоқчимиз.

Аввало, самарадорлик кўрсаткичларини баҳолаш тизимини татбиқ этишнинг босқичларига тўхталамиз.

<sup>12</sup> Барциц И.Н. Показатели эффективности государственного управления (субъективный взгляд на международные стандарты) (часть 1). [Электронный ресурс] – Режим доступа: <http://www.pvlast.ru/archive/index.433.php>

<b>Тайёргарлик босқичи</b>	Самарадорлик кўрсаткичлари тизимини ишлаб чиқувчи ва тадбиқ этишга масъул шахслар тайинланади. КРІжорий этилиши кутилаётган ташкилот фаолияти таҳлил этилади. Тизимни амалга ошириш режаси ишлаб чиқиш. Амалга ошириш муддатлари аниқланаш.
<b>Методологик асосларни шакллантириш</b>	KPI тизимини моделлаштириш. Давлат хизматчилари фаолиятига доир меъёрий-хукуқий ҳужжатларга ўзгаришишлар тайёрлаш. KPI тизимига асосланган бошқарув моделини ишлаб чиқиш. KPI асосида янги ҳисобот тизимини яратиш.
<b>KPI тизимини рақамлаштириш</b>	Дастурий таъминотини яратиш учун техник вазифаларни ўрганиб чиқиш Дастурий таъминотни яратиш. Яратилган тизим асосида ходимлар учун ўқув машғулотлари ўтказиш.
<b>KPI тизимини тадбиқ этиш</b>	Яратилган тизим бирламчи варианти бир қатор давлат ташкилотларида тарзида, пилот лойиҳалар сифатида жорий этиш Барча давлат ташкилотлари учун кенг қўлланилишга ўтиш. Тизим қандай мақсадда жорий этилганлиги, қандай ишлаши ҳақида ходимлар учун ўқув-тренингларни ташкил этиш.
<b>KPI тизимини мониторинги</b>	Тизимни қай даражада натижадор ишлаётганлиги ҳақида маълумотларни тўплаш. Юзага келиши мумкин бўлган хавфларни бартараф этиш.

KPI тизими бўйича давлат хизматчилари фаолияти самарадорлигини ҳисоблаш учун, албатта, ҳар бир ташкилот фаолиятидан келиб чиқиб, ҳар бир ходим учун алоҳида кўрсаткичлар тизими яратилади. Самарадорлик кўрсаткичларини

ишлаб чиқиша ушбу кўрсаткичнинг муҳимлик даражасига алоҳида эътибор берилади. Ишлаб чиқилган кўрсаткичлар қуйидаги формула асосида ҳисобланади.

#### Давлат хизматчилари фаолият самарадорлиги кўрсаткичларини ҳисоблаш

Оғирлиги % (Wi)	Муайян кўрсаткичнинг аҳамияти. Миқдорда 1 беради.
База (Qbi)	Кўрсаткичларнинг имкон берилган минимал қиймати. Базавий даражадан паст – натижа йўқ
Режа (Qpi)	Натижаларни яхшилаш имконини берувчи режадан ортиқча кўрсаткич. Интилишни ўлчаш учун керак бўлган қийматни белгилаш
Далил (факт) (Qfi)	Муайян вақт давомидаги ишнинг аниқ натижаларини ҳисобга олиш

Оғирлиги % (Wi) – ушбу кўрсаткич баҳоланувчи томонидан бажарилган ишнинг мураккаблиги ҳамда бу ишнинг қай даражада қийматга эгалигини белгиловчи мезон асосида аниқланади.

База (Qbi) – бу шундай қийматки, ушбу қийматдан паст кўрсаткичга эришилиш кўзда тутилган ишни, бажарилмаган деб яъни 0% деб ҳисобланади.

Режа (Qpi) – бу эришилиши режалаштирилган кўрсаткичнинг белгиланган даражаси бўлиб, ушбу қийматга эришиш фаолиятнинг самарали эканлигидан далолат беради.

Факт (Qfi) – бу муайян муддат давомида белгиланган кўрсаткич бўйича бажарилган ишнинг аниқ натижаси.

KPIни ҳисоблашда ҳар бир кўрсаткич бўйича ишлаб чиқилган индексларни билиш лозим, ушбу индекслар қуйидаги формула асосида ҳисобланади.

$$\text{ИндексиKPI} = \frac{(Qfi - Qbi)}{(Qpi - Qbi)}$$

Qfi - муайян вақт давомидаги бажарилган ишнинг аниқ натижалари

Qpi -натижаларни яхшилаш имконини берувчи режадан ортиқча кўрсаткич. Интилиш керак бўлган қиймат

Qbi - кўрсаткичларнинг имкон берилган минимал қиймати. Базавий даражадан паст – натижা йўқ

Сўнгра қўйидаги формулага асосан кўрсаткичлар бўйича ҳар бир индекс белгиланган оғирлика кўпайтирилади ( $Wi$  -Муайян кўрсаткичининг аҳамияти) ва натижадорлик коэффициенти келиб чиқади.

Натижадорлик коэффициенти (KPI) =  $\sum$  Индекс KPI \* $Wi$

#### Фаолият натижадорлиги ва коэффициентининг ўзаро алоқадорлиги<sup>13</sup>

Ходим фаолиятининг натижадорлиги фоизи	Коэффициент
Натижадорлик коэффициенти 80%дан кам	0
Натижадорлик коэффициенти 80-90%	0,5
Натижадорлик коэффициенти 90-100%	1
Натижадорлик коэффициенти 100%дан юқори	1,2

<sup>13</sup> Клочкив А. К. KPI и мотивация персонала. Полный сборник практических инструментов. М. : Эксмо, 2010.

Градация фоизлари ташкилот тури ва мақсадларига қараб ўзгариши мумкин. Ушбу самарадорлик кўрсаткичлари тизими ижро органлари субъектларини рағбатлантириш тизимини мувофиқлаштиришда катта ёрдам беради.

Албатта ҳар бир тизим учун хос бўлган тамойиллар мавжуд бўлиб, KPI тизимининг самарадорлиги ушбу тизимдан фойдаланишда бир қатор тамойиллар риоя қилинганидагина кутилган натижага эришиш мумкин:

- “10/80/10” қоидаси –ташкилотда натижадорликнинг 10 та асосий кўрсаткичи, 80 тагача ишлаб чиқариш кўрсаткичлари ва 10 та энг муҳим самарадорлик кўрсаткичлари ишлаб чиқилиши лозим. Бўлинмалар учун 10 тадан кўп бўлмаган кўрсаткичлардан фойдаланиш тавсия этилади, акс ҳолда давлат хизматчилини режалаштириш билан, ташкилот раҳбарияти эса KPI нинг бажарилиши назорати билан жуда банд бўладилар ва бу ташкилот ҳамда бўлинмадаги иш натижадорлигига зарур даражада таъсир кўрсатмайди.

- Бошқарилиш ва назорат қилиниш тамойили – бошқарувчи бўғин тизимнинг ўзига тегишли қисмини бошқариш ҳамда назорат қилиш учун ваколат ва ресурсларга эга бўлиши лозим.

- Ҳамкорлик тамойили – ташкилотни ривожлантиришнинг стратегик мақсадини белгилаш ҳамда барча бўлинма ва бўлимлар ўртасида ўзаро ҳамкорликнинг самаравали тизимини яратиш зарур.

- Кучни асосий йўналишларга ўтказиш тамойили – ходимларнинг иш унумдорлигини ошириш мақсадида уларнинг ваколатлари кенгайтирилиши лозим.

- Кўрсаткичларни баҳолаш, самарадорликнинг ошириш жараёнлари интеграцияси тамойили – ушбу тамойил моҳияти кўрсаткичларни баҳо-

Натижадорлик коэффициенти ҳар бир давлат хизматчисининг ташкилот ривожлантириша кўшган ҳиссасини баҳолаш имконини беради. Давлат хизматчиси фаолиятининг натижадорлиги процентидан келиб чиқиб, градациядан фойдаланилади, жадвалда кўрсатилган коэффициент шунга боғлиқ бўлади ва унга кўра, мукофотлаш ҳажми белгиланади.

лашнинг алоҳида бир моделни яратишдан, шакллантираётган самарадорлик билан олинган маълумотларни боғлашдан иборат.

- Ишлаб чиқариш кўрсаткичларини стратегия билан мувофиқлаштириш тамойили – давлат идорасидаги исталган ходимнинг фаолияти ва самарадорликни баҳолаш кўрсаткичлари умумий ривожланиш стратегияси ва мақсадлар тактикаси билан боғлиқ бўлиши ҳамда ушбу мақсадларга эришишдан ходимларнинг манфаатдор бўлишига қаратилиши зарур.

Кўрсаткичлар натижадорлигига асосланган ҳолда ишлаб чиқилган ушбу тизим ҳар бир орган ёки унинг бўлими қайси босқичда эканлиги, белгиланган мақсадга эришиш учун қанча иш бажарилиши лозимлигини аниқлашга ёрдам беради.

## Хулоса

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, давлат хизматчилини фаолиятининг самарадорлиги ва натижаларини ошириш мақсадида, улар фаолиятини бошқаришда инновацион метод ва воситаларни ишлаб чиқиш ҳамда жорий этиш давр талабидир. Ана шундай методлардан бири Самарадорлик кўрсаткичлари тизими (KPI) бўлиб, ушбу тизимнинг жорий этилиши, биринчи навбатда давлат хизмати тизимини сифатини оширишда, давлат хизматчиларининг юқори професионаллик билан меҳнат қилишларига мотивациялайди. KPI тизими хориждаги кўп мамлакатларнинг тижорат ва давлат секторларида кенг кўлланилиб, нафақат ташкилот бўлинмаси ва ходимлари, балки бутун ташкилот фаолиятининг натижадорлигини баҳолашнинг самаравали методи сифатида тан олинган.

---

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 17 январдаги ПФ-5635-сонли Фармонига 1-ИЛОВА (<https://lex.uz/docs/4168749>)
  2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 3 октябрдаги ПФ-5843-сон Фармонига 1-ИЛОВА (<https://lex.uz/acts/4549998>)
  3. Ўзбекистон Республикасининг Давлат Фуқаролик хизмати тўғрисидаги Қонуни (<https://lex.uz/uz/docs/6145972>)
  4. Office of Human Resources Management URL: <https://www.commerce.gov/hr>
  5. Лесина Т.В., Чернов Д.А. Ключевые показатели эффективности на службе. Эффективность работы госслужащих // Вестник Евразийской науки, 2018 №2,
  6. Moon M. (2000). Organizational Commitment Revised in New Public Management. Motivation, Organizational Culture, Sector and Managerial Level // Public Productivity & Management Review. Vol. 24. №. 2.
  7. Schroter E. (2007). Reforming the Machinery of Government: The Case of the German Federal Bureaucracy // R. Koch & J. Dixon (eds.) (2007). Public Governance and Leadership, Deutscher Universitäts-Verlag, Wiesbaden, P. 251-271. URL: [www.springerlink.com/index/g4g360847w34r645.pdf](http://www.springerlink.com/index/g4g360847w34r645.pdf)
  8. Draft F. Civil Service in Germany: Characteristics of Public Employment and Modernization of Public Personnel Management. URL: [www.uni-konstanz.de/bogumil/kuhlmann/Download/KuhlmannRoeber1.pdf](http://www.uni-konstanz.de/bogumil/kuhlmann/Download/KuhlmannRoeber1.pdf)
  9. Guide to the Senior Executive Service. United States Office of Personnel Management. 2001. URL:<http://www.jobs.bpa.gov/ses/OPMSESGUIDE>
  10. <https://www.opm.gov/policy-data-oversight/senior-executive-service/>
  11. Ketelaar A., Manning N., Turkisch E. (2007). Performance-based Arrangements for Senior Civil Servants OECD and other Country Experiences // OECD Working Papers on Public Governance, OECD Publishing. 2007. № 5, 34-38
  12. Клочков А. К. КРП и мотивация персонала. Полный сборник практических инструментов. М. : Эксмо, 2010.
  13. Performance Management Program Guidelines (2007 – 2008). Heads of Agencies and other Governor in Council Appointees. Senior Personnel and Special Project Secretariat. Privy Council Office, Canada. 2008. URL: [http://www.pco-bcp.gc.ca/index.asp?lang=eng&page=secretariats&sub=spsppsp&doc=pmp-pgr/hoacd0/guide\\_e.htm](http://www.pco-bcp.gc.ca/index.asp?lang=eng&page=secretariats&sub=spsppsp&doc=pmp-pgr/hoacd0/guide_e.htm)
  14. Барциц И.Н. Показатели эффективности государственного управления (субъективный взгляд на международные стандарты) (часть 1). [Электронный ресурс] – Режим доступа: <http://www.pvlast.ru/archive/index.433.php>
  15. New Zealand State Services Commission: <http://www.ssc.govt.nz/ps-ce-rem-policy>
  16. Питер Ф. Друкер. Практика менеджмента. Пер. с анг. М.: Манн, Иванов и Фербер, 2014.
  17. Каплан Р., Нортон Д. Сбалансированная система показателей. От стратегии к действию. М.: Олимп-Бизнес, 2003. 210 с.
- 

**Аннотация.** В данной статье представлен опыт развитых стран, таких как Германия, США, Великобритания, Канада и Россия, в оценке эффективности работы государственных служащих и использовании современных методов их мотивации в соответствии с их производительностью. В частности, в последние годы была предоставлена информация о системе показателей эффективности (KPI), которая широко используется в зарубежных странах не только в частном секторе, но и в государственном секторе, об основных принципах системы, этапах внедрения системы эффективности.

**Ключевые слова:** государственная служба, государственный служащий, показатели эффективности, система KPI, стимулы, зарубежный опыт, правило «10/80/10», метод 360-градусной оценки, коэффициент эффективности.

**Annotation.** This article presents the experience of developed countries, such as Germany, the USA, Great Britain, Canada and Russia, in assessing the effectiveness of public servants and using modern methods of motivating them in accordance with their productivity. In particular, in recent years, information has been provided on the system of performance indicators (KPI), which is widely used in foreign countries not only in the private sector, but also in the public sector, on the basic principles of the system, and the stages of implementation of the efficiency system.

**Keywords:** public service, public servant, performance indicators, KPI system, incentives, foreign experience, the rule «10/80/10», the method of 360-degree evaluation, efficiency coefficient.

# ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА МАЪМУРИЙ ИСЛОҲОТЛАРНИ АМАЛГА ОШИРИШ ЖАРАЁНЛАРИ

Элёр ОТАЖОНОВ

Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ҳузуридағи Ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институтти таянч докторанти

**Аннотация.** Мазкур мақола 2017 йилдан бошлаб Ўзбекистон Республикасида амалга оширилган маъмурий ислоҳотларни таҳлил қилишини мақсад қилган. Мақолада амалга оширилиши белгилаб олинган вазифалар ва уларининг натижалари хронологик тартибда кўриб чиқилган. Маъмурий ислоҳотларни амалга ошириш учун қабул қилинган норматив-хуқуқий ҳужжатлардаги асосий масалалар ажратиб олиниб, таҳлил қилинган. Тадқиқот натижасида маъмурий ислоҳотларни самарали амалга ошириш учун бир қанча таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

**Калит сўзлар:** маъмурий ислоҳотлар, давлат, давлат бошқаруви, ижро ҳокимияти, оптималлаштириш, кадрлар сиёсати, давлат хизмати, давлат хизматлари.

## Кириш

Жаҳондаги ҳар бир мамлакат узоқ муддатлик тараққиёт йўлини танлар экан, унга эришиш учун турли соҳаларни ривожлантириши, ислоҳотлар ўтказиши лозим бўлади. Ислоҳотлар марказида эса, маъмурий ислоҳотлар туради. Боиси маъмурий ислоҳот ўз моҳиятига кўра, бошқарув соҳасидаги янгиланишларни назарда тутиб, самарали давлат бошқарувини яратишни мақсад қиласди. Ўз навбатида, самарали давлат бошқаруви жамият ҳаётининг бошқа соҳаларида кенг ислоҳотлар ўтказилишини таъминлайди. Бу эса аҳолининг фаровон турмушини яратишни тезлаштиради. Мамлакатимиз ҳам айнан шу йўлни танлади.

Таъкидлаш лозимки, давлат бошқарувини тақомиллаштириш, унинг самарадорлигини ошириш давлатимиз раҳбарининг доимий диққат марказида турибди. Жумладан, дастлаб Президентимиз Шавкат Мирзиёев 2016 йил 7 декабрдаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганинг 24 йиллигига бағишлиланган тантанали маросимдаги маъруzasида давлат ва маҳаллий бошқарувни замонавий стандартлар

асосида ташкил этиш масаласи ҳақида сўз юритиб, жумладан, шундай дейди: “Хозиргина баён қилинган устувор вазифалар давлат бошқарув тизимини буғунги ва эртанги кун талабларидан келиб чиқиб, янада тақомиллаштиришини тақозо этади. Бу борада 2017–2021 йилларга мўлжалланган, Ўзбекистон Республикасида маъмурий бошқарув соҳасидаги ислоҳотлар концепциясини қабул қилиш кўзда тутилмоқда. Ушбу концепцияга мувофиқ, давлат бошқаруви органлари тузилмасини, вазифа ва ваколатларини оптималлаштириш, уларнинг ўзиға хос бўлмаган, тақрорланадиган функцияларини ҳамда ходимлар умумий сонини қисқартириш, шунингдек, давлатнинг иқтисодиётни бошқаришдаги ролини кескин камайтириш бўйича аниқ тадбирлар амалга оширилади”.

Бундан ташқари, юртбошимиз 2018 йил 28 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномасида “Замонавий, оқилона бошқарув тизимини жорий этиш – олдимизга қўйган вазифаларни

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, 1-жилд, 2017. – Б. 58.

бажаришнинг асосий шартидир”<sup>2</sup>, дея таъкидлаган эди. Ҳақиқатдан ҳам, самарасиз бошқарув тизими билан мақсадга эришиб бўлмайди. Профессор О. Хусанов тўғри айтганидек, “Муқаммал давлат бошқарув тизими бўлмаса иқтисодий, маданий, таълим, соғлиқни сақлаш, хавфсизлик ва бошқа соҳаларда муваффақиятга эришиб бўлмайди. Бу исботланган ҳодиса. Муқаммал давлат бошқаруви тизимисиз инсон қадрини таъминлаш, фаровон турмушга эришиш қуруқ гап бўлиб қолаверади”<sup>3</sup>.

Шундай қилиб, мамлакатимизда маъмурий ислоҳотларни амалга ошириш ҳаётий заруратга айланди. Шу ўринда унинг қўйидаги асосий сабабларини келтириб ўтиш мумкин:

Давлат аппарати ваколатларида тақоррланиш кўп ва кераксиз штатлар кўплиги. Натижада бир-бирини тақоррловчи топшириқларнинг кўплиги;

Марказлашувнинг юқорилиги. Масалан, Бош вазир билан тўғридан-тўғри ишлаш тизими жорий қилинмаганлиги, вазирларнинг ваколати чекланганлиги;

Бошқарув идоралари ҳамкорлиги етарли эмаслиги натижасида ортиқча вақт, куч ва ресурс сарфланиши;

“Қўл бошқаруви”нинг ягона ёним сифатида кўрилиши;

Амалий аҳамиятга эга бўлмаган кўплаб йиғилиш ва мажлислар ўтказиш, қофозбозлик амалиёти сақланиб қолаётганлиги;

Бошқарувнинг мақсадли индикаторларга эришишга асосланмаганлиги ҳамда молиявий мустақилликнинг етарли эмаслиги.

## АСОСИЙ ҚИСМ

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли Фармони 2017-2021 йилларга мўлжалланган Ҳаракатлар стратегияси тасдиқланди. Унинг биринчи йўналиши “Давлат ва жамият қурилиши тизимини тақомиллаштиришнинг устувор йўналишлари” деб номланиб, унда давлат бошқаруви тизимини ислоҳ қилиш масалалари белгиланди. Стратегияда Ўзбекистон Республикасида маъмурий ислоҳотлар Концепцияси ҳамда Ўзбекистон Республикасида маъмурий ислоҳотлар ўтказиш бўйича чора-тадбирлар дастури лойиҳаларини ишлаб чиқиш белгиланди<sup>4</sup>.

<sup>2</sup> Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // “Халқ сўзи” газетаси, № 271-272 (7229-7230). 2018 йил 29 декабрь.

<sup>3</sup> Хусанов О.Т. Маъмурий ислоҳотлар ва маҳаллий ижро ҳокимияти. // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № 1 (2023) – Б. 8-12.

<sup>4</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар

натижада, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 8 сентябрдаги ПФ-5185-сонли Фармони билан “Ўзбекистон Республикасида Маъмурий ислоҳотлар концепцияси” тасдиқланди. Ушбу концепция давлат бошқарув тизимини тубдан ислоҳ қилишни янги босқичини бошлаб берди. Концепцияда ислоҳотларни амалга оширишнинг 6 та устувор йўналишлари кўрсатилди:

I. Ижро этувчи ҳокимият органлари фаолиятинг институционал ва ташкилий-хукуқий асосларини тақомиллаштириш.

II. Ижро этувчи ҳокимият органларининг вазифалари (функциялари, ваколатлари)ни, уларни амалга ошириш механизмлари ва жавобгарлик соҳасини аниқлаштириш, мувофиқлаштириш ва ўзаро ҳамкорлик жараёнларини тақомиллаштириш.

III. Иқтисодиёт тармоқларига маъмурий таъсир кўрсатишни янада қисқартириш ва бошқарувнинг бозор механизмларини кенгайтириш.



IV. Вертикал бошқарув тизими ва ижро этувчи ҳокимият органлари ҳамкорлигининг механизмларини тақомиллаштириш.

V. Давлат бошқаруви тизимига стратегик ревалаштиришнинг замонавий шакллари, инновацион ғоялар, ишланмалар ва технологияларни жорий этиш.

VI. Профессионал давлат хизматининг самарали тизимини шакллантириш, ижро этувчи ҳокимият органлари тизимидаги коррупцияга қарши курашишнинг таъсирчан механизмларини жорий этиш<sup>5</sup>.

стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси конун хужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда, 20-сон, 354-модда, 23-сон, 448-модда, 37-сон, 982-модда.

<sup>5</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида Маъмурий ислоҳотлар концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5185-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси конун хужжатлари тўплами, 2017 й., 37-сон, 979-модда.

Фармон билан концепциядан ташқари уни амалга ошириши бўйича йўл харитаси тасдиқланган. Унда қуидаги қонунларни қабул қилиш белгиланган эди:

№	Қабул қилиниши режалаштирилган қонунлар	Уларнинг реализацияси
1.	“Давлат бошқаруви асослари тўғрисида”ги қонун	<b>Қабул қилинмади.</b> Бугунги кунда “Республика ижро этувчи ҳокимият органлари тўғрисида”ги қонун лойиҳаси ишлаб чиқилмоқда.
2.	Янги таҳрирдаги “Жамоатчилик назорати тўғрисида”ги қонун лойиҳаси	2018 йил 12 апрелда ЎРҚ-474-сонли “Жамоатчилик назорати тўғрисида”ги қонун қабул қилинди.
3.	“Давлат ва хусусий шериклик тўғрисида”ги қонун	2019 йил 10 майда ЎРҚ-537-сонли “Давлат ва хусусий шериклик тўғрисида”ги қонун қабул қилинди.
4.	Янги таҳрирдаги “Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида”ги қонун	<b>Қабул қилинмади.</b> Бугунги кунда “Маҳаллий вакиллик органлари тўғрисида”ги ва “Маҳаллий ижро органлари тўғрисида”ги қонун лойиҳалари ишлаб чиқилмоқда.
5.	“Маъмурий тартиб-таомиллар тўғрисида”ги қонун	2018 йил 8 январда ЎРҚ-457-сонли “Маъмурий тартиб-таомиллар тўғрисида”ги қонун қабул қилинган.
6.	“Давлат хизматчилари тўғрисида”ги қонун	2022 йил 8 августда ЎРҚ-457-сонли “Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида”ги қонун қабул қилинди.

Демак, бугунгача Маъмурий испоҳотлар концепциясида назарда тутилган қонунларнинг 4таси қабул қилинди. Бундан ташқари, бугунги кунда “Республика ижро этувчи ҳокимият органлари тўғрисида”ги, “Маҳаллий вакиллик органлари тўғрисида”ги ва “Маҳаллий ижро органлари тўғрисида”ги қонун лойиҳалари ишлаб чиқилмоқда.

Маъмурий испоҳотларни концепциясида белгиланган вазифаларни амалга оширишни тезлаштириш, уни амалга ошириш механизмларини аниқ белгилаш мақсадида унинг мантиқий давоми сифатида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 22 ноябрдаги “2022-2023 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистон маъмурий испоҳотлари дастурини ишлаб чиқиш бўйича ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида” Ф-5-сон фармойиши қабул қилинди. Боиси белгиланган вазифаларни амалга ошириш сустлашиб қолган эди.

Таъкидлаш жоизки, ушбу ҳужжатда Маъмурий испоҳотларни концепциясига нисбатан аниқ мақсадлар қўйилди. Ҳар бир йўналиш кесимида аниқ вазифалар белгиланди. Жумладан, маъмурий испоҳотларни амалга ошириш қуидаги йўналишлари белгиланди:

Давлат бошқаруви органларининг мақомини белгилаш, тузилмаларини такомиллаштириш ва штат бирликларини мақбуллаштириш;

Давлат бошқаруви органлари фаолиятида рақамли технологиялар, очиқлик ва давлат-хусусий шерикликни ривожлантириш;

Давлат бошқаруви органларининг моддий-техника таъминотини такомиллаштириш;

Давлат бошқаруви органларининг кадрлар салоҳиятини такомиллаштириш;

Давлат бошқаруви органларида коррупциянинг олдини олиш;

Маҳаллий давлат ҳокимияти органлари фаолиятини тубдан такомиллаштириш<sup>6</sup>.

2022 йил 28 январда эса Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-60-сон Фармони билан “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси” тасдиқланиб, унинг биринчи йўналиши халқпарвар давлат барпо этиш, хусусан, замонавий давлат бошқарувини жорий этиш сифатида белгиланди. Унда 12та аниқ мақсад қайд этилиб, уларнинг қуидагилари бевосита маъмурий испоҳотларни амалга оширишга қаратилди:

3-мақсад: Маҳаллий давлат ҳокимияти органлари фаолиятининг институционал асосларини замон талабларига мослаштириш.

4-мақсад: Давлат бошқаруви органлари фаолиятини «фуқароларга хизмат қилишга йўналтириш» тамоили асосида трансформация қилиш.

5-мақсад: Ихчам, профессионал, адолатли, юқори натижадорликка хизмат қиладиган давлат бошқаруви тизимини жорий қилиш.

6-мақсад: Давлат бошқаруви тизимида маъмурий аппаратни ихчамлаштириш ва иш жараёнларини мақбуллаштириш.

9-мақсад: «Электрон ҳукумат» тизимини ривожлантириш, электрон давлат хизматларининг улушкини 100 фоизга етказиш ҳамда бюрократияни бартараф этиш.

10-мақсад: Давлат фуқаролик хизмати тизими замонавий стандартлар асосида ташкил этиш.

<sup>6</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2023 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистон маъмурий испоҳотлари дастурини ишлаб чиқиш бўйича ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги Ф-5-сон фармойиши// Ўзбекистон Республикаси қонунчилик ҳужжатлари миллӣ базаси – <https://lex.uz/uz/docs/5738084>

11-мақсад: Халқ билан мулокотнинг механизмларини такомиллаштириш<sup>7</sup>.

Таъкидлаш жоизки, мамлакатимизда маъмурий исплоҳотларни амалга оширишнинг энг устувор йўналиши ихчам ва натижадор давлат бошқаруви тизимини жорий қилиш ҳисобланади. Боиси сўнгги йилларда давлат бошқарув органлари ҳаддан зиёд кўпайиб, ундаги штатлар сони ортиб кетган эди. Бу давлат бюджетидан маблағларни сарф этилишига олиб келади. Давлат идоралари кесимида вазифаларнинг тақорланиши кўриниб қолди. Президентимиз Шавкат Мирзиёев 2022 йил 20 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномасида ихчам ва самарали давлат бошқаруви тизимига ўтишни тақлиф қилиб, жумладан қуидаги фикрларни таъкидланган эди: “Олдинлари эътибордан четда қолиб, “йўқ бўлиб кетиши” арафасида бўлган соҳаларни “оёққа турғизиш” учун олти йил давомида янги вазирлик ва идораларни ташкил қилишга тўғри келди. Шундай қилишга мажбур эдик, акс ҳолда ҳозирги ютуқларимиз бўлмас эди... Очиқ айтиш керак – ҳозирги кунда давлат аппаратида тақорланиши кўп, кераксиз штатлар бор. Марказлашув юқори. Оқибатда бугунги мураккаб масалаларга тўғри ечим топлиш учун ортиқча вақт, куч ва ресурс сарфланмоқда”<sup>8</sup>. Дарҳақиқат, сўнгги 6 йилдаги йирик исплоҳотлар жараёнида бир қанча янги вазирлик ва идоралар ташкил этилди. Айнан шундай институционал тузилмаларнинг ташкил этилиши билан мактабгача таълим, ўй-жой коммунал, “маҳаллабай” ишлаш, инвестиция, давлат хизматлари, давлат-хусусий шериклик соҳаларида сезилар натижаларга эришилди.



Натижада, давлатимиз раҳбари Мурожаатноманинг эртасига, яъни 2022 йил 21 декабрда «Янги Ўзбекистон маъмурий исплоҳотларини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-269-сон Фармон<sup>9</sup> ва «Янги Ўзбекистон маъмурий исплоҳот-

<sup>7</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Таракқиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон.

<sup>8</sup> Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // “Халқ сўзи” газетаси. 2022 йил 21 декабрь.

<sup>9</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Янги Ўзбекистон маъмурий исплоҳотларини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-269-сон Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 24.12.2022 й., 06/22/269/1117-сон.

лари доирасида республика ижро этувчи ҳокимият органлари фаолиятини самарали ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПК-447-сон Қарорни<sup>10</sup> имзолади. Ушбу ҳужжатлар ихчам ва самарали давлат бошқарувини ташкил этишнинг механизмларини белгилаб берди. Уларга кўра қуидаги мухим тадбирлар амалга оширилди:

Биринчидан, давлат бошқарув органлари фаолияти исплоҳ қилинди. Давлат бошқаруви идоралари сони 61 тадан 28 тага, хусусан, вазирликлар сони 25 тадан 21 тага камайтирилди. Иқтисодиёт ва молия, қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги, олий таълим ва илм-фан, мактабгача ва мактаб таълими, маданият ва туризм каби турдош соҳалардаги вазирликлар бирлаштирилди.

Иккинчидан, давлат бошқарув органларининг ташкилий-хуқукий мақоми белгиланиб, уларнинг бир-биридан фарқи аниқлаштирилди. Вазирлик, қўмита, агентлик, инспекциядан иборат давлат бошқарув органлари тизими ташкил этилиб, ҳар бир вазирлик тегишли соҳада давлат сиёсатини амалга оширишга масъул бўлиши белгиланди. Қўмита, агентлик, инспекциялар вазирлик тизимида унинг ташкилий бўйсунуvida ташкил этиладиган бўлди. Бу маълум бир соҳада вазирликларнинг мақоми ва масъулиятини оширишга хизмат қиласди.

Учинчидан, Вазирлар Маҳкамасининг ҳам маъмурий аппарати оптималлаштирилди. Бош вазирнинг ўринbosарлари 4 нафардан ошмайдиган бўлди. Бошқарув ходимлари умумий чекланган сони – 125 нафардан иборат бўлди. Энг асосийси – вазирларнинг Бош вазир тўғридан тўғри ишлайдиган тизими яратилди. Бу борада Вазирлар Маҳкамаси аппаратининг бир неча департамент ва бошқармалари тутатилди.

Тўртинчидан, ҳар бир вазирнинг сиёсий мақоми ошириладиган бўлди. Фармонга кўра, вазирлар ўзлари раҳбарлик қилаётган соҳага ажратилган маблағларни самарали ва мақсадли ишлатиш бўйича ўзи жавоб беради, ҳукumat қарорлари лойиҳалари, мухим ижтимоий-иқтисодий масалалар бевосита вазирлар иштирокида коллегial ҳал этилади, муаммоларни ечиш учун ҳар ойда жойларга чиққан ҳолда, “Ҳукумат куни” ўтказилиши йўлга қўйилади, вазирлар Жамоатчилик олдида соҳадаги режаси ва унинг натижаси бўйича ҳисобот беради. Шундай қилиб, вазирларнинг нафақат мақоми ва ваколатлари, балки Президент, парламент ва жамоатчилик олдидаги масъулияти ошириладиган, жавобгарлиги кучайтириладиган бўлди.

Бешинчидан, давлат бошқаруви органлари-ning 5 мингга яқин функциялари ўрганилиб, 500

<sup>10</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Янги Ўзбекистон маъмурий исплоҳотлари доирасида республика ижро этувчи ҳокимият органлари фаолиятини самарали ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПК-447-сон қарори // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 24.12.2022 й., 07/22/447/1118-сон.

га яқин тақрорланадиган, ўз аҳамиятини йўқотган ҳамда амалга ошириш механизмлари билан таъминланмаган функциялар аниқланганди. Натижада республика ва худудий ижро этувчи ҳокимият органлари функцияларининг очиқ реестрини тузиш амалиёти йўлга қўйилиши белгиланди. Бундада ваколат ва функцияларнинг давлат органлари кесимида аниқ белгиланиши таъминлайди. Бу улуғ аллома Низомулмулкнинг “бир кишига бир амал бериб, ундан итоат ва ижро фазилатини кутиш давлат бошқарувининг асосий талабларидан бири”, деган фикрининг амалий натижаси бўлди, дейиш мумкин<sup>11</sup>.

Юқоридаги хужжатларнинг мантиқий давоми сифатида 2023 йил 25 январда Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-14-сон Фармони қабул қилинди<sup>12</sup>. Фармонга кўра, қуйидаги муҳим ўзгаришлар амалга оширилди:

Биринчидан, давлат бошқарувি органларининг 17 447 та штат бирликлари қисқартирилди. Бу ихчам бошқарув тизимида ўтиш учун замин яратади.

Иккинчидан, Республика ижро этувчи ҳокимият органлари — вазирликлар, қўмиталар, агентликлар ва инспекцияларнинг ягона рўйхати тасдиқланди.

Учинчидан, давлат бошқаруви органларининг таркибий бўлинмаларини шакллантириш ҳамда лавозимларни жорий этишга оид ягона талаблар белгиланди. Лавозимларнинг вертикал кўри нишдаги иерархияси тасдиқланди.

Шундай қилиб, давлат бошқаруви органлари ва улардаги лавозимлар қисқартирилди. Давлат бошқаруви органлари тизими ва лавозимлар тоифасининг аниқ тартиблари белгиланди. Умуман олганда, ихчам ва самарали давлат бошқаруви тизимида ўтишга катта қадам ташланди.

Ислоҳотларнинг кейинги босқичида самарали маҳаллий бошқарув тизимида ўтиш режалаштирилмоқда. Бу борада янги таҳирirdagi Конституциянинг 120-моддасига кўра, ҳоким бир вақтнинг Маҳаллий Кенгаш раиси лавозимини эгаллаши мумкин эмаслиги белгиланди<sup>13</sup>. Бу маҳаллий бошқарувда ҳам ҳокимиятлар бўлиниш принципини ҳам тўлиқ амалга оширишга имкон яратиб бермоқда. Бундан ташқари, бугунги кунда “Маҳаллий вакиллик органлари тўғрисида”ги ва “Маҳаллий ижро органлари тўғрисида”ги қонун лойиҳалари ишлаб чиқилмоқда. Ҳар икки ҳокимият тармоги учун алоҳида қонунлар бўлиши уларнинг самара-

<sup>11</sup> Низомулмулк. Сиёсатнома. – Т.: Адолат, 1997. – Б. 11.

<sup>12</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Янги Ўзбекистон маъмурий ислоҳотлари доирасида республика ижро этувчи ҳокимият органлари фаолиятини самарали ташкил этиш чора-таддирлари тўғрисида”ги ПФ-14-сон Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 24.12.2022 й., 07/22/447/1118-сон.

<sup>13</sup> Янги таҳирirdagi Ўзбекистон Республикаси Конституцияси // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон

ли фаолиятига ҳам замин яратади, дейиш мумкин. Зоро, бугунги кунда ҳар икки тармоқ учун ҳам 1993 йилда қабул қилинган ва унинг қоидалари анча эскирган “Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида”ги қонун амал қилмоқда.

## Хулоса

Хулоса қилганда, маъмурий ислоҳотларнинг амалга оширилиши мутлақо янги ва самарали фаолият юритувчи давлат бошқаруви тизимини яратиши билан “Халқ давлат идораларига эмас, давлат идоралари халқимизга хизмат қилиши керак” деган улуғворояни ҳаётга тўлиқ татбиқ этилишини таъминлайди. Маъмурий ислоҳотлар концепцияси, Маъмурий ислоҳотлар дастури ва Тараққиёт стратегиясида маъмурий ислоҳотларни амалга оширишнинг бир қанча устувор йўналишлари таъкидланган бўлса-да, ислоҳотлар ўз мазмунига кўра, асосан, 3 та йўналишда олиб борилмоқда:

1. Ижро этувчи ҳокимият органлари фаолиятини оптималлаштириш ва фаолият самарадорлигини ошириш;

2. Давлат кадрлар сиёсати ва давлат хизматини испоҳ қилиш;

3. Давлат органлари билан жисмоний ва юридик шахслар ўртасидаги маъмурий муносабатларни (шу жумладан, давлат хизматлари кўрсатилишини) самарали тартибга солиш.

Маъмурий ислоҳотлар концепцияси ва Маъмурий ислоҳотлар дастурида 6 тадан йўналиш кўрсатилган бўлса-да, моҳиятан ислоҳотлар юқоридаги 3 та йўналишни қамраб олган.

Кўриб чиқилганидек, ижро этувчи ҳокимият органлари фаолиятини оптималлаштириш ва фаолият самарадорлигини ошириш борасида кенг кўламли ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Эндилиқда давлат бошқарувининг фундаментал асосларини мустаҳкамлаш максадида “Давлат бошқаруви асослари” ёки “Республика ижро этувчи ҳокимият органлари тўғрисида”ги қонун қабул қилинишини тезлаштириш лозим. Унда давлат бошқарув тизими, унинг чегараси, уни амалга ошириш воситалари ва механизмлари белгиланиши лозим. Бундан ташқари, маҳаллий бошқарувдаги ислоҳотларни ҳам тизимли равишда амалга ошириш максадга мувофиқ. Келажакда ҳокимларни бевосита худуд аҳолиси томонида очиқ сайлов йўли билан лавозимга сайлаш амалиётини ҳам жорий этиш максадга мувофиқ.

Шунингдек, давлат кадрлар сиёсати ҳам янги босқичга киргани, бу борада маҳсус давлат органи ва маҳсус қонун қабул қилинганини ҳам қайд этиш лозим. Зоро, давлат органларининг вазифалари бевосита давлат хизматчилари томо-

нидан амалга оширилади. Давлат хизматчила-рининг ҳуқуқпари тўлиқ таъминласа, улар тўғри танлаб олиниб, вақтида уларнинг малакасини ошириб борилса, давлат бошқаруви фаолияти-нинг сифати ҳам юқори бўлади.

Бундан ташқари, давлат органлари билан жисмоний ва юридик шахслар ўртасидаги муносабатлар мутлақо янги босқичга кирди. Бу

борада Халқ қабулхоналари, давлат хизматлари марказлари ташкил этилди, фуқароларга электрон давлат хизматларини кўрсатиш фоизлари ошиб бормоқда. Умуман олганда, маъмурий испоҳотлар қайси йўналишда олиб борилмасин, пировард мақсади халқ учун қулайлик яратиш, унинг фаровонлиги таъминлашга қаратилмоқда.

#### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, 1-жилд, 2017. – Б. 58.
2. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // “Халқ сўзи” газетаси, № 271-272 (7229-7230). 2018 йил 29 декабрь.
3. Хусанов О.Т. Маъмурй испоҳотлар ва маҳаллий ижро ҳокимияти. // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № 1 (2023) – Б. 8-12.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда, 20-сон, 354-модда, 23-сон, 448-модда, 37-сон, 982-модда.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида Маъмурй испоҳотлар концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5185-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017 й., 37-сон, 979-модда.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2023 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистон маъмурй испоҳотлари дастурини ишлаб чиқиши бўйича ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги Ф-5-сон фармойши// Ўзбекистон Республикаси қонунчилик хужжатлари миллий базаси – <https://lex.uz/uz/docs/5738084>
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон.
8. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // “Халқ сўзи” газетаси. 2022 йил 21 декабрь.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Янги Ўзбекистон маъмурй испоҳотларини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-269-сон Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 24.12.2022 й., 06/22/269/1117-сон.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Янги Ўзбекистон маъмурй испоҳотлари доирасида республика ижро этувчи ҳокимият органлари фаолиятини самарали ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПК-447-сон қарори // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 24.12.2022 й., 07/22/447/1118-сон.
11. Низомулмулк. Сиёсатнома. – Т.: Адолат, 1997. – Б. 11.
12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Янги Ўзбекистон маъмурй испоҳотлари доирасида республика ижро этувчи ҳокимият органлари фаолиятини самарали ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-14-сон Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 24.12.2022 й., 07/22/447/1118-сон.
13. Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон

**Abstract.** This article aims to analyze the administrative reforms implemented in the Republic of Uzbekistan since 2017. The tasks and their results are considered in chronological order in the article. The main issues in the normative legal documents adopted for the implementation of administrative reforms were isolated and analyzed. As a result of the research, several proposals and recommendations were developed for the effective implementation of administrative reforms.

**Keywords:** administrative reforms, state, public administration, executive power, optimization, personnel policy, civil service, public services.

**Аннотация.** В данной статье ставится задача проанализировать административные реформы, реализованные в Республике Узбекистан с 2017 года. В статье задачи и их результаты рассматриваются в хронологическом порядке. Выделены и проанализированы основные вопросы в нормативно-правовых документах, принятых для реализации административной реформы. В результате исследования было разработано несколько предложений и рекомендаций по эффективной реализации административной реформы.

**Ключевые слова:** административные реформы, государство, государственное управление, исполнительная власть, оптимизация, кадровая политика, государственная служба, государственные услуги.

# ЭКСТРЕМИСТИК ВА ТЕРРОРЧИЛИК ҲАРАКАТЛАРИГА ЁШЛАРНИ ОНЛАЙН ЁЛЛАШ МЕХАНИЗМЛАРИ

Турдали СЕЙДУЛЛАЕВ

Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ҳузуридаги Ёшлар муаммолари ни үрганиши ва истиқболли кадрларни тай- ёрлаш институту

**Аннотация.** Ушбу мақолада террористик ва диний экстремистик гурухларнинг муносабатларни босқичма-босқич ривожлантириши орқали ёшлар орасидан қандай қилиб янги аъзоларни онлайн ёллаш иммий тадқиқ этилган. Алоқаларни ривожлантириш назарияси асосида шахслараро мулоқотини ёки ижтимоий алоқаларини кучайтириш учун муайян муносабатлар босқичлари баён этилган. Шунингдек, мазкур мақолада муносабатларни босқичма-босқич ривожлантириши орқали ёшларни онлайн ёллаш моделининг босқичлари келтирилган.

**Калит сўзлар:** муносабатларни ривожлантириш технологиялари, Интернет, ижтимоий тармоқлар, ёлловчи, ёлланувчи, конвергенция.

## Кириш

Бугун интернет ва ижтимоий тармоқлар тез ривожланиб глобаллашув жараёни жадал тус ола-ётган бир даврда яшамоқдамизи, бу ёшларнинг билим олиши, ўз устида ишлаши ва ўзлари изла-ётган керакли маълумотларни турган жойларида тез ва осон топиш ва улардан самарали фойдаланиш, учун жуда кенг имкониятлар эшигини очиб бермоқда. Ўзбекистон Республикаси Ахборот технологиялари ва коммуникацияларни ривожлантириш вазирлиги маълумотларига кўра, 2020 йилда Интернет фойдаланувчилари сони юртимизда 20 миллиондан ортиқ<sup>1</sup> бўлган бўлса бугунги кунда бу кўрсаткич 27,2 миллиондан ошди. Шундан мобил интернет фойдаланувчилари сони 25,3 миллион

кишини ташкил этмоқда.<sup>2</sup> Кундалик хайётимизда online, virtual, content, влогер, блогер каби сўзлар шунчалик кўп ишлатилганидан ўз она тилимиздаги сўзлар каби қабул қилинадиган бўлиб қолди. Шу билан биргалиқда ҳамиша танганинг иккинчи томонни бўлганидек, инсон хайётини қулайлаштиришга хизмат қилганидек интернетнинг заарли томонлари ҳам кам эмас. Масалан, қайсиdir сайтдан бирор нарса қидираётган бола ёки ёш реклама ёки қандайдир қўшимчалар кўринишидаги унинг ёшига мос келмайдиган турли заарларни материалларга кириб кетиши мумкин. Қайд этиш лозимки, бугунги кунда экстремистик ва террорчилек ташкилотлари сафларига жалб қилишда Интернет жаҳон ахборот тармоғидан кенг фойдаланилмоқда, унинг ёрдамида экстремизм ва терроризм мафкураси фаол сингдирилиб, аҳолининг диндор қисми ўртасида жамиятта қарши кайфият шакллантирилмоқда.<sup>3</sup>

<sup>1</sup> “2021 - 2026 йилларга мўлжалланган экстремизм ва терроризмга қарши курашиш бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 01.07.2021 йилдаги ПФ-6255-сон // Қонунчилек маълумотлари миллый базаси, 02.07.2021 й., 06/21/6255/0638-сон

<sup>2</sup> <https://review.uz/oz/post/ozbekistonda-internet-xizmatidan-foydalananuvchilar-soni.12.01.2022>.

<sup>3</sup> “2021 - 2026 йилларга мўлжалланган экстремизм ва терроризмга қарши курашиш бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий стратегия-

Мақолада террористик ва диний экстремистик гурухларнинг қандай қилип янги аъзоларни ёллашини ўрганиш учун муносабатларни ривожлантириш назариясидан фойдаланилади. Муносабатларни ривожлантириш назарияси одамларнинг шахслараро мулокот ёки ижтимоий ришталарини мустаҳкамлаш мақсадида муносабатлар ривожланишининг кетма-кет босқичларини кузатиб боришига асосланади. Муносабатларни ривожлантириш модели бешта асосий босқични ўз ичига олади, улар муносабатларнинг кучайишининг беш босқичи ёки “конвергенсия” босқичлари деб аталади.

Булар бошлаш, тажриба ўтказиш ёки синаб кўриш, оғдириш, интеграциялашиш ва боғлаб олиш босқичларидан иборатдир:

**Бошлаш** - бу ўзаро бегона бўлган иккى инсон ўртасида дастлабки алоқанинг ўрнатилиш босқичи.

**Тажриба ўтказиш** - бу гурух аъзоси томонидан бошқа одам ҳақида кўпроқ маълумотга ега бўлиш ва у алоқаларни давом эттиришни хоҳлайдими ёки йўқлигини аниқлаш босқичи.

**Оғдириш** - бу босқич шахслар ўзаро мулокотда ўзларини қулай ҳис қила бошлаганларида бошланади.

**Интеграция** - одамлар ўзларини биргаликда ёки бир гурухнинг бир қисми сифатида таний бошлаганларида содир бўлади. Ушбу босқичда чамбарчас боғланган гурухлар пайдо бўлади.

**Боғлаб олиш** - босқичи бу босқичда ёлланаётган шахс устидан гурух аъзосининг тўлиқ хукмонликка эришиш босқичи ҳисобланади ва ёлланган шахс томонидан гурухга унинг раҳбарларига, фояларига, мақсадларига тўлиқ хайриҳоҳлигини ва ўз садоқатининг оммавий намойиш қилишга интилиш бошланади.

## АСОСИЙ ҚИСМ

Остиндаги Техас университетининг фахрий профессори, педагогика фанлари доктори Марк Л. Кнапп томонидан ишлаб чиқилган муносабатларни ривожлантириш назарияси субъектларнинг ўзаро таъсирини тушуниради - яъни ер-хотинлар, музокарачилар ва бошқа ҳар қандай жуфтликлар ўзларининг шахслараро алоқаларини ёки ижтимоий ришталарини кучайтириш учун муайян босқичларни босиб ўтишлари лозимлигини тушуниради.<sup>4</sup> Бу назария муносабатларнинг шахслараро мулокот натижасида маълум босқичлар

сини тасдиқлаш тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 01.07.2021 йилдаги ПФ-6255-сон // Конунчилик маълумотлари миллӣй базаси, 02.07.2021 й., 06/21/6255/0638-сон

<sup>4</sup> Mark L. Knapp, Social Intercourse: Boston, MA: Allyn and Bacon, 1978.


дан ўтиб, ривожланишини назарда тутади. Ушбу диалог ўзаро алоқада бўлган субъектларнинг ижобий ёки салбий тажрибасини ва уларнинг яқинлиги ёки мулокот усуулларини ўзгартиришни ёритади. Ўзаро муносабатларни ривожлантириш модели бешта асосий муносабатларнинг кучайиши ёки «конвергенсия» босқичини ўз ичига олади. Буларга бошлаш, тажриба ўтказиш, оғдириш, интеграция ва боғлаб олиш киради. Ўзаро муносабатларнинг кучайиши биргаликда ривожланиш даврларини ўз ичига олганлиги сабабли, бу парчаланиш жараёнида бўлган муносабатлар учун ишламайди.



**Бошлаш.** Ўзаро муносабатлар эндиғина ривожлана бошлаганда, бегона одамларнинг ниятлари, умидлари, эҳтиёжлари, истаклари ва эътиқодлари уларнинг ҳаракатларини бошқаради. Ўзаро муносабатларнинг кучайиши ёки «конвергенсия» нинг биринчи босқичи – бошлаш деб аталади ва бу инсоннинг бошқа одам билан алоқа ўрнатиш босқичи ҳисобланади. Ушбу босқичда одамлар бир-бирларини пайқашади ва ўзлари уларнинг кундалик турмуш тарзлари, бошларидан кечирган айрим қизиқарли воқеаларни, ўзаро ҳикоя қилишади. Ушбу босқич муҳим аҳамиятга эга, чунки у «биринчи таассурот» деб аталадиган маълум бир шахс ҳақидаги билимнинг биринчи элементларини шакллантиради. Биринчи таассуротлар концепцияси муносабатларнинг ривожланишига сезиларли таъсир кўрсатади: у шахснинг сифати ҳақидаги фикрга таъсир қиласи, кўпинча муносабатларнинг келажақдаги тақдирини белгилайди (улар давом етадими ёки йўқми) ва узоқ вақт давомида бошқа ўзаро таъсир қилувчи субъектнинг

онгига қолади - шунинг учун биринчи таассурот қанчалик яхши бўлса, бу одам янада ижобий қабул қилинади. Биринчи таассуротнинг таъсири жуда чуқур бўлиши мумкин бўлса-да, у одамнинг қандай мулоқот қилишига ёки ташки кўриниши, тана тили ёки кийими каби ташки ва жисмоний хусусиятларга қараб, бир неча сониялар ичида шаклланиши мумкин.

**Тажриба ўтказиш.** Тажриба ўтказиш, муносабатларни ривожлантиришнинг бу босқичи томонлардан бирининг бошқаси ҳақида кўпроқ маълумот олишга ҳаракат қилганда ва у билан муносабатларни давом эттириш ёки қилмасликка қарор қилганда содир бўлади. Ушбу босқич одатда бошлаш босқичидан кейин дарҳол содир бўлади. Тажриба босқичида ёлловчилар саволлар бериш орқали “ишлов” берилаётган одам ҳақида кўроқ маълумот тўплашни хоҳлашади. Бу босқичда улар “ишлов” берилаётган инсон билан боғловчи умумий манфаатларни излайдилар, ўзларини қисман очиб берадилар ва биринчи таассуротни ишлаб чиқишида (бошлаш босқичининг дастлабки даврида шаклланган) мумкин бўлган хатоларни тузатадилар. Ушбу босқичда алмашиладиган маълумотларнинг қамрови асосан шахсий манфаатларни ўз ичига олади. Яна бу босқич томонларнинг бир-бирларини қўшимча баҳолаш қисми ҳам бўлиб, Кнапп буни «номаълум нарсани очишига уриниш» деб атайди.<sup>5</sup> Муносабатларни



ривожлантиришнинг бу қисмida «Коммуникаторлар ўзаро ўхшашликларни ўрганадилар ва одатда умумий мавзулар доирасини кенгайтириб борадилар, камдан-кам ҳолларда аниқ нарсаларни ўрганадилар». <sup>6</sup> Ушбу босқичда кечадиган умумий сухбатлар жуда муҳим ҳисобланади ҳамда маълумотларга бой бўлади, чунки у ўзаро таъсир қилувчи субъектларга бир-бири ҳақида кўпроқ

<sup>5</sup> Knapp, Social Intercourse: Boston, MA: Allyn and Bacon, 1978. p. 21.

<sup>6</sup> S-A Welch and Rebecca B. Rubin, "Development of Relationship Stage Measures," Communication Quarterly 50, no. 1 (2002): 24-40.

маълумот бериш ва ушбу муносабатларнинг ҳозирги спектрини кенгайтириш имкониятини беради. Кнаппнинг таъкидлашича, бу босқичда муносабатлар ўзаро таъсир қилувчи субъектларга чекланган талаблар қўяди.<sup>7</sup>

Финлардан энг яхши мактаб қайси деб сўралса, бунга уйга яқини, деган жавобни эшитасиз. Бу ерда «элита» мактаблар йўқлиги мамлакат бўйлаб барча мактаблар ягона таълим стандарти асосида дарс машгулотларини олиб бориши ва сифати бўйича бир хил эканлигидан далолат беради. Финляндияда «таълим кучайтирилган» ёки «бўшроқ мактаб», деган тушунча ҳам йўқ. Ҳукумат пропорционал молиялаштиришга эътибор қаратади, ўқувчиларга бир хил имконият берилади.

Иккинчидан, фин мактабларида имтиҳонлар мавжуд эмас. Финларда «Ўқувчиларни ё ҳаётга тайёрлаймиз ёки имтиҳонларга. Биз биринчисини танлаймиз», деган қараш шаклланган. Барча фин мактаблари ҳамма имтиҳонлар, тестлар ва оралиқ назорат ишларидан воз кечган. Ҳатто мактабни тугатаётганда ҳам ўқувчилардан имтиҳон олинмайди. Ўқитувчилар томонидан уйга вазифа деярли берилмайди. Педагогдан фақат ўқувчиди ўз фанига қизиқтириш талаб қилинади, лекин болада ўқишга қизиқиш бўлмаса «2» баҳо билан қўрқитилмайди, аксинча, амалий жиҳатдан фойдали бўлган осонроқ касбга йўналтиришади. Шунингдек, мактабларда ички дискриминацияга йўл қўйилмайди. Ҳар бир ўқувчи учун индивидуал таълим ва ривожланиш режаси тузилади!

Қолаверса, уларга алоҳида машгулотлар ташкил этиш ҳам тақиқланган. Шу жиҳати билан фин таълим тизими ижтимоий йўналтирилган ва инсонпарварлиги билан ажralиб туради. Барча



мактаблар академик-услубий, моддий-техник жиҳатдан тенг имконият ва шароитларга эга. Муҳими, бундай ёндашув барча мактаб ўқувчилари, педагог-ўқитувчилар ва ота-оналарга бир хилда мақбул келиши билан характеридир.

Мактабни тугатгандан сўнг ўқувчиларга танлаш имконияти берилади. Улар гимназиялар, лицейлар ёки профессионал техникумларнинг бирида уч йиллик ўқиши давом эттиради. Бугунги кунда мамлакатда 441 та гимназия ва 334 та профессионал техникум фаолият юритади. Ушбу муассасаларда ўқиш тўлиқ давлат томонидан қопланади. 2017 йилдан аксарият мактабларда дарс жараёнида ручкадан воз кечилган, яъни компьютер ва планшетлардан фойдаланилади. Шу ўринда айтиш жоиз, бу мамлакатда тушлик, дарсликлар, ўқув қуроллари, калькулятор ва ноутбук-планшетлар, музейларга экспурсия ва барча тадбирлар ҳамда ўқувчилар транспорти ҳам бепул. Ота-оналардан пул йиғиш ноқонуний ҳицобланади.

Финляндияда жуда яхши ривожланган олий таълим тизими мавжуд. Ҳукуматнинг фаолияти замонавий ахборот жамиятини яратишга қаратилган, шунинг учун ўқув муассасаларида таълим жаҳон стандартларига тўлиқ жавоб беради. Хорижлик талабалар учун дарслар инглиз тилида олиб борилади. Бакалавр босқичида ўқиш муддати 3-4 йил. Бу вақтда мутахассислик бўйича асосий ва факультатив фанлар ўрганилади.

Умуман, Финляндияда олинган диплом дунёning исталган давлатида меҳнат фаолиятини олиб бориш имконини беради. Магистрлик дарожасини эгаллаш дастури 2 йилга мўлжалланган бўлиб, таълим давомида танланган мутахассислик бўйича фанлар чуқур ўргатилади.

Кўқон университетида 2021 йилнинг 2 деқабрь санасида Финляндиянинг «SkillGrower» компанияси, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Мажкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси, Фанлар



академиясининг В. Романовский номидаги Математика институти билан ҳамкорликда вебинар-тренинг ташкил этилди. Тренингда фин ўқитувчиларининг 95 фоизидан кўпроғи томонидан тавсия этилган кенг қамровли математик ечим – «SkillGrower» платформасидан фойдаланиш бўйича зарур кўникмалар берилди. Барча курилмаларда ишлайдиган, ҳар бир ўқувчига мудаффақиятга эришишда ёрдам бера оладиган ушбу платформа тизимиға кириш, ролларни танлаш, гуруҳ яратиб, синфдаги барча ўқувчилар билан биргаликда фойдаланиш жараёнлари ўргатилди.

Эътиборлиси, математикани осон ўрганишга мўлжалланган мазкур платформада 35 мингдан зиёд масала-мисоллар ўрин олган бўлиб, ундан бир пайтнинг ўзида ўқувчилар, педагог-ўқитувчилар ва ота-оналар ҳам фойдаланиши, ўқувчинг билим даражасини баҳолаб бориш имконияти яратилган.

Бугунги гаджетларга болаларнинг боғланиш қолиши, ижтимоий тармоқларда беҳуда вақт йўқотишининг олдини олишга қаратилган ушбу платформа ўйинлар ва турли хилдаги қизиқтириш усуслари орқали математикани ўқитувчилар ёрдамисиз ўрганиш, мустақил ривожланишини таъминлашга қаратилганлиги билан ҳам аҳамият касб этади. Дарвоқе, «SkillGrower» платформасидан барча курилмалар орқали, яъни телефон, планшет ва ноутбуклардан кириб фойдаланиш мумкин. Ва энг аҳамиятлиси, ота-оналарга фарзандларининг ривожланишларини шахсий иловава орқали кузатиб бориш имконияти яратилган. «Осондан – қийингача» бўлган мисоллар анъанавий ечимларга қараганда кўпроқ қизиқиш билан машқ қилишга ўргатади<sup>6</sup>.

<sup>6</sup> Мустафокупов Ш. Таълимдаги ҳамкорлик ва илғор тажрибалар сабоги. Халқ сўзи. 2022 йил 21 июль.

Сўнгги икки йилда Финляндия билан Ўзбекистон ўртасида таълим соҳасида ҳамкорликни ривожлантириш учун қилинаётган ҳаракатлар натижаси ўлароқ, 2022 йилнинг 27 май куни Тошкент шаҳрида Ўзбекистон – Финляндия ташқи ишлар вазирларининг сиёсий маслаҳатлар бўйича 10-йиғилишида Шимолий Европа мамлакатларининг таълим соҳасидаги илғор ютуқларига асосланган замонавий хусусий олий таълим ташкилоти – Халқаро Нордик университетини очиш бўйича келишувга эришилди.

Унинг ташкил этилиши Финляндия томонидан Ўзбекистонда олиб борилаётган ҳар томонлама шиддатли ислоҳотларнинг эътирофи, қолаверса, Шимолий Европа давлатлари – Финляндия, Швеция, Норвегия, Дания, Исландия ҳамда бошқа давлатларнинг Ўзбекистонда ва Ўрта Осиёда инсон капиталини ривожлантириш ҳамда Бирлашган Миллатлар Ташкилоти томонидан ишлаб чиқилган Барқарор ривожланиш мақсадларига (SDG) эришиш ва халқаро лойиҳаларда муносиб иштирок этиш имконини беради.

Айни чоғда Шимолий Европа мамлакатларининг нуфузли хорижий олий таълим муассасаларида йўлга қўйилган илғор тажрибалари, инновацион таълим моделлари, ўкув режа ва дастурлари асосида иқтисодиётнинг реал сектори эҳтиёжларини ҳисобга олган ҳолда юқори малакали олий маълумотли мутахассисларнинг етишиб чиқишига катта ҳисса қўшади.

Шунингдек, иқтидорли талабалар селекциясими амалга ошириш, янги авлод тадбиркорларининг пайдо бўлиши, уларга кенг кўламда кўмак бериш мақсадида бутун дунё стартаперлари, инвесторлари ва тадбиркорларини бир жойга жам қиласидаги «Slush» (Финляндиянинг Хельсинки

шахрида ҳар йили ўтказилиб борилади) тадбирида ёшларнинг ўз инновацион ва стартап ғоялари билан иштирок этишларига улкан имконият яратилади.

## Хулоса

Хулоса қилиб айтганда, ҳозирги кунда илмфан ва таълим-тарбия соҳаларида ёшларни

креативликка, ўз инновацион ғояларини амалга оширишига, мустакил фикрлашга ўргатиш керак. Шунингдек, уларни интерактив фаолиятни рафбатлантириш, ҳамда ютуқларини амалиётга кенг жорий этишга хизмат қиласидаган таъсирчан механизмларни ишлаб чиқиш ҳамда ихтисослаштирилган илмий-экспериментал лабораториялар, юқори технология марказлари ва технопаркларни ташкил этишга жиддий эътибор бериш зарур.

### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Норматов К. Янги Ўзбекистон меъмори. (Президентнинг “ўзбек мўъжизаси” ва таълимоти фаолиятига айрим чизгилар). Сиёсий эссе. I. II. – Тошкент, ЎзР ИИВ Академия. 2021, – Б. 227.
2. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. –Т., 2018. – Б.74.
3. Рихсиева Г. Инсон капиталини ривожлантириш – тараққиёт стратегиясининг муҳим йўналиши. Халқ сўзи. 2022 йил 16 февраль.
4. Мустафоқулов Ш. Таълимдаги ҳамкорлик ва илғор тажрибалар сабоги. Халқ сўзи. 2022 йил 21 июль.
5. Халқ сўзи. 2022 йил 29 январь.

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены реформы в сфере воспитания и образования в Республике Узбекистан связанные с дошкольной и школьной системой образования, где основной философией является непрерывное образование. Автор уделяет внимание концептам развития в школах таких качеств как hard skills (необходимая инфраструктура, материально-техническое обеспечение) и soft skills (расширение уровня знаний и кругозора учащихся, педагогов и администрации школ.). В работе рассматривается опыт Финляндии как перспективный этап развития образования в стране.

**Ключевые слова:** образование, дошкольное образование, школьное, hard skills, soft skills, OECD, PISA, финское образование.

**Annotation.** This article discusses the reforms in the field of upbringing and education in the Republic of Uzbekistan related to the system of preschool and school education, where the main philosophy is education throughout life. The author draws attention to the concept of developing in schools such qualities as hard skills (the necessary infrastructure, logistics) and soft skills (expanding the level of knowledge and horizons of students, teachers and school administration). The article considers the experience of Finland as a promising stage in the development of education in the country.

**Key words:** education, preschool education, school education, hard skills, soft skills, OECD, PISA, Finnish education.

# ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРДА ЁШЛАРНИНГ ИЖТИМОИЙ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШДА НОДАВЛАТ НОТИЖОРАТ ТАШКИЛОТЛАРИНИНГ МУҲИМЛИГИ

Элёр ФОЙИБОВ

Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ҳузуридаги Ёшлар муаммолари ни ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти таянч докторанти

**Аннотация.** Сўнгги йилларда Ўзбекистоннинг турли хил соҳаларида ёшларнинг ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини таъминлаш, ўз салоҳиятини тўлақонли рўёбга чиқариш учун қулай имкониятлар яратиш, жамият ва давлат ишида иштирокини кенгайтириш, ижтимоий-иктисодий янгиланишлар таълим муассасаларида ёшларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш жамиятнинг устувор йўналишлари ҳисобланади.

**Калип сўзлари:** ҳуқуқ, нодаевлат нотижорат ташкилотлар, қонуний манфаат, сиёсат, жамият, устувор йўналишлар.

## Кириш

Дунёда аҳолининг демографик ўсиб боришига мутаносиб равишда ёшлар сони ўсиб бормоқда. Халқаро меҳнат ташкилоти маълумотларига кўра, дунёдаги ёшлар сони 1.3 млрд нафарни ташкил этмоқда. Дунёда ҳар беш нафар ёшлардан бири ишсиз бўлиб, муайян касбга ва даромадга эга эмас<sup>1</sup>. Ўзбекистон аҳолисининг 55 фоизини ёшлар ташкил этади<sup>2</sup>. Ёшлар сонининг ўсиш даражаси давлатнинг ёшларга оид сиёсатини амалга ошириш жараёнларига катта таъсир ўтказади. Бу ўз навбатида ҳар бир давлатдан ёшларни ижтимоий ҳимоя қилиш улар билан ижтимоий иш олиб бориш механизmlарини такомиллаштириб боришни тақозо этади.

Жаҳон илм фанида ёшларнинг жамиятга интеграциялашуви, ёшларга оид давлат сиёсатини бо-

шқариш жараёнларини илмий таҳлил этиш, ёшлар ижтимоий ҳаётida рўй берадиган ижтимоий-демографик ўзгаришларни тизимли ўрганиш, ёшлар жамоат бирлашмаларининг ташабbusларини қўллаб-куватлашнинг аҳамияти, жамиятни модернизациялаш шароитида ёшларни ижтимоий фаоллиги масаласи алоҳида эътибор касб этмоқда.

Мамлакатимизда ёшларга оид давлат сиёсатини сифат жиҳатдан янги босқичга олиб чиқиш, ёшларнинг таълим муассасаларидаги ижтимоий фаоллигини ошириш, ёшлар томонидан дуч келаётган ижтимоий муаммоларни тизимли ҳал этиш, мамлакатимиз худудларининг ўзига хослигини инобатга олиб, ёшлар билан ишлашда инновацион ёндашувларни қўллаш, ёшларни ижтимоий ишнинг обьекти сифатида ўрганиш, ёшларни ижтимоий ҳимоялаш ва қўллаб кувватлаш механизмларини такомиллаштириш учун тизимли тадқиқотлар олиб бориш муҳим илмий-амалий аҳамият касб этади.

<sup>1</sup> <https://population.un.org/wpp/>

<sup>2</sup> <https://stat.uz/ru/>

## Асосий қисм

Мураккаб ривожланган жамиятда таълим мусассаларидаги ёшларни сиёсий қарашларга бўлган чанқоқлигини қондириш энг асосий масала саналади. Ҳозирда улар ўзларининг бўш вақтларининг 80-90% ижтимоий тармоқларда ўтказишмоқда бу эса ўз навбатида уларнинг ҳуқуқий саводхонлигига қараб турли хил ноxуш ҳолатларни келтириб чиқармоқда.

Тараққиёт стратегиясини 2022 йилда амалга ошириш бўйича “Йўл ҳаритаси”нинг “Инсон қадрини юксалтириш ва эрkin фуқаролик жамиятини янада ривожлантириш орқали халқпарвар давлат барпо этиш” деб номланган биринчи йўналишига асосан, фуқаролик жамияти институтлари фаолиятини ташкилий-ҳуқуқий, молиявий-иқтисодий ва институционал жиҳатдан қўллаб-қувватлаш, давлат органлари ва нодавлат нотижорат ташкилотлари ўртасидаги ижтимоий шерикликни мустаҳкамлаш ҳамда инсон қадри улуғланган адолатли ҳуқуқий давлат ва кучли фуқаролик жамияти барпо этишда нодавлат нотижорат ташкилотларининг ижтимоий-сиёсий фаоллигини янада ошириш масалаларига қаратилди. Қайд этилдики, Президентимизнинг “2021–2025 йилларда фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги фармони асосида Сўнгги йилларда нодавлат нотижорат ташкилотлари ва фуқаролик жамиятининг бошқа институтларини қўллаб-қувватлаш, давлат органлари ва улар ўртасида ижтимоий шерикликни кучайтириш, таъсирчан жамоатчилик назоратини амалга ошириш, шунингдек, ушбу соҳани тартибга солувчи ҳуқуқий базани такомиллаштириш борасида изчил ишлар олиб борилди.

Хусусан, охирги тўрт йилда нодавлат нотижорат ташкилотлари ва фуқаролик жамияти бошқа институтларининг 1270дан ортиқ лойиҳаларини қўллаб-қувватлаш мақсадида Давлат бюджетидан 117 миллиард сўм миқдордаги маблағлар ажратилди.

Амалга оширилган чора-тадбирлар натижасида нодавлат нотижорат ташкилотларининг ҳуқуқий кафолатларини таъминлайдиган, замонавий демократик талабларга ва халқаро стандартларга жавоб берадиган норматив-ҳуқуқий база янада такомиллаштирилди. Бунинг натижасида 20га яқин қонун, Ўзбекистон Республикаси Президентининг ҳужжатлари ва Хукуматнинг қарорлари қабул қилинди.

Нодавлат нотижорат ташкилотлари манфаатларини ифода этиш, давлат билан улар ўртасидаги кўприк вазифасини бажаришга қаратилган Ўзбекистон Республикаси Президенти хузурида-

ги Жамоатчилик палатаси ташкил қилинди, шунингдек, аҳоли билан очиқ мулоқот олиб боришнинг янги самарали воситаларини жорий этиш мақсадида давлат органлари хузурида жамоатчилик кенгашлари фаолияти йўлга кўйилди.

Мамлакатимизда эрkin фуқаролик жамиятини шакллантириш ва ривожлантириш, инсон ҳуқуқларини, қонуний манфаатларини, демо-



кратик қадриятларни ҳимоя қилиш, аҳолининг сиёсий маданияти ва ҳуқуқий онгини оширишга муносиб ҳисса қўшган нодавлат нотижорат ташкилотлари вакилларини рағбатлантириш мақсадида «Фуқаролик жамиятини ривожлантиришга қўшган ҳиссаси учун» кўкрак нишони таъсис этилди ҳамда соҳанинг 126 нафар фаоллари ушбу юксак мукофот билан тақдирланди.

Кўрилаётган чоралар натижасида сўнгги тўрт йилда фуқаролик жамиятининг энг асосий институти ҳисобланадиган нодавлат нотижорат ташкилотлари сони 20,7 фоизга ошди, шу жумладан 187та йирик республика нодавлат нотижорат ташкилотлари ўз фаолиятини бошлади.

Шу билан бирга, ушбу ишларни сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш ҳамда мамлакатимизда фуқаролик жамиятини ривожлантиришнинг яқин ва ўрта муддатли истиқболларини белгилаб олиш зарур.

Давлат ва нодавлат ташкилотлари ўртасидаги ўзаро ҳамкорлик тобора мустаҳкамланиб бормоқда. Булар, ижтимоий лойиҳаларни, хусусан, давлат томонидан ажратилган грантларни, жамоатчилик назоратини амалга оширишда, айниқса, ёшларнинг, таълим, соғлиқни сақлаш, маданият, спорт, бандлик, ижтимоий хизматлар

каби соҳалардаги муаммоларни ҳал этиш ўз аксини топмоқда. Маълумки, ҳар бир жамият ўзининг қатъий белгиланган ижтимоий хулқ-атвор дастурлари тизимиға ва жамоатчилик фикри, одатлар, ахлоқий тамойиллар, анъаналар кучига таянувчи хулқ-атвор қоидаларига эга. Қабул қилинган меъёрлар хулқ-атворнинг тарихан шакланган қоидалари сифатида талқин қилинади. Шу билан бирга, у баҳоловчи мазмунга ҳам эга. Унга мувофиқ равишда ҳар қандай ҳаракат «тӯғри» ёки «нотӯғри», «яхши» ёки «ёмон» деб тавсифланади. Бундай тушунишда меъёрнинг табиий коррелятив, яъни, унга боғлиқ тушунча «оғиши» атамаси қўлланилади. Одатда, «оғиши» термини ҳар қандай «касал» ва «касаллик» хусусида мупоҳаза юритилганида ҳам ишлатилади. Чунки, оғиш аниқ термин бўлмасдан, балки бу сўз орқали хулқ-атвор ёки унинг симптомлари билан боғлиқ белгилар тушунилади.

Ижтимоий оғишнинг кенг тарқалган турлари асосан инсон умрининг дастлабки босқичларida, хусусан, ўсмирлик даврида кўп кузатилади. Ўсмирлик даври тараққиёти ўзига хос номланишларга эга бўлади: «ўтиш даври», «кескин ўзгариш даври», «портловчи давр», «қийинчиллик даври», «танқидга учраш даври» ва ҳоказо. Ушбу ҳолатни қўйидагича изоҳлаш мумкин:

Биринчидан, шу даврда юз берувчи кўпқиррала сифат ўзгаришлари (уларнинг қизиқишлиари доирасидаги, ўзаро муносабатлари тизимидағи ва бошқалар) жуда қисқа вақт оралиғида, кўпинча тўсатдан, фавқулодда содир бўлиши оқибатида ривожланиш «сакраш» тарзида рўй беради ҳамда жўшқин хусусиятга эга бўлади.

Иккинчидан, юз бераётган ўзгаришлар, бир томондан, ўсмирларнинг айнан ўзига хос ва турли тартибдаги субъектив қийинчилликлари, бошқа томондан эса унинг шаклланиши жараёнидаги мураккабликлар орқали кечади<sup>3</sup>.

Ушбу ҳодиса ижтимоий-гуманитар фанлар, хусусан, социология, психология, педагогика, хуқуқшунослик каби фанлар, шунингдек, тиббиёт, биология фанлари илмий тадқиқотларининг кенг қамровли обьекти саналади.

Девиантликни изоҳлашда Дюргейм томонидан келтирилган – аномия ғояси аҳамиятлидир<sup>4</sup>. Бизга маълумки, бу тушунча билан «ижтимоий ўзаро муносабатлар билан бошқарилувчи меъёрларнинг тутган ўрни пасайиши» кўринишидаги ижтимоий вазият тавсифланади. Дюргейм томонидан таъкидланишича, етарлича кўп ҳолатларда девиациялар (жумладан, унинг ўз жонига қасд

<sup>3</sup> Тўлаганова Г.К. Изучение особенностей личностной структуры подростков //Вестник Тверского Государственного Университета № 23. 2010. – С.51-57.

<sup>4</sup> Дюргейм Э. Самоубийство: Социологический этюд. //Пер, с фр. с сокр. /Под ред. В. А. Базарова. – М.: Мысль, 1994. Книга II Социальные причины и социальные типы. 42-53-б.

қилиш билан боғлиқ ҳолатларида) аниқ тарздаги ижтимоий меъёрларнинг мавжуд эмаслиги натижасида юзага келиши кузатилади. Ушбу ҳолатда тартибларга бўйсуниш талаб қилинган ҳолатда, кўпчиликнинг бу ҳолатга кам розилик билдириши ҳолатларида қайта ташкилланишнинг умумий ҳолати ёки аномия чуқурлашади.

Ушбу ғояга таянган ҳолатда Роберт Мертон томонидан девиациянинг аномик концепцияси ишлаб чиқилди<sup>5</sup>. Унинг таъкидленишича, хоҳлаган турдаги девиациянинг асосий сабаби институционал маданий мақсадлар ва ушбу мақсадларга эришишда ижтимоий маъқулланган воситаларга эга бўлиш ўртасидаги номутаносиблик билан боғлиқ ҳисобланади. Р.Мертон одамларнинг ижтимоий ва маданий жиҳатдан берилган мақсад ва воситаларга мослашишида бешта типини ажратиб кўрсатади. Яққол тарзда ифодаланиши учун у уларни схематик жадвалга жойлаштиради ва бу ерда «+» рамзи «қабул қилиш», «+» рамзи мавжуд жорий қадриятларнинг рад этилиши ва уларни янгилари билан алмаштиришни» ифодалайди.

### Ёшларни ижтимоий қўллаб-кувватлашда давлат ва жамоат ташкилотларини ўрни.

Бугун мамлакатимизда кенг қамровли ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишда давлат ҳокимияти ва бошқарувчи органлари билан биргаликда нодавлат нотижорат ташкилотлари ва фуқаролик жамиятининг бошқа институтлари иштироки йилдан-йилга кучайиб бормоқда. 2030 йил 30 июня мамлакат ёшлар ҳаётида янги саҳифа очилди. Ўзбекистон Республикаси Президенти ташаббуси билан Ўзбекистон Ёшлар Иттифоқи ташкил этилди, унинг асосий фаолияти ёшларнинг барча ташаббусларни қўллаб-кувватлаш ва амалга оширишга қаратилган. Ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишда мамлакатимиз ёшларнинг энг йирик нодавлат нотижорат ташкилоти Ёшлар Иттифоқининг алоҳида ўрни бор. Олий Мажлис Қонунчиллик палатасида ёшлар масалалари бўйича комиссия ва “Ёшлар клуби” тузилди. Республика даражасида Бош вазир раҳбарлигида, худудларда эса ҳокимлар раислигида ёшлар масалалари бўйича Идоралараро Кенгашлар фаолияти йўлга қўйилди. Маҳаллий ҳокимият ва ички ишлар органларида янги штат бирликлари ёшлар масалалари бўйича ҳоким ўринbosарлари ва ички ишлар бошлиғи ўринbosари лавозими жорий этилди. Ёшлар ташаббуси билан Ёшлар Иттифоқи қошида 26та нодавлат нотижорат ташкилотлари, жумладан, Ёшларга ижтимоий-психологик ёрдам кўрсатиш Республика маркази, Имконияти чекланган

<sup>5</sup> Қаранг: Добреньков В.И., Кравченко А.И. Социология: В 3 т. Т.3: Социальные институты и процессы.

ёшлар ва болалар маркази, Ёш олимлар Республика Кенгаши, Ёш фермерлар Кенгаши, Ёшлар туризми агентлиги, Ўзбекистон Ёшлари умумжаҳон ассоциацияси, ижодкор Ёшлар Республика Кенгаши, Ёшлар медиа маркази, Ёшлар нашриёт уйи ва бошқалар ташкил этилди. Ўзбекистон Республикаси давлат бошқаруви академияси қошида Ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти фаолияти йўлга қўйилди. Янги таҳрирдаги “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Қонунда ёшларнинг нодавлат нотижорат ташкилотларини қўллаб-кувватлаш борасида ҳам аниқ механизmlарни таклиф этяпти. Хусусан, унга мувофиқ, ёшларнинг нодавлат нотижорат ташкилоти жисмоний ва (ёки) юридик шахслар томонидан ихтиёрийлик асосида ташкил этилган, даромад (фойда) олишни ўз иштирокчилари (аъзолари) ўртасида тақсимлайдиган, ёшларнинг шахсий, сиёсий, иқтисодий, ижтимоий ҳамда маданий ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини рўёбга чиқаришни ҳамда ҳимоя қилишни, шунингдек, ёшларнинг ижтимоий фаоллигини оширишни ўзининг асосий мақсадларидан бири деб биладиган, ўзини ўзи бошқарадиган ташкилотdir. Давлат ёшларнинг нодавлат-нотижорат ташкилотларни моддий ва молиявий жиҳатдан қўллаб-кувватлайди, уларга қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда таълим муассасаларининг бинолари, клублари, маданият саройлари ва уйларидан, спорт иншоотларидан ва бошқа иншоотлардан фойдаланиш ҳуқуқини беради. Ёшларнинг нодавлат нотижорат ташкилоти ўз мулкида биноларга, иншоотларга, уй-жой фондига, ускуналарга, ашёларга, маданий-маърифий ва соғломлаштириш учун мўлжалланган мол-мулкка, ўз уставида назарда тутилган, фаолиятини моддий жиҳатдан таъминлаш учун зарур бўлган пул маблағларига, қимматли қофзларга ва бошқа мол-мулкка эга бўлиши мумкин. Ўн тўрт ёшга тўлган шахс ёшларнинг нодавлат нотижорат ташкилоти аъзоси бўлиши мумкин. Нодавлат нотижорат ташкилотига аъзо бўлиш, аъзоликни йўқотиш шартлари ва тартиби, шу жумладан, ёшига кўра унинг аъзолигидан чиқиш шартлари тегишли нодавлат нотижорат ташкилотининг уставида белгиланди.

Ўзбекистон Республикасида истиқбол тараққиётнинг илк кунлариданоқ қонун устувор бўлган демократик давлат ва ривожланган фуқаролик жамият куриш йўлидан бораётган даврда, ҳаётнинг барча соҳалари қатори, ёшларга оид давлат сиёсатига доир бир қатор ишлар амалга оширилмоқда. Таъкидлаб ўтиш лозими, мамлакатимизда ёшларни ватанпарварлик, миллий анъана ва қадриятларимизга ҳурмат

руҳида тарбиялаш, маънавий етук ва жисмонан соғлом авлодни вояга етказиш, уларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш, шунингдек, ҳар томонлама баркамол, мустақил фикрлайдиган, мамлакатимиз истиқболи учун масъулиятни ўз зиммасига олишга қодир, ташаббускор, ҳалқ манфаати йўлида бор салоҳиятини сафарбар қиласиган, шижаатли ёшларни тарбиялаш, уларнинг интеллектуал ва ижодий салоҳиятини рўёбга чиқариш учун мустаҳкам ҳуқуқий пойдевор яратишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Шу билан бирга жойларда, авваламбор, республикамизнинг чекка ҳудудларида истиқомат қилаётган кўп сонли ёшларнинг, қолаверса, жисмонан имконияти чекланган ёшларнинг ҳам ўз иқтидор ва истеъодини рўёбга чиқаришлари, тадбиркорлик фаолияти билан

шуғулланишлари учун кенг шароитлар яратиш, уларни турли заарли иллат ва ёт ғоялар таъсиридан ҳимоя қилиш, ёшлар ўртасида ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш каби мухим вазифаларни ҳал этиш борасида муйайян фаолият амалга оширилиб келинмоқда. Ўзбекистонда давлат ва ҳалқ ўртасида мустаҳкам ҳамкорликни ўрнатишда ўзини ўзи бошқариш органлари – маҳалла институти мухим роль ўйнайди. Хусусан, қонуннинг 18-моддаси тўлалигича ёшларга оид давлат сиёсатини рўёбга чиқаришда фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, яъни маҳалла институтининг иштирокига, уларнинг амалга оширадиган вазифаларига бағишланганлиги билан ҳарактерлидир. Ёшлар сиёсатини амалга оширишда маҳалла институтига алоҳида эътибор берилишининг боиси, маҳалла тузилмаси узок тарихдан ҳалқимизнинг урф-одатлари эъзозланадиган, ёшлар маънавий-аҳлоқий тарбиясини шакллантириш, уларнинг онгида ватанпарварлик, инсонпарварлик каби улуғвор фазилатларни камол топтиришда асосий рол ўйнайдиган демократик маскан сифатида эътироф этилади. Амалга оширилган демократик ислоҳотлар натижасида бугунги кунга келиб маҳалла институтининг вазифа ва ваколатлари сони ортиб бормоқда ҳамда улар орасида ёш авлодни тарбиялаш масаласи асосий вазифалардан бири ҳисобланади. Мамлакатимизда олиб борилаётган демократик ислоҳотларга назар ташлаб, маҳалла институти бошқарувига киритилган демократик янгиланишлар орқали унинг мавқейини мустаҳкамлашга қаратилган сезиларли ўзгаришларни амалга оширилганлигини кузатиш мумкин. Дарҳақиқат, маҳалла институти бошқа орган ва муассасалар сингари ёшларга оид давлат сиёсати соҳасидаги давлат дастурларини, ҳудудий ва бошқа дастурларни ишлаб чиқиш ҳамда амалга оширишда мухим вазифа-

ларни бажаради. Халқимиз томонидан “Бир болага етти маҳалла ота-она” деган мақол бежизга айтилмаган. Айнан “оила –маҳалла – таълим мұассасаси” ҳамкорлиги натижасида ёшлар тарбияси, таълим олиш сифати ошиб, янги имконият йўллари кенгаяди. Бу борада маҳалла фуқаролар йиғини фаолларининг таълим мұассасалари билан ҳамкорликни мустаҳкамлаш мақсадида ҳуқуқий асослар тақомиллаштириб борилмоқда. Биз яшаётган асрда ахборот технологияларининг тобора ривожланаётганлиги, ҳаётимизнинг катта қисмida интернетга боғлиқларимиз сабабли ёшларда электрон тармоқлар билан ишлаш маданиятини кучайтишини ҳаётнинг ўзи тақозо



этмоқда. Статистик маълумотларга кўра, Ўзбекистонда ҳам интернетдан фойдаланувчилар сони 9,8 миллион кишидан ошиб кетди. “Uz” доменида 16 мингга яқин веб-сайтлар фаолият олиб бормоқда, 200дан ортиқ веб-сайт ОАВ сифатида рўйхатга олинган<sup>6</sup>. Интернет оламига шиддат билан кириб келаётган Ўзбекистон олдида ёшларни интернетдан фойдаланиш саводхонлиги билан бирга маданиятини ҳам юксалтириш вазифаси мухим саналади. Мазкур вазифани бажаришда “Оила – маҳалла – таълим мұассасаси” ҳамкорлиги тизимли равишда фаолиятни йўлга қўйиши керак бўлади. Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тизимида сўнгги йилларда амалга оширилган ислоҳотлардан яна бири маҳалла оқсоқолига ўз ҳудудидаги ишсиз аҳолини мөхнат бандлиги билан таъминлашда қўшимча ваколатлар берилишини ҳуқуқий жиҳатдан таъминлаганига алоҳида тўхталиб ўтиш лозим. Бугунги кунда жаҳон миқёсида кўпчилик мамлакатларни аҳоли бандлигини таъминлаш масаласи жиддий хавотирга солади. Жумладан, Ўзбекистон Республикасида ҳам аҳолини иш билан таъминлаш масаласи мухим давлат сиёсати дараҷасидаги устувор масала ҳисобланади. Бандликни таъминлаш борасидаги мавжуд мұаммолар ижобий ҳал этилишида “Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларида мөхнат муносабатларини тартиба солиш тўғрисидаги низом-

<sup>6</sup> Саифназаров.И., Саифназарова Ф. Ёшлар ва оила – Ватан таъяни. – Т.: Таълим нашриёти, 2018. – Б. 74

ни тасдиқлаш ҳақида”ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 944-сонли Қарори мухим роль ўйнайди. Ушбу Қарор асосида тасдиқланган фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларида мөхнат муносабатларини тартиба солиш тўғрисида **Низомнинг 2-боб, 5-қисмига биноан** фуқаролар йиғини раиси (оқсоқоли) маҳаллалар ҳудудида яшайдиган ишсиз шахспарни жамоат ишларига жалб қилиш учун улар билан мөхнат шартномалари тузиш ҳуқуқига эга ва уларнинг мөхнатига Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва мөхнат муносабатлари вазирлариги хузуридаги Жамоат ишлари жамғармаси маблағлари ҳисобидан ҳақ тўланади<sup>7</sup>. Натижада маҳалла оқсоқоли ўз ҳудудидаги ишсиз, кам таъминланган аҳолини белгиланган юридик тартибида иш билан таъминлаш, ўзининг тавсиясига биноан маҳалладаги тадбиркорлик лаёқатига эга бўлган ёшларни банқдан имтиёзли кредит олиб тадбиркорлик фаолиятини йўлга қўйишига шароит яратиб бермоқда. Дарҳақиқат, амалга оширилаётган ислоҳотлар орқали бугунги кунда маҳалла институтининг вазифа ва ваколатлари кенгайиб, маҳаллий ҳокимият идоралари бажарадиган кўплаб функцияларни ўз зиммасига олиши натижасида ҳалқ билан давлат ўртасида мустаҳкам кўприк вазифасини бажариб, жамиятнинг энг мухим бўғинига айланиб бормоқда. Мазкур ваколатлар эса маҳалла институтининг фуқаролар олдидаги масъулиятини янада ошишига сабаб бўлмоқда. Маҳалла институти жамиятнинг кичик, лекин асосий бошқарув бўғини эканлиги, унинг ташаббуси ва бевосита иштироки орқали ўз ҳудудидаги ёшлар билан яқиндан, ҳеч қандай тўсиқларсиз уларнинг ҳаётида мавжуд муаммона камчиликларни аниқлаш имкониятини кенгайтиради. Маҳалла институти фаолияти ҳамда ёшларни баркамол авлод қилиб тарбиялашда янада салмоқли натижага эришиш учун қўйидаги тавсияларимизни келтириб ўтмоқчимиз: **биринчидан**, маҳалла фуқаролар йиғинида жамоатчилик асосида фаолият юритадиган фуқаролар йиғини раисининг ўринбосари – ёшлар бўйича маслаҳатчиларни рағбатлантириш бўйича ҳуқуқий асосларни тақомиллаштириш лозим; **иккинчидан**, ҳудудий жиҳатдан яқин бир неча маҳаллада кутубхона ташкил этиш орқали нафақат китобхонлар сафини кенгайтириш, балки бутун республикамизда янги иш ўринини яратиш имкониятини ҳам қўлга киритиш мумкин. Демак, ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишда маҳалла тузилмаси мухим институт ҳисобланади. Давлат ва хўжалик бошқаруви органлари, нодавлат нотижорат ташкилотлари ва

<sup>7</sup> Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларида мөхнат муносабатларини тартиба солиш тўғрисида Низом. 2017 йил 27 ноябрь, <http://lex.uz/docs/3426881>

бошқа ташкилотлар билан биргаликда кам таъминланган оилалардан бўлган ёшларга қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда қўшимча моддий ёрдам кўрсатади. Шунингдек, ёшларнинг ҳукуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилишга, оиласда маънавий-ахлоқий муҳитни шакллантиришга қаратилган чора-тадбирларни кўриш, ёшларни тарбиялаш масалалари юзасидан таълим муассасалари ва бошқа муассасалар билан доимий равишда ҳамкорлик ўрнатади. Бу ўринда мамлакатимизда ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишда муҳим тизим ҳисобланган “оила – маҳалла – таълим муассасаси” ҳамкорлигини алоҳида қайд этиш лозим.

Биринчидан, мазкур соҳадаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш ва янги юксак сифат босқичига кўтариш ҳамда “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Қонунда белгиланган вазифаларнинг тўлақонли ижросини ташкил этиш мақсадида давлат ҳокимиюти ва бошқаруви органлари, нодавлат нотижорат ташкилотлари ва фуқаролик жамияти бошқа институтлари томонидан ушбу йўналишда самарали ҳамкорликни амалга оширилиши муҳим аҳамият касб этади.

**Иккинчидан**, мамлакатимизда олиб бориляётган испоҳотлар инсон манфаатларига хизмат қилиши манзарасини сиёсий-ҳукуқий ва ижтимоий-иқтисодий соҳаларда шиддат билан бўлаётган ўзгаришларда кўришимиз мумкин. Ёшлар сиёсати ижросини амалга ошириш мақсадида республикада нафакат фаол ёшлар, балки уюшмаган, ногиронлиги бўлган, ижтимоий эҳтиёжманд (моддий таъминотга муҳтоҷ ва адашганлар), ҳукуқбузарлик ва жиноят содир этишга мойиллиги мавжуд, профилактик ҳисобда турувчи, шунингдек, жазони ижро этиш муассасадан қайтган ёшларни ҳам қамраб олиш устувор вазифа этиб белгиланган. Келтириб ўтилган ёшларнинг айрим қатламларини ҳамраб олиш механизмлари ишлаб чиқилганини, масъул ташкилотларнинг фақатгина ўзаро ҳамкорлиқдана бу борадаги фаолиятларини ортиқча қийинчиликлариз амалга ошириш имконини беради. “Ижтимоий шериклик тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг Қонунида кўрсатилганидек, давлат ва нодавлат ташкилотлари аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш, қўллаб-қувватлаш ва унинг ижтимоий фаоллигини ошириш, унинг бандлигини таъминлаш, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни, фермерликни ривожлантириш, ҳар томонлама баркамол ва соғлом ёш авлодни шакллантириш, ёшларга билим бериш, уларни маънавий-ахлоқий жиҳатдан тарбиялаш ва касбга йўналтириш, шунингдек, хотин-қизларнинг ҳукуқларини ҳимоя қилиш, уларнинг мамлакат

ижтимоий-сиёсий, социал-иқтисодий, маданий ҳаётида тўлақонли иштирок этишини таъминлаш, соғлом оиласи шакллантириш ва яна бир қатор соҳаларда ҳамкорликни амалга оширишлари, уларнинг фаол иштироклари ўз навбатида фуқаролик жамияти муҳим мезонларидан бири эканлигини кўришимиз мумкин.

**Учинчидан**, давлат ва нодавлат ташкилотлари томонидан ўсиб кепаётган кепажак авлодни қамраб олиш тизимининг мукаммал шакллантирилиши ёшларга оид давлат сиёсатини жойларда самарали амалга оширишнинг бир усул ва воситасидир. Хусусан, ёшлар билан боғлиқ салбий оқибатлар (бандлик, ҳукуқбузарлик ва жиноятлар, ёш оиласада ўртасида ажримлар, шунингдек, ноқонуний миграция)ни келтириб чиқарувчи сабабларни олдини олиш учун, даставвал, уларнинг маънавий-маърифий билим салоҳияти ҳамда китобхонлик маданиятини, шунингдек, ҳукуқий саводхонлигини янада оширишга қаратилган испоҳотлар тизимли олиб борилмоқда.

**Тўртингчидан**, шахс, оила ва маҳаллада дастлабки ижтимоий-маърифий маданиятининг шаклланишини инобатга олсан, маҳалла институтининг ёшлар масалаларига оила институтидан кейинги масъул ташкилотлардан бири эканлигини эътироф этишимиз мумкин.



## Хулоса

Ёшларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш ҳозирги кун тартибининг асосий вазифасидир. Бу эса, ёшлар қайси томонга қараб ҳаракатланаётганлигини аниқлаш билан бирга, ушбу ҳаракатни жамият учун фойдали йўналишда бошқаришни ташкил этиш имконини ҳам беради. Жамиятда ижобий қадрияtlар устуворлигига эришиш ва ёшларнинг қадрият мўлжалларини тўғри шакллантириш том маънодаги ижобий яратувчи кучни таркиб топтириш имконини беради.

Мамлакатимизда ёшлар муаммоларини илмий-назарий ҳамда амалий тадқиқ этиш орқали қуидаги хулосаларга келинди.



Биринчидан, ёшларнинг жамият ижтимоий тараққиётидаги ўрни ва аҳамиятини ўрганиш, ёшларнинг турли гурухларининг «социаль портретини» яратиш, ёшларни турмуш тарзининг барча жабҳаларига хос талаблари, манфаатлари, қадрият мўлжаллари, жамиятдан нималарни кутаётганликларини тадқиқ этиш;

Иккинчидан, фаол ҳаёт позициясини, турмуш тарзи ва хулқ-атворини шакллантириш;

Учинчидан, турли ижтимоий соҳалардаги мослашувчанлик хусусиятларини ўрганиш;

Тўртинчидан, ёшларнинг ҳаётй режаларини ўрганиши ва уларни амалга оширишларига кўмаклашиш;

Бешинчидан, ёшларнинг ижтимоий фаоллик заҳираларини ва пассивлик сабабларини, уларнинг турли даражаларда бошқарув ва ўз-ўзини бошқарувдаги иштирокларини тадқиқ этиш;

Олтинчидан, меҳнат ва ишсизликка маънавий-рухий тайёрлик даражасини аниқлаш ва бошқалар.

#### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Гриффитҳс A. Phillips, "How Can One Person Represent Another?" The Aristotelian Society, Supplementary Vol. XXXIV (1960): Б. 203.
2. Хардин Руссел. "Representing Ignorance". Social Philosophy and Policy, 2004. 21: 76-99.
3. Стролвич Дара З. "Affirmative Representation," Democracy and Society, 2004. 2: 3-5.
4. Дюркгейм Э. Самоубийство: Социологический этюд. //Пер, с фр. с сокр. /Под ред. В. А. Базарова. – М.: Мысль, 1994. Книга II Социальные причины и социальные типы. 42-53-б.
5. Қаранг: Добреньков В.И., Кравченко А.И. Социология: В 3 т. Т.3: Социальные институты и процессы.
6. Саифназаров.И., Саифназарова Ф. Ёшлар ва оила – Ватан таянчи. – Т.: Таълим нашриёти, 2018. – Б. 74
7. Тўлаганова Г.К. Изучение особенностей личностной структуры подростков //Вестник Тверского Государственного Университета № 23. 2010. – С.51-57
8. Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларида меҳнат муносабатларини тартибга солиш тўғрисида Низом. 2017 йил 27 ноябрь, <http://lex.uz/docs/3426881>

**Аннотация.** В последние годы обеспечение прав и законных интересов молодежи в различных сферах деятельности Узбекистана, создание удобных возможностей для полной реализации ее потенциала, расширение ее участия в жизни общества и государства, социально-экономических реформах, повышение общественной активности молодежь в образовательных учреждениях является приоритетом общества.

**Ключевые слова:** право, негосударственные некоммерческие организации, законные интересы, политика, общество, приоритеты.

**Abstract.** In recent years, ensuring the rights and legal interests of young people in various fields of Uzbekistan, creating convenient opportunities for the full realization of their potential, expanding their participation in society and state affairs, social and economic reforms, and increasing the social activity of young people in educational institutions are the priorities of society.

**Key words:** law, non-governmental non-commercial organizations, legal interest, politics, society, priorities.

# O'QUVCHI YOSHLARDA LIDERLIK QOBILIYATINI ANIQLASH VA SHAKLLANTIRISH METODLARI

**Shofozil MAXSUDOV**

*Toshkent viloyati Parkent tumani 13-umumta'lim maktabining Ma'nnaviy ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosari*

**Annotatsiya.** Maqolada o'quvchilar va yoshlar o'rtasida so'rovnomalari orqali ularda boshqaruvchanlik, liderlik qobiliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik, ijtimoiy, psixologik shart-sharoitlarni o'rganish va milliy mentalitetimizga mos keladigan o'quvchi yoshlardan uchun uslubini tanlash, ularda liderlik qobiliyatlarini oshirish metodlari, ish jarayonida unumli foydalanish haqida so'z yuritilgan. O'quvchi yoshlarda liderlik qobiliyatini aniqlashda kerak bo'ladigan so'rovnomalari va liderlik qobiliyatini shakllantirishga doir metodlar yo'ritilgan. Bu bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** metod, so'rovnoma, boshqaruv, lider, rahbarlik, ijtimoiy faoliyk, ma'nnaviy faoliyk, madaniyat, keng dunyoqarash, ijtimoiylilik.

## Kirish

O'zbekistonda islohotlarning davomiyligini ta'minlash hamda demokratik fuqarolik jamiyatini shakllantirish, yoshlardan, xususan, ularning ijtimoiy faolligiga, jamiyatda o'rniiga bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2023-yilni „Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili“ deb e'tifor etishida ham yoshlarga bo'lgan katta e'tibor berilayotganini ko'rish mumkin.

Yosh avlodning har tomonlama kamol topishi jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omil bo'lishi bilan bir qatorda uning shaxs sifatida ijtimoiy-faolashuvi, ularda liderlik qobiliyati ham yetakchi o'rinn tutadi. O'quvchi yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish quyidagi ikki jihatga ko'ra muhim ahamiyatga ega: birinchidan, shaxsnинг jamiyatda o'z o'rmini topishi uchun zamin yaratadi, ikkinchidan esa, uning bilimi, kuch-quvvati, imkoniyati hamda iqtidori, liderlik qobiliyati jamiyat rivoji yo'lida mehnat qilishga yo'naltiriladi. Manbalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, demokratik jamiyatda o'quvchilar va yoshlarning liderlik qobiliyati o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi, balki muntazam tarzda maqsadli ravishda olib borilgan pedagogik faoliyat, so'rovnomalari orqali liderlik

qobiliyatini aniqlash maxsus metodlar yordamida ota-onalar bilan hamkorligida rivojlantirish natijasida shakllantiriladi. O'quvchi yoshlarga nazariy-amaliy bilimlarni berish, ularda liderlik qobiliyati bo'yicha ko'nikma va malakalarini hosil qilish pedagogika nazariyasi va amaliyoti, yoshlarni boshqarish sohalari uchun ham o'ziga xos ahamiyatga ega ekanligi bilan dolzarblik kasb etadi.

## Asosiy qism

Muammoga oid nazariy manbalar hamda uning amaliy holatini o'rganish natijalari mazkur sohada bir qator ziddiyatlarning mavjudligini ko'rsatdi. Xususan:

- o'quvchi-yoshlarning liderlik qobiliyatiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar bilan ularning bilim, ko'nikma va malakalarini, mavjud liderlik qobiliyati kompetensiyalari o'rtasidagi nomutanosiblik;
- o'quvchi yoshlarning liderlik qobiliyati o'z-o'zidan yuzaga kelmasligi, balki doimiy ravishda olib boriladigan pedagogik faoliyat, so'rovnomalari natijasida shakllantirilishi va bu jarayon tadqiqi va tahvilii yo'nalishga ega bo'lgan pedagogik, yoshlarni boshqaruv tizim sifatida ko'rib chiqilmaganligi;

– o'quvchi-yoshlar liderlik qobiliyati so'rovnomalar orqali o'rganish va rivojlantirish metodlarini bir qator o'ziga xos xususiyatlari va omillari mavjud bo'lib, ular yetarlicha o'rganilmaganligi;

– o'quvchi-yoshlar liderlik qobiliyatini so'rovnomalar orqali o'rganish, rivojlantirish metodlari yo'naltirilgan pedagogik jarayonning ilmiy asoslangan samarali shakl, vosita va metodlarini qo'llanilishiga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etishini anglatadi.

Bu vazifani samarali amalga oshirishda ijtimoiy faol shaxs xususiyatlari va shartlari tarkib toptiriladigan shakl, vosita, usul va metodlarni izlab topish, o'z yechim yo'llarini ko'rsatish, tushuntirish, nazariji jihatdan ham, amaliy tomondan ham juda muhim masaladir. Bunda avvalo boshqaruvi nimaligi, o'quvchi yoshlarni o'z-ozini boshqaruvi masalasini ko'rib chiqish kerak bo'ladi.

Boshqarish bu - ma'lum jarayonni yoki ish faoliyatini tartibga solish va yo'naltirish jarayoni; Boshqaruvda tarbiyaviy ishlardan tizimida o'quvchi va o'quvchilar jamoasini o'rganish masalasi muhim ahamiyatga ega. Zero, tarbiyachi – o'qituvchi o'z qo'l ostidagi har bir o'quvchiga xos bo'lgan xususiyatlarni, ruhiy holatlarni hamda guruhdagi o'quvchilar jamoasing umumiyligi holati, shakllanganlik, tarbiyalanganlik darajalarini yaxshi bilmash ekan, tarbiya jarayonida qiyinchiliklarga duch keladi.

O'quvchilarning o'z-o'zini idora qilish organlari faoliyatida qatnashuvi ularning ijtimoiy faoliyit sifatlarini shakllantirishning ta'sirchan vositasidir. Bu bolalar va o'smirlarning demokratiya borasidagi tushunchalarini kengaytiradi. O'z-o'zini idora qilish — tashabbuskorlik va mustaqillik maktabitidir. O'quvchilarning o'z-o'zini boshqaruvi o'qituvchilar tomonidan fan va mashg'ulotlarning to'liq o'zlashtirilishiga, biror kasb o'rganishiga, Vatanga sadoqat ruhidagi tarbiyalanishi, Vatan himoyachisi bo'lishiga, maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarda, davlat, jamoat mulkini ko'z qorachig'iday asrashga, tabiatni muhofaza etishga



ko'maklashadi. O'z-o'zini boshqarish o'quvchilarni mustaqil hayotga, turmush va jamiyatga mos qilib tarbiyalash, ta'lim muassasasida ma'naviy muhitni saqlash, qo'shimcha ta'lim olish uchun o'quvchilar talabnomasini shakllantirishda ko'maklashadi. O'quvchilarning o'z-o'zini boshqaruvi a'zolari maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida o'tkazilayotgan barcha tadbirlarda, tanlovlarda, xonalarni jihozlashda faol ishtirok etadilar. Mazkur boshqaruv tashkilotchilik ishi ko'nikmalarini tarbiyalaydi, umumiyligi g'oyalari bilan ahil, jipslashgan o'quvchilar jamoasini tuzadi. O'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish tizimi maktab o'quvchilari jamoasi tomonidan o'zining faoliyatida demokratik faoliyat tarzlarini chuqur o'zlashtirish uchun qulay sharoitlar yaratadi. Bu to'g'ri taqsimlash, ijro ustidan hisobot va nazoratni yo'lga qo'yish, harakatlar, tashabbuskorlikning uyg'unligini ta'minlash, musobaqalar uyushtirish, o'z zimmasiga mas'uliyat olish kabi ko'nikmalardan iborat.

Buyuk alloma Farobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" nomli mashhur didaktik asarida qaysiki mam-lakatning rahbari sog'lom fikrli, odil va o'z navbatida qat'iyatlari bo'lsa, o'sha yurtda (shahar nazarda tutiladi) odamlar ham fozil bo'lishligini alohida ta'kidlaydi.

Shuningdek Amir Temurning "Temur tuzuklari" kitobida rahbarlik haqida qimmatli maslahatlar berilgan.

O'quvchi yoshlarda liderlikni rivojlantirishda birinchi galda o'quvchilar jamoasining qanday shakllanishi o'rganish lozim. Bundan, shunday xulosaga kelish mumkinki, maktab ostonasiga ilk bor qadam qo'yan o'quvchilar guruheni hali to'laqonli holdagi o'quvchilar jamoasi deb bo'lmaydi. Tadqiqotchi L.I.Navikova uzoq muddat davomida olib borgan ilmiy — tadqiqot ishlarning natijasiga asoslangan holda o'quvchilar jamoasining shakllanish va rivojlanish darajasini shartli ravishda to'rt bosqich bo'ladi.

Birinchi bosqich — hali jamoa tusini olmagan bo'lib, ta'lim muassasasida aniq va belgilangan kun tartibiga amal qilinishi, pedagogik ta'sirlarning natijasida asta — sekinlik bilan uyushib boradi va keyinchalik jamoa shaklini oladi. Buning boisi shundaki, maktabga yangi kelgan o'quvchilar bir — birlarini yaxshi bilishmaydilar qolaversa, ular turli oilaning farzandlari hamda turlicha xususiyatga egadirler.

#### Ikkinci bosqichda

– ta'lim muassasasining talablari ortib borishi, pedagogik ta'sirlarning uzlusiz va izchil holda amalga oshirilishi, o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarishga o'rganib borishlari, muhim o'quvchilarning bir — birlarini yaqindan bilishlari, ta'lim — tarbiyaviy faoliyatlarni birgalikda bajarishlari tufayli jamoa rivojlanib boradi.

### Uchinchi bosqich

– bu davrga kelganda o'quvchilar o'rtasida uyushqoqlik takomillashadi, ular o'rtasida do'stlik – o'rtoqlik tarkib topadi, faoliyatlarni bajarishda bir – birlariga yaqindan yordamlashadilar, o'z – o'zini boshqarish jarayoni rivojlanadi.

### To'rtinchi bosqich

– haqiqiy o'quvchilar jamoasi shakllanadi, bir kishi hamma uchun hamma bir kishi uchun qabiliya bir yoqadan bosh chiqarib kurashadilar.

Ayni paytda bu muammo doirasida pedagogik, falsafiy, psixologik va turli nuqtai nazarlardan har xil yo'nalish va mavzularda ilmiy tadqiqotlar olib borGAN Zamondosh olimlarimizning ilmiy izlanishlari ham mazkur tadqiqotning dunyoga kelishiga turki bo'lib, unda qo'yilgan muammolarni hal qilishda o'ziga xos ko'mak berdi. Jumladan, R.A.Ikramov, R.B. Hojiquolvarnings „Yoshlarda liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari“ maqolasida yoshlarni liderlik qobiliyatini yo'nalishlari va muammo-larini yoritib bergan.

Xususan, F.R.Rajabova „Yoshlarning liderlik qobiliyatini namoyon qilishda to'sqinlik omillarning psixologik ta'siri“ maqolasida yoshlarda liderlikni rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillarni ko'rsatgan.

M.A. A'zamova esa „Yangi renessans davrida liderlik qobiliyatini rivojlanirish orqali yoshlarning faoliyini oshirish“ nomli maqolasida yoshlarda liderlikni oshirish xususiyatlarini yoritib bergan.

Sh.M.Rizayeva va N.Q.Rizayevalar esa „Liderlik haqida tushuncha, turlari, va liderlik qobiliyatini shakllantirish“ maqolasida liderlik qobiliyatini shakllantirish yo'llarini oshib bergan.

Yaqinda YuNISEF, Yoshlar ittifoqi hamda "Yuksalish" umummilliy harakati "O'zbekiston yoshlari: muammo va istiqbollar" ("[Molodej Uzbekistana: vizovi i perspektivi](#)") deb nomlangan yirik tadqiqot natijalarini e'lon qildi. Unda respublikaning barcha hududlarida istiqomat qiluvchi 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan 4 ming 500 nafarga yaqin respondent ishtirok etdi. Qolaversa, bevosita mulqot qilish uchun 24ta fokus-guruhi shakllantirilgan. Tadqiqot uch yil mobaynida zamonaviy metodologiyalar asosida olib borildi. Loyihaga yetakchi mahalliy va xorijiy ekspertlarning jalb etilgani ham alohida e'tiborga molikdir.

Sotsiologik so'rov natijalari asosida tayyorlangan hisobotda aytishicha, 15-20 yildan so'ng O'zbekiston noyob demografik dividendni qo'lga kiritadi. 2048 yilga borib mamlakatda mehnatga layoqatli aholi soni tarixiylik darajasiga yetishi kutilmoqda. Ta-biiyki, ularning salmoqli qismini yoshlar tashkil qiladi.



Hozir davlat oldidagi asosiy vazifa demografik dividendni qo'ldan boy bermaslik hamda undan maksimal ravishda foydalanishdan iborat. Boshqacha aytganda, hukumat inson kapitaliga, ya'ni yoshlarning sifatli ta'lim olishi intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishiga katta hajmda investitsiya kiritishi zarur. Bu kelajakda nafaqat iqtisodiyotni yuksaltirish, balki ijtimoiy vaziyatni barqarorlashtirish — kambag'allik va salohiyatli kadrlar migratsiyasini qisqartirish, ingsizlikni bartaraf etish, xalqning turmush darajasini oshirish imkonini beradi. Bunda yoshlarning bilim darajasi va liderlik qobiliyatini ham rivojlanirsak kelajakda yaxshi natija beradi.

Yoshlarni bilimli va salohiyatli, liderlik qobiliyatli zamon talablariga javob beradigan yoshlar qilib tarbiyalashda infrastruktura, ya'ni ularga zarur shart sharoitlar yaratish kerak bo'ladi. Aksariyat yoshlar mavjud infratuzilma (ta'limdag'i muhit, moddiy-texnik ta'minot, darslik va boshqalar)ni ijobiy baholagan. Ularning **94,7 foizi** pedagoglar faoliyati, **91,1 foizi** o'quv muassasalarining holatini qoniqarli, deb hisoblaysdi. Ammo raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasida vaziyat ko'ngildagidek emas. Jumladan, qishloq yoshlarining **30,4 foizi** mакtabida internet yo'qligini aytgan. Shaharda bu ko'rsatkich **22 foiz** atrofida.

O'quvchi va yoshlarning boshqaruvchanlik metodini shakllantirishdan avval ularning qanday xarakter ega ekanligini aniqlash lozim. Buning uchun ulardan psixologik testlar olinadi. Psixologik testlar natijalariga qarab ularning xarakter xususiyatlarini bilib olish va shu asosida ularda boshqaruvchanlik qobiliyatini rivojlanish mumkin. Bunda avvalo so'rovnomada metodidan foydalaniladi.

Bunda o'quvchi va yoshlarning ota-onalari bilan birligida bolaning nimaga, qaysi sohaga qiziqishi va uning qobiliyati, talentlarini aniqlab olish kerak bo'ladi. Bunda quyidagi so'rovnomada metodidan foydalanish mumkin.

### Siz farzandingizni bilasizmi? So'rovnomasi

Tartib raqami	Savollar raqami	So'rovnama savollari
1	1	Farzandingizni kelajakda kim bo'lishini xohlaysiz?
Sizning javobingiz		
2	2	Farzandingizni qanday kasb egasi bo'lishini istardingiz
Sizning javobingiz		
3	3	Farzandingizda qanday qobiliyatlar borligini bilasizmi?
Sizning javobingiz		
4	4	Farzandingizni siz tanlagan kasb egasi bo'lishini xohlaysizmi?
Sizning javobingiz		
5	5	Farzandingizni nimalarga qiziqishini bilasizmi?
Sizning javobingiz		
6	6	Unda qanday qobiliyat(talant) borligini bilasizmi?
Sizning javobingiz		
7	7	Farzandingiz bilan qaysi kasbga qiziqishi bo'yicha oxirgi marta qachon gaplashgansiz?
Sizning javobingiz		
8	8	Farzandingizga o'zi qiziqqan sohasa bilan shug'ullanishi uchun qanday sharoit yaratib bergansiz?
Sizning javobingiz		
9	9	Farzandingizda qaysi kasb egasi bo'lishini hozirdan ko'ra olasizmi?
Sizning javobingiz		
10	10	Farzandingizni kelajakda boshliq, rahbar chiqishiga ishonasizmi?
Sizning javobingiz		

Ota-onalarning 9-10-11 sinf ota-onalarining 70% farzandi haqidagi yuqoridagi so'rovnomani to'ldirishga qiynganligini, farzandlari bilan yaqindan gaplashishga vaqt bo'lmayotganini aytishdi.

Shuningdek, o'quvchilarni hafta davomida sinf sardorlarini saylash va almashtirib turish orqali ularda liderlik qobiliyatini yanada rivojlantirish kerak. Bunda sinf o'quvchilar o'tasida ovoz berish yo'li orqali kim sinfda sardor bo'lishi uchun ovoz berishadi. O'quvchilar munosib nomzodlarni o'zlari tanlashadi. O'qituvchi faqat nomzodga qo'yilgan talablarni, nomzodlikka kimlarni qo'yish mumkinligi haqida o'z fikrini bildirib o'tadi. Lekin oxirgi xulosani o'quvchilarning o'zlari chiqarsa ularda mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Tadqiqot o'tkazilgan 9-10-11 sinf o'quvchilaridan bu metod 9- sinf o'quvchilarida yaxshi natija berdi. 10-11 sinf

o'quvchilarining ko'pchiligi sinf sardorligini ortiqcha ish ekanligini aytib o'tishdi.

O'quvchilar o'tasida "Muammoli vaziyat" metodi orqali muammoli vaziyat hosil qilinib o'quvchilar bu muammoni qanday yechish yo'llarini aytib o'z shaxsiy fikrlarini, qarashlarini, o'zini qanday tutish kerakligini namoyon etish orqali ham ko'rsatib o'tish mumkin. Massalan bankrot yoqasiga kelib qolgan korhonani qanday qilib rivojlantirish kerakligi haqida o'quvchilar o'z fikrlarini aytib o'tishadi. Bunda ularga xuddi koxona rahbari sifatida fikrlashiga undalsa bu yaxshi natija beradi.

O'quvchilarda o'z "Men"ni tanish va uni rivojlantirish orqali ularda boshqaruvchanlik, liderlik qibiliyatini rivojlantirish mumkin. O'quvchi o'zini shaxs sifatida bilishi va o'zi nimalarga qodirligini anglashi lozim. Bunda "Men kimman" so'rovnomasi metodi orqali o'ziga baho berishi, o'zining kamchilik va yutuqlarini bilishi va o'ziga bo'lgan ishonchini yanada oshirishda katta yordam beradi.

### "Men kimman" so'rovnomasi.

Tartib raqami	Savollar Raqami	So'rovnama savollari
1	1	Siz o'zingizni kim deb bilasiz?
Sizning javobingiz		
2	2	Sizning qahramoningiz kim?
Sizning javobingiz		
3	3	Otangizga yohud onangizga o'xshashni xohlaysizmi? Qay biriga ko'proq o'xshashni istardingiz va nima uchun?
Sizning javobingiz		
4	4	Armoningiz nima. Uni ro'yobga chiqarish mumkin deb o'ylaysizmi?

Sizning javobingiz		
5	5	Orzuyingiz nima? Uni amalga oshirish uchun harakatni boshlaganmisiz?
Sizning javobingiz		
6	6	O'zingizdan ko'nglingiz to'ladimi? Nima sizni rivojlanishingizga xalaqit beradi?
Sizning javobingiz		
7	7	Siz o'zingizni nimalarga qodirligingizni bilasizmi?
Sizning javobingiz		
8	8	Sizga rahbar bo'lism yoqadimi? Nimaga?
Sizning javobingiz		
9	9	Siz haqingizda qanday fikrda bo'lishlarini istardingiz.
Sizning javobingiz		
10	10	Sizning qanday rejalaringiz bor?
Sizning javobingiz		

9-10-11 sinf o'quvchilari o'rtaida o'tkazilgan va bu so'rovnomada qatnashgan o'quvchi yoshlarning 40%i so'rovnomada savollariga javob berishda qiyngaganini va bu haqida hali o'ylab ko'rmaganligini ta'kidlashdilar.

O'quvchilar guruh-guruh bo'lib sahna ko'rinishi orqali "Men rahbar bo'lganimda" metodi orqali o'zlarini rahbar bo'lishi va rahbarlik qanday bo'lishi kerakligini ko'rsatish orqali liderlik salohiyatini namoyon etadi va

hayotga bog'lab ko'rsatadi? Bunda ular sahna asarini ssenariysini tuzadilar. Ssenariyda kimlar qanday qahramonlar rolini ijro etishini o'zaro taqsimlaydi va ham-jihatlikda sahna ko'rinishini namoyish etib beradilar.

"Mening qahramonim" so'rovnomada metodi orqali o'quvchilar o'zlarini havas qilgan qahramonlar haqida bir –birlari bilan fikr alamashishadi. O'zlarini sevgan qahramonlarning ijobiy tarafalarini taqdimot orqali namoyish etadilar.

### "Mening qahramonim" so'rovnomasi

Tartib raqami	Savollar raqami	So'rovnama savollari
1	1	Sizning homiyingiz nima?
Sizning javobingiz		
2	2	Siz kimni o'zingizni qahramoningiz deb bilasiz.
Sizning javobingiz		
3	3	Sizning qahramoningizni nima uchun qadrlaysiz?
Sizning javobingiz		
4	4	Qahramoningizni qaysi jihatlari sizga yoqadi?
Sizning javobingiz		
5	5	Sizning qahramoningiz bunday yutuqlarga qanday erishgan?
Sizning javobingiz		
6	6	Qahramoningizga o'xshash uchun nimalar qilish kerak deb o'ylaysiz?
Sizning javobingiz		
7	7	Sizni qahramoningiz sizni oldingizga kelsa Unga nima degan bo'lardingiz?
Sizning javobingiz		
8	8	Siz ham kelajakda shunday qahramon bo'lishni istarmidingiz.
Sizning javobingiz		
9	9	Sizni qaysi jihatingizni qadrlashlarini xohlardingiz?
Sizning javobingiz		
10	10	Siz qahramon bo'lishga o'zingizni loyiq deb bila olasizmi? Yoki nima xalaqit beradi?
Sizning javobingiz		

Yuqoridagi so'rovnomada savollariga javob ber-ganlarning 9-10-11 sinf o'quvchilaridan 27%i tik-tok va boshqa ijtimoiy tarmoqdagi yulduzlarni o'zlarini qahramoni deb bilishini aytib o'tishdi va ularga o'xshashlikni xohlashlarini ta'kidlashdilar.

"Deputatlik-faxrim" metodi orqali o'quvchilar o'zlarini agar deputat bo'lganlarida qanday yo'l tutishlari, deputatlik mas'uliyati va deputatlar qanday

muammolarni hal etish lozimligi xususida o'zaro fikr almashadilar.

"Referendum" metodi orqali o'quvchilarga biror bir yangilikni joriy qilishda o'quvchilar fikrini bilib olish va va eng ko'p ovoz olgan yangilikni joriy etishda yaxshi samara beradi va bunda bir ovozdan eng ko'p ovoz olgan yangilik tatbiq etiladi. Bunda ko'pchilik 9-10-11 sinf o'quvchilari 73 %i o'zlarini tanlagan kasb-

ga kerakli bo'lgan fanlarnigina o'qish, o'rganish kerak degan fikrga kelishdilar.

"Men sinf rahbari bo'lganimda" metodi orqali o'z sinf rahbarlarida o'quvchilar nimalarni kutayotgani, sinf rahbari nimalarni chetda qoldirib, e'tibor bermayotganini bilib olishi mumkin. Bunda ishtirot etgan 9-10-11 sinf o'quvchilarning atigi 13% kelajakda Sinf rahbari yoki o'qituvchi bo'lish istagini bildirgan. Ularning ko'pchiligi sinf rahbar yoki o'qituvchi yangi zamonaviy usullarda dars o'tadigan, o'quvchilar fikrini hisobga oladigan bo'lishi kerak deb hisoblaydilar.


Xuddi shunday "Men muktab direktori bo'lganimda" metodi orqali muktab direktoridan o'quvchilar nimalarni kutayotgani, direktor nimalarni chetda qoldirib,

e'tibor bermayotganini bilib olishi mumkin. Tadqiqotda qatnashgan 9-10-11 sinf o'quvchilarining 17 % muktab direktori bo'lish istagini borligini bildirishgan. Yana shuningdek ular muktab direktori o'quvchilar ta'lif olishi uchun yetarlicha shart sharoit yaratadigan inson bo'lishi kerakligini aytilib o'tishdilar.

Yuqorida metodlardan foydalaniib eng faol, eng yaxshi ishtirot etgan o'quvchilar va ularning ota-onalari tashakkurnoma, esdalik sovg'alari bilan taqdirlansa yaxshi natija beradi va o'quvchilar qiziqishini yanada orttiradi.

O'tkazilgan tadqiqot so'rovnomasida ishtirot etganlarning tahliliy natijalari quyidagi doiraviy diagrammada berilgan.

### **Tadqiqot so'rovnomasida ishtirot etgan 910-11 sinf o'quvchilari va muktabni bitirib ketgan yoshlarda liderlikka bo'lagan qiziqishlari jvoblar jamlanmasi %da**



## **Xulosa va takliflar**

Ta'kidlash joizki, mamlakatda ijtimoiy-siyosiy hayotda yoshlarning faolligini rag'batlantirishga qaratilgan qator aniq chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Yuqorida aytilib o'tilganlar O'zbekistonda yoshlarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagisi o'rnini kuchaytirish bo'yicha yo'nalish belgilanganini aytish imkonini beradi. Shu bo'yicha davlat va yoshlar tashkilotlaridan yoshlar tashabbuslarini to'liq qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berilmoqda. Bunga tayanib, O'zbekistonning rivojlchanishidagi yangi bosqichda yoshlar alohida o'rinni tutishini ta'kidlash mumkin.

Shuningdek o'quvchi va yoshlarni liderlik qobiliyatlarini so'rovnomalar orqali aniqlash, muammolarini belgilash va ularda liderlik qobiliyatini oshirish metodlari orqali yoshlarda liderlik qobiliyatini yanada

oshiriladi. Ularda erkin fikrlash, maqsad qo'ya olish, rejalar tuza olish, natija va yutuqlarga erish va pirovardida jamiyatga foyda keltiradi.

Yoshlar ijtimoiy faolligini rivojlantirish muammolari bo'yicha olib borilgan turli sohalardagi tadqiqotlar mazmunini o'rganish asosida quyidagicha xulosalarga keldik:

1. O'quvchi-yoshlar liderlik qobiliyatini o'rganishni mazmunini asoslash, uning metodikasini ishlab chiqish pedagogika va boshqaruvga oid fanlari va amaliyoti oldidagi muhim vazifa hisoblanadi.

2. O'quvchi-yoshlarda liderlik qobiliyatini so'rovnoma orqali o'rganish shaxs umumiy kamolotini hamda jamiyat ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyatiga ega ekanligi, bugungi kunga qadar yaxlit pedagogik jarayon sifatida tadqiq etilmaganligi ta'kidlanadi.

3. O'quvchi-yoshlarning liderlik qobiliyatini ularning ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtirotiga bog'liq bo'lib, shaxsning ijtimoiy borliqqa munosabatini belgilaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kirdyankina S.V. „O'qituvchilarning kasbiy o'sishi uchun motivatsiya“ konsepsiysi // Zamonaviy maktab boshqaruvi. - № 6. - 2010.
2. Kuxarev N. V. Kasbiy mahorat yo'lida. -M., 1990.
3. Lepeshova E. Maktab rahbarining motivatsion vostitalari // Maktab rahbari. - No 4. – 2009-yil.
4. Markova A.K. O'qituvchi ishining psixologiyasi. -M.: Ta'lim, 1993
5. Axmetjanov M.M., Olimov Sh.Sh. Umumiy pedagogika -T., 2018.
6. A'zamova M.A. Yangi renessans davrida liderlik qobiliyatini rivojlantirish orqali yoshlarning faolligini oshirish//Ta'lim va rivojlanish taxlili onlayn ilmiy jurnali. – T. 2022.
7. Semichenko V.A. Inson xulq -atvori va faoliyatining motivatsiyasi muammolari // - M.: Millennium, 2004.
8. O'qituvchilar uchun darslik. 5 -son, 2013-yil.
9. Potashnik M. M. Zamonaviy mакtabda o'qituvchilarning kasbiy o'sishini boshqarish. Uslubiy qo'llanma - Moskva: Pedagogik ta'lim markazi, 2009.
10. Maylonova R. A., Rahmonqulova N. X., Normurodova B. A., Matnazarova K. O. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" - Toshkent, 2014 yil.
11. Rajabova F.R. Yoshlarning liderlik qobiliyatini namoyon qilishda to'sqinlik omillarning psixologik ta'siri// Ta'lim va innovatsion tadqiqot jurnali. –T. 2022 y.
12. Abdurahmonov F.R., Abdurahmonova Z. E. Kasbiy psixologiya. -Toshkent, 2016 yil.
13. Ikramov R.A., Hojiquulov R. B. Yoshlarda liderlik qobiliuatlarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari // Pedagogika ta'lim klasteri: muammo va yechimlar. -Toshkent, 2022.
14. Sultonova L.B. Kasbiy psixologiya fanidan o'quv uslubiy majmua. -Toshkent, 2020-yil.
15. Sulaymanova G. Umumi psixologiya fanining maqsadi, vazifalar. A-2015 yil.
16. Maylonov R.A. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – Toshkent, 2014-yil.
17. Rizaeva Sh.M., Rizaeva N.Q. Liderlik haqida tushuncha, turlari, va liderlik qobiliyatini shakllantirish. FTAI-respublika konferensiya materiallari// -Toshkent, 2022.
18. Otajonova, Karimova V. Kasbiy psixologiya. -Toshkent, 2018-y.
19. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
13. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
20. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
21. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)

**Аннотация.** В статье изучение педагогических, социальных, психологических условий, влияющих на их способность к управлению, путем анкетирования среди студентов и молодежи, и выбор стиля для студентов и молодежи, соответствующего нашему национальному менталитету, методов повышения их управляемости, это упоминается о продуктивном использовании в рабочем процессе. Описаны анкеты, необходимые для определения лидерских способностей учащейся молодежи, и методы формирования лидерских способностей, представлены результаты проведенного в этой связи исследования.

**Ключевые слова:** метод, анкета, управление, лидер, лидерство, социальная активность, духовная активность, культура, кругозор, социальность.

**Annotation.** In the article, the study of pedagogical, social, psychological conditions that affect their ability to manage through questionnaires among students and young people, and the choice of a style for students and youth that matches our national mentality, methods of increasing their manageability, it is mentioned about the productive use in the work process. Questionnaires needed to determine the leadership ability of young students and methods of forming leadership ability are described. The results of the research conducted in this regard are presented.

**Keywords:** method, questionnaire, management, leader, leadership, social activity, spiritual activity, culture, broad outlook, sociality.

# JAHON PSIXOLOGIYASI FANIDA QONUNIY NIKOHDA BO'L MAGAN OILALARNI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TADQIQ ETILISHI

Nazokat KHUDAYKULOVA

Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ҳузуридаги Ёшлар муаммолари-ни ўрганиш ва истиқболи кадрларни тайёрлаш институтти таянч докторанти

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada qonuniy nikohda bo'l magan oilalarni ijtimoiy-psixologik tadqiq etilishi yoritilgan. Jahonda va O'zbekistonda olib borilgan tadqiqotlar taxlil qilingan. Maqolada ajralishlarning oldini olish bo'yicha psixologik tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** oila, psixologik, ajrim, nikoh, tavsiya.

## Kirish

Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lib, barqaror oila aholi turmush farovonligining oshishi, xususan, iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Oilaviy ajrimlar esa, aksincha, farzandlar tarbiyası, oila a'zolari hayoti sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, keskin ijtimoiy ziddiyatlar va xavf-xatarlarga sabab bo'ladi. Ajrashishlarning mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligiga tahdid solishini e'tiborga olgan holda, ko'plab olimlar ajrashish xavfini orttiruvchi omillarni tadqiq etishga kirishgan.

Oila transformatsiyasi jarayonidagi tarixiy tendensiyalarni kuzatar ekanmiz, jamiyat liberallashuv va sanoatlashuvining dastlabki bosqichlarida oilaviy ajrimlarning soni ortib borayotganiga guvoh bo'lamiz. Shu bilan birgalikda, ba'zi olimlar "taraqqiyot ma'lum nuqtaga yetgach, nikoh barqarorligi tiklana-di", degan g'oyani ilgari surishadi.

Ma'lumki, **oilaviy ajrim sabablari** har bir mamlakatning geografik joylashuvi, madaniyati, urf-oda-ti, dini, axloqi hamda aholining bilim va qashshoqlik darajasi, shuningdek, turli iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik, ichki va tashqi stress kabi omillar ta'sir qiladi.

So'nggi yarim asr davomida oila tuzilishin-

ing transformatsiyasi, oila barqarorligiga turli ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta'sirini tadqiq etishga qiziqish tobora ortib bormoqda. Ba'zi tadqiqotlar inflyatsiya va ishsizlik kabi makroiqtisodiy ko'sat-kichlarning ajrashishga ta'sirini o'rgangan bo'lsa, boshqalari ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish, ta'lif va boshqa ijtimoiy omillarning ta'sirini baholagan.

Turmush qurish va oilaviy ajrimlarning sabablari ni iqtisodiy nuqtai nazardan birinchi bo'lib G.Bekker 1973-yilda tadqiq qilgan. G.Bekker, oilali va yolg'iz insonlarning daromadidagi tafovut ta'lif darajasi hamda jamiyatdagi ijtimoiy maqomi kabi noiqtisodiy jihatlarga bog'liq ekanini ta'kidlab o'tgan. Keyinroq Bekker va uning tarafдорлари hayotdagi kutilmagan hodisalar daromadga ta'sir qilish orqali ajrashish xavfini oshirishini asoslab bergen. Ayollarning daromadi va ish bilan bandligining ajrashishga ta'sirini keng o'rgangan Xoffman va Dunkanlar erkak kishi daromadi yuqoriq bo'lgan oilalarda ajrimlarning kamligini, Oppeneymer tamonidan o'tkazilgan tadqiqotda esa ayollar mustaqilligi ortgan sari ajrashish xavfi ortishini aniqlagan. E'tiborga molik tadqiqotlarning yana biri Erondagi ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ajrashishga ta'siri o'rganilgan bo'lib, ushbu tad-

qiqotda Djini (GINI) indeksidan foydalangan holda, daromad taqsimoti sifatining yomonlashuvi natijasida ajrashishlar ko'payishi aniqlangan. Shuningdek, urbanizatsiya va uy xo'jaligi xarajatlari ortishi ajrashishlar sonining oshishiga, savodxonlik va jon



boshiga daromadning ortishi esa oilaviy ajrimlarning kamayishiga sabab bo'lishi ilmiy asoslab berilgan.

## Asosiy qism

K.Trent va S.Soutx kabi olimlar 1989-yilda alohida omillarning ajrashishlarga ta'sirini chuqur tahlil qilishdi, buning natijasida dunyo bo'yicha ajrashishlar darajasidagi tafovut sabablari o'rganildi. Ushbu tadqiqot jarayonida 66ta mamlakatdan tarkib topgan tanlanmadan foydalaniib, ayollarning mehnat bozorida ishtirok etishi, nikoh yoshi, diniy qarashlari, er-xotin o'rtaida ajrashish qarorida jinslar nisbatining ahamiyatlilik darajasi aniqlandi.

**Yosh, davr va kogorta.** 1980-yillarda olimlar oilaviy ajrimlarning vaqt (yosh davrlari) bilan bog'liq jihatlariga e'tibor qaratishgan. Deyarli barcha tadqiqotlarda oila qurishdagi yosh oilaviy ajrimlarga kuchli ta'sir qilishi, turli yosh davrlariga tegishli insonlarda ham nikohga nisbatan umumiyligida qarashlar shakllanishiga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, olimlar insonlarning ajrashish vaqtidagi yoshini ham tahlil qilish muhimligini ta'kidlashgan, bunday yondashuv katta yoshdagi insonlarning nikohi yoshlarnikiga nisbatan mustahkamroq bo'lishi bilan izohlanadi.

**Farzandlar.** Farzand ko'rish oila qurishda ko'zda tutilgan asosiy maqsadlardan biridir. Dastlab, olimlar oilada farzand borligi, ayniqsa, ularning kichik yoshda bo'lishi ajrashish ehtimolini kamaytiradi, degan fikrni ilgari surgan. Keyinroq aniqlanishicha,

ikkinci va undan keyingi farzandlar Italiya va Ispaniyada oilani mustahkambla, Daniyada ajrashish xavfini oshirgan. Demak, farzandlarning oila mustahkamligiga ta'siri jamiyatda shakllangan ma'naviy va madaniy qadriyatlarga qarab o'zgarishi mumkin.

**Bandlik va daromad.** Bu mavzudagi dastlabki tadqiqotlar nikohdagilarning biri daromad keltiruvchi ish bilan band bo'lib, ikkinchisi ro'zg'or bilan shug'ullanganida ajrashish xavfi minimal darajaga tushishini aniqlashgan. Ayollarning pul resurslari ko'payishi natijasida ajrashish xavfi ortishi "erkinlik samarasi" deb yuritiladi. Rafiqaning pul resurslari evaziga oilaning mustahkmlanishi esa "daromad samarasi" deyiladi. Ko'pchilik olimlar «daromad samarasi»dan «erkinlik samarasi» yuqori bo'lib, ijobiy taraflarining kamayishiga olib keladi, deb hisoblashgan. Biroq zamonaviy tendensiylar ko'p mamlakatlarda nikohdagilarning ikkalasi ham band bo'lishi oilaviy daromadni ko'paytirishi va nikoh barqarorligini oshirishini ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, erkak kishining maoshi yuqori bo'lishi ajrashish ehtimolini kamaytirishi, ayol kishining maoshi yuqori bo'lishi esa bu xavfni oshirishiga dalillar keltirilgan. Aslida, ayol kishining bandligi va daromad darajasi nikoh sifatini pasaytirmaydi, faqatgina nomunosib, muammoli nikohdan chiqib ketish yo'lidagi to'siqlarni kamaytiradi. Ushbu fikrni empirik tekshirish maqsadida olimlar tadqiqotlarida nikoh sifati yoki baxt o'chovlari tushunchalarini kiritishgan. Daromaddagi keskin ko'tarilish yoki kamayish, krizis davri kabi o'zgarishlar ham ajrashish xavfini orttiradi. Turmush o'rtoqlarning diniy qarashlari turlicha bo'lishi ham oila mustahkamligiga salbiy ta'sir qiladi.

**Migratsiya.** Nikoh barqarorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatayotgan jarayonlardan yana biri migratsiyadir. Oila notanish sharoitlarda qo'shimcha sinovlarga uchraydi va yot ta'sirlarga bardoshi kamayishi mumkin. Aniqlanishicha, daromad topish uchun ba'zan oila boshlig'i, ba'zan turmush o'rtoqning yangi ishga o'tishi nikohni xavf ostida qoldirar ekan. Shu o'rinda, tarixdan bir misol keltirib o'tsak: Umar ibn Xattob (r.a.) xalifalik davrlarida, kechasi birovga bildirmasdan, shaharni aylanib, odamlarning holi dan xabar olib yurar ekanlar. Kunlardan bir kuni bir hovlida ayol kishining hijron haqida bayt aytayotganini eshitib qoladilar. Surishtirsalar, u ayolning eri harbiy istehkomga ketgan ekan. Hazrati Umar odam yuborib, qizlari Hafsa onamizdan: "Ayol kishi ersiz qancha sabr qila oladi?", – deb so'ratibdilar. U kishi: "To'rt oy", – deb javob beribdilar. Shundan keyin hazrati Umar askarlikda hech kimni to'rt oydan ko'p ushlab turmaslikka farmon bergen ekanlar.

Hozirgi paytda ayrim kishilarning ishlab pul topish maqsadida, chet davlatlarda, oilasini tashlab, oylab, hattoki yillab yurishlari oilalarning buzilishiga sabab bo'lmoqda.

**Biologik va sog'liq bilan bog'liq omillar.** Salomatlik va nikohdan ajrashishga oid tadqiqotlarning aksariyati er-xotin va bolalar sog'lig'i uchun ajrashish qanday salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi masalalariga bag'ishlangan. Shu bilan birgalikda, salomatlikning o'zi ajrashishga sabab bo'lishi to'g'risida ham ilmiy ishlar mavjud. Masalan, bir qator olimlar spirtli ichimliklar va noqonuniy psixotrop dori vositaliga mukkasidan ketish, oilada psixik kasallikka chalingan yoki nogiron farzandning dunyoga kelishi oqibatida ajrashish xatarini oshirishini aniqlashgan. Masalan, Rossiyada alkogolizm ajrashishlar darajasining ortishiga, tug'ilish kamayishi va o'lim darajasi oshishiga sabab bo'lmoqda.

Chikago universiteti psixologi Jon Kakioppo: "Yolg'iz ekaningizni o'zingizga o'zingiz e'tirof etishin-giz manglayingizning o'rtafiga katta qilib "Yo" harfini yozib qo'yganga o'xshaydi", – der ekan, insonlarning bu tuyg'u bilan o'tayotgan kunlarining mashaqqatli ekaniga e'tibor qaratadi. Mutaxassisning fikricha, insonga atrofida qancha ko'p odam jamlanishining unchalik ahamiyati yo'q. Inson yolg'izlikni his etmasligi uchun nari borsa bir kishiga ehtiyoji bor. Shuni hisobga olib, Yevropadagi Angliya va Daniya mammakatlarda keksa yoshdag'i yolg'iz kishilar uchun turli xil profilaktika ishlari olib borilmoqda. "American Journal of Psychiatry" jurnalida e'lon qilingan maqolada turmush qurban odamlar ichkilikbozlikka

ot maktabi professori, psixiatr Kennet Kendler.

Tahlillar ko'rsatishicha, turmush qurish ichkilik-bozlikka ruju qo'yishni erkaklarda 59 foizga, ayollar-da esa 73 foizga kamaytiradi. Ayniqsa, vaqtida oila qurish naslida ichkilikbozlik bo'lgan odamlar uchun juda ham foydali. Masalan, er yoki xotinning to'ydan oldingi vaqtarda ichkilikka moyilligi bo'lgan bo'lsa, kelajakda ushbu ahmoqona odat ichkilikbozning ayolini ham girifor qiladi.

Demak, ichkilikboz bilan oila qurish yolg'iz yashashdan ham yomon ekan. Kennet Kendlerning ta'kidlashicha, hozirda olimlar ichkilikbozlikning ajralishga moyillik tug'dirishini o'rganmoqda. Ularning taxminicha, ajralish ichkilikbozlikka moyillikning oshishiga sabab bo'lar ekan.

Agar er-xotin munosabatlari muammoli nuqtaga kelib qolgan bo'lsa, uni faqat ularning o'zlarigina hal qilishi mumkin. Er va xotinning oilani asrab qolish niyatining o'zigina yetarli emas, bunda ular birgalikda harakat qilishi kerak bo'ladi. Munosabatlarni qayta tiklash uchun sabr-toqat, birdamlik bilan uzoq va samarali hayot sinovlariga tayyor bo'lishi muhim hisoblanadi. Oilaviy munosabatlarda sevgi saqlanib qolgan bo'lsa, u oilani asrab qolishi mumkin.

Avvalo er va xotin nega ajrashishni xohlayotganini tushunishi kerak bo'ladi. Buning uchun arziyidigan sabab yuzasidan chuqr mulohaza qilishi lozim. Garchi juftliklar bir-biriga mos bo'lsa ham, ularning munosabatlaridagi muammolar doim mavjud bo'ladi. Ajrashish tashabbuskori kim bo'lishidan qat'i nazar, er yoki xotining bittasi ajralishni xohlasa, ikkinchisi yolg'iz holatda hech narsa qila olmaydi. Munosabatlarni qayta tiklash uchun astoydil sa'y-harakat va xohish kerak xolos. O'z nikohini asrab qolishni xohlayotgan tomon vaziyatga ijobiy ta'sir qilishi mumkin. Psixologlar bunga quyidagicha maslahat beradi:

konstruktiv munosabatni boshlash kerak;

nima uchun turmush o'rtog'ingiz ajralishni xohlayotganini bilib olishingiz muhim;

munosabatlarni yaxshilash uchun o'zgarishga tayyor ekanligingiz haqida gapirish kerak.

Ayollar uchun oila juda katta ahamiyatga ega, shuning uchun ham ular, ko'pincha, ajralishdan saqlanish uchun murosa qilishga tayyor bo'ladi. Ayollar turmush o'rtog'ining qarorlariga ta'sir qilish imkoniyatiga ega, buning uchun quyidagi vazifalarni bajarishi kerak:

tashqi jozibadorlikka e'tibor berish.

so'ngan tuyg'ular olovini qayta yoqishga harakat qilish.

majburlash kerak emas, balki eriga mustaqil rav-



yolg'izlarga nisbatan kamroq berilishi yozilgan. Bi-roq tadqiqotlardan ayon bo'lishicha, mayxo'r kimsa bilan turmush qurish ichkilikbozning yanada ko'proq ichishiga yoki uning turmush o'rtog'ining ham ichkilikka o'rganishiga sabab bo'lar ekan.

"Biz ichkilikboz bilan turmush qurban kishiga uning qanchalik ta'siri bo'lishini o'rganishga harakat qildik", – deydi Virjiniya hamkorlik universiteti tibbiy-

ishda tahlil qilish va qaror qabul qilish imkoniyatini berish.

turmush o'rtog'ining qiziqishlarini uyg'otish, uni munosabatlarni qaytadan tiklashga undash.

shikoyat va tanqidlarni unutish.

Ayol o'zining qadr-qimmati va ahamiyatini his qilishi uchun turmush o'rtog'iga ko'proq e'tibor berishni boshlashi kerak.

Er-xotin munosabatlarda eng kuchli hissiy muhitni ayol kishi yarata oladi. Shuning uchun uning harakatlari natijasiz qolmaydi. Agar er va xotin yakuniy qarorni qabul qilgan bo'lsa, munosabatlarni qayta tiklashga ishontirish qiyin. Bunday holatda oilalar ajrashadi.

Agar ayol kishi ajralishni xohlasa-da, erkak oilani saqlab qolmoqchi bo'lsa, erkak xotinining qaroriga ta'sir ko'rsata oladi. Nikohdagi muammolarni bar-taraf etish ikki kishining vazifasidir. Erkak ajrashmaslik uchun nima qilish mumkin?

turmush o'rtog'iga qanday jihatlari yoqmasligini aniqlash.

ayoliga ko'proq e'tibor berish.

turmush o'rtog'iga uni sevishi va qadrlashini his qildirish.

ayoliga yetishmayotgan narsani berish.

Ajralish arafasida turgan oilani saqlab qolish uchun namuna sifatida birinchi qadamni tashlash kerak. Agar ayol eridagi ijobjiy o'zgarishlarni sezsa, u o'zining qarori haqida o'ylab ko'rishi mumkin.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oilaviy munosabatlarda inqirozlar quyidagi hollarda ko'proq uchraydi.

**Kundalik hayotning bir-xilligi.** O'zaro munosabatlarning boshida barcha narsa g'ayrioddii, ehtirosli va qizg'in his-tuyg'ularga boy bo'lib tuyuladi. Ular bir-biri bilan go'yoki birinchi marta tanishayotganga o'xshaydi. Ularga hech kim zarar yetkaza olmaydi, chunki ular haligacha bir-biri bilan muloqot qilishdan zavqlanadi. Keyinchalik tashvish va muammolar paydo bo'la boshlaydi. Bunga, asosan, bir xil hayot tarzi va ish tartibi sabab bo'ladi. Uzoq davom etadigan bir xillik inqirozning yuzaga kelishiga dastlabki sabab bo'ladi. Kimlar uchun bu vaziyat xursandchilik, kimlar uchun esa yoqimsiz. Agar oilada er-xotinining hayoti xilma-xil va kutilmagan kichik voqealardan iborat bo'limasa, ular bir-biridan zerkadi. Keyin esa do'stlar davrasi, uydan tashqari va boshqa muhitdan qiziqarli narsalarni qidirishni boshlaydi. Tushunmovchilik va xiyonatlar paydo bo'ladi. Bu hodisalardan, asosan, ayollar azob chekadi, chunki erkaklar o'z harakatlarini bir mucha erkin amalga oshiradi. Ayol kishining farzandlari oldidagi mas'uliyati bunga yo'l qo'ymaydi.

**Moddiy qiyinchiliklar.** Hamma oila ham moli-yaviy muammolarni hamjihatlik bilan yengishga tayyor bo'lmaydi. Agar ayol oilada pulni to'g'ri va maqsadli sarflashga o'rganmagan bo'lsa, qanday tejashni bilmasa, eri tomonidan isrof qilgan mablag' uchun tanbeh eshitadi. Ortiqcha xarajatlar oila iqtisodiga zarar yetkazadi. Bunday hollarda er-xotin bir-biridan qoniqish hosil qilmaydi, oilaviy inqiroz



boshlanadi. Bugungi kunda yosh oilalar tomonidan ipoteka krediti olishi oddiy holga aylandi. Bu oilaviy daromadning katta qismini olishi bilan birga, uzoq muddat to'lashga majbur qiladi. Ayol kishi har doim chiroyli ko'rinishga, yangi narsalar, zargarlik buyum-larini totib olishga o'ch bo'ladi. Pul esa kredit sabab yetishmaydi. Ta'na-dashnomlar boshlanadi, nizo va janjallar paydo bo'ladi. Ayol eridan ko'proq pul to-pishni talab qiladi.

**Hissiyotlar sovishi.** Oilaviy munosabatlarning rivojlanishida jinsiy munosabatlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Jinsiy aloqa tobora er-xotinlik burchiga aylanadi. Ayol kishi ko'pincha uy yumushlari va boshqa turli masalalar bilan band bo'lib, erining ehtiyojlariga e'tibor bera olmay qoladi. Ba'zida ayollar o'ziga qaramay qo'yadi. Erga bu holat yoqmaydi va "boshqa ayolni" qidirishga tushadi. Oilaviy munosabatlardagi inqirozlardan yana biri shundan boshlanadi.

Yuqoridagi inqirozlarning paydo bo'lishi va shu vaziyatlarga dosh berishga tayyor bo'lsangiz, demak, siz oilangizni saqlab qola olasiz. Buning uchun turmush o'rtog'ingiz bilan maqsadlaringiz bir ekanini anglab olishingiz kerak bo'ladi. Uning uchun:

**Turmush o'rtog'ingiz bilan suhbatalash-ing.** Juftingiz tomonidan qandaydir kamchilikka yo'l qo'yilgan bo'lsa, zudlik bilan baland ovozda gapirish kerak emas. Uning xatosini yolg'iz tahlil qilmang. Balki uning ham muammolari yetarli bo'lib, u ham ajralish fikri bilan yashayotgandir. O'z xohishlarining va muammolaringiz haqida to'g'ridan-to'g'ri aytинг, birgalikda yechim izlang. Oilaviy hayotdagagi ba'zi masalalarni oldindan kelishib olish muhim hisoblanadi.



Esda tuting!!! Agar siz biror ishni turmush o'rtog'in-giz bilan maslahatlashmasdan qilishga odatlansangiz, u ham xuddi shunday yo'l tutadi. Keyinchalik birgalikda yashash, hamfikr bo'lish fikridan voz kechadi. Bu esa nikoh munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

**Nizo chiqarish va tanbeh berishdan tiyiling.** Oilaviy inqirozlarga sabab bo'ladigan nizo va janjallarga er-xotinning ikkalasi ham aybdor bo'ladi. Hamma ham o'zini aybsiz, deb biladi. Er-xotin munosabatlarida ular bir xil javobgar bo'lishi kerak. Siz har doim hamma narsada "men haqman", deb hisoblamang. Nizo, janjal va kelishmovchiliklar har bir er-xotin o'tasida bo'ladigan hodisa. Muammoni hal qilishda janjal yoki zo'ravonlikka yo'l qo'ymaslik kerak. Chunki u oilaviy muammolarni hal qilmaydi, balki og'irlashtirib, aloqlarning darz ketishiga sabab bo'ladi. Tinch yo'l bilan hal qilishni o'rganing.

**Mas'uliyatlarni taqsimlay oling.** Nikohingizning ilk kundanoq mas'uliyatlarni o'zaro taqsimlab oling. Agar turmush o'rtog'ingizga yordam bermoqchi bo'lsangiz, hamma narsani bir-biringiz uchun emas, birgalikda qiling. Biror xatoga yo'l qo'yilsa, uni boshqa takrorlamaslikni so'rang. "Men pul topaman, sen farzandlar tarbiyasi, ularning dars mashg'ulotlari bilan shug'ullanasan", degan mantiqsiz qonun yaratib olmang. Farzandning taqdiri umumiylashtirish so'boblanaadi, shuning uchun ularning tarbiyasiga ham ota, ham ona bir xil darajada javobgardir.

**Oilaviy muammolaringizni qarindoshlar va do'stlar bilan muhokama qilmang.** Er-xotin – bitta jon. Oilangiz – sizniki, boshqa birovning oilasi emas. Oilaviy muammolaringizni jamiyat muammoasi sifa-

tida hammaga e'lon qilmang. Nikohning dastlabki yillarda xotinlar erining xatolaridan ota-onasiga shikoyat qilishni yoqtirishadi, go'yoki ularning nazdida qizi azoblanayotgandek tuyuladi va ularning oilasiga aralashish boshlanadi. Bu esa vaziyat yomonlashishiga olib keladi. Vaholanki, kim bilan va qanday hayot kechirishni o'zingiz tanladingiz. Shuning uchun ham o'z oilaviy da'volaringizni bir-biringizga bildiring, boshqalarga emas.

**Turmush o'rtog'ingiz faoliyatiga qiziqish bildiring.** Ba'zida kundalik muammolar bilan band bo'lib qolganingizda, turmush o'rtog'ingizning mehnat faoliyati, ishlari va hokazolarni so'rashni unutib qo'yasiz. Bu ham oilaviy munosabatlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bugungi kunda oilaviy mashg'ulotlar mavjud emas. Er-xotin bir birining qiziqishlarini hurmat qilishi kerak. Agar oilada umumiy qiziqishlar bo'lsa, bu oilaning mustahkamligiga juda katta ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Uning yutuqlari, hamkasblarining fikri haqida so'rab turishni odat qiling. Bu ta'sirli bo'ladi. Oila baxtli bo'ladi.

**Oilaviy muhitni o'zgartiring.** Agar munosabatlarining tushunmovchiliklar, kelishmovchiliklar yuzaga kelishni boshlagan bo'lsa, inqirozga tushib qolganingizni his qilsangiz, muhitni darhol ijobjiy tomonga o'zgartiring. Mehnat ta'tili oling va turmush o'rtog'ingiz bilan birgalikda o'tkazing. Qisqa mudatli tanaffuslarda ham bu ishlarni qilsa bo'ladi. Siz o'sha vaqtida dam olish va bir-biringizdan zavqlanish imkoniga ega bo'lasiz. Muammo va tashvishlar chekinadi. Muammoga sabab bo'lgan voqealari asosiy narsa emasligini tushunib yetasiz. U yerda siz turmush o'rtog'ingiz bilan baxtli bo'lgan

paytlarni eslashingiz mumkin. Muhitning o'zgarishi munosabatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va ularni qayta o'z holiga qaytarish mumkin.

**O'zingizga vaqt ajrating.** Oilaviy hayotda va oilaviy muammolarni hal qilishda siz ko'pincha o'zingizga e'tibor bermaysiz. Tashqi ko'rinishingizni o'zgartiring va unga doim e'tibor qarating. Har doim yangi narsalarni qidiring. Shunda turmush o'tog'in-giz sizdan hech qachon zerikmaydi.

**Iliq xotiralar bilan o'rtoqlashish.** O't mishda baxtli, xursandchilik kunlar aks etgan fotolavhalarni birgalikda eslang. Biror joyga borsangiz, esda qoladigan lavha olishni unutmang. O'sha lahzalar ni suhbat mavzusiga aylantiring. O'zingizni yaxshi his qilgan, kulgili vaziyatlarni birgalikda eslang. Siz baxtli bo'lishga haqli ekaningizni his qila boshlaysiz. Er va xotin o'rtaсидagi baxtli kunlarni eslaydigan lavhalar mavjud bo'lmasa, qarindosh-urug' yoki bolalikda do'stlar davrasi bilan bog'liq xotiralarni o'rtoqlashing.

**Minnatdorchilik.** Ko'pincha insonlar ma'lum vaqt davomida birga yashab, o'z turmush o'tog'i bo'lgani uchun minnatdorchilik bildirish va his qildirish qanchalik muhim ekanligini unutishadi. Uni tush-unish va qadrlashni o'rganish kerak. Ayollar ko'proq oilaviy qiyingchiliklar, ayniqsa, moddiy qiyingchiliklar erlaridan norozi bo'ladi. O'sha vaqtida turmush o'tog'iga shunday holatda ham minnatdorchilik bildirish, uning hayoti yengillashishiga sabab bo'ladi. Kichik narsalarni ham e'tibordan chetda qoldirmang.

## Xulosa

Nikoh va oila har bir inson hayotidagi qadriyatdir. "Oilani saqlab qolish kerakmi yoki yo'qmi?", degan savolga doim "ha", degan javob bo'lishi kerak. Ajrashib ketgandan so'ng, turmush o'tog'ingizni qanday qaytarish haqida o'ylagandan ko'ra inqiroz va ajralishning oldini olish yaxshiroq, nazarimizda. Agar oilangizda bir narsa noto'g'ri bo'lsa, bunga ikkalangiz javobgarsiz. Oilada kimdir ustunroq bo'lishi shart. Siz hammasini qayta boshlashga va baxtli yashashga haqlisiz.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Вишневский А.Г. Избранные демографические труды. – Т.1. – Москва: Наука, 2005. –120 с.
2. Тышкевич В.П Основные направления исследований семейного домохозяйства современной социальной рыночной экономике на примере Германии. – Москва: МАКС-Пресс, 2009. – С. 211-212.
3. Волков А.Г. Семья – объект демографии. – Москва: Мысль, – 106 с.
4. Roussel L. La Famille incertaine. Editions Odibe Jacob, 1989, pp.1-8
5. Эволюция семьи в Европе: восток-запад. – Москва: НИСП, – С. 188.
6. Эволюция семьи в Европе: восток-запад. – Москва: НИСП, – С. 231.
7. Тышкевич В.П. Основные направления исследований семейного домохозяйства в современной социальной рыночной экономике на примере Германии. – Москва: МАКС Пресс, 2009. – С. 44.
8. Becker, G. S. (1973). A Theory of Marriage: Part I. Journal of Political Economy, University of Chicago Press, vol. 81(4), pp. 813-46.
9. Becker, G. S., Landers, E. M., & Michael, R. T. (1977). «An Economic Analysis of Martial Instability» Journal of Political Economy, 85(6), 1141-1187.
10. Hoffman, S. & Duncan, G. (1997). The Effect of Incomes, Wages and Benefits on Marital Disruption. Journal of Human Resources 30, p.194.

**Аннотация.** В данной статье освещаются социально-психологические исследования семей, не состоящих в законном браке. Проанализированы исследования, проведенные в мире и в Узбекистане. В статье даны психологические рекомендации по предотвращению разводов.

**Ключевые слова:** семья, психологический, развод, брак, рекомендация.

**Annotation.** This article discusses the socio-psychological research of families that are not legally married. Research conducted in the world and in Uzbekistan was analyzed. The article provides psychological recommendations for preventing divorces.

**Keywords:** family, psychological, divorce, marriage, recommendation.

# MOSLASHUV JARAYONLARI NAZARIY KO'RIB CHIQISH OBYEKTI SIFATIDA

**Xurshida BUTAYEVA**

*O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yetim bolalar va ota-onalarning qaramog'isiz qolgan bolalarni jamiyatga moslashuv jarayonlari dolzarbliji asoslanib, yetim bolalar va ota-onalarning qaramog'isiz qolgan bolalarni jamiyatga moslashuv jarayonlari nazariy ko'rib chiqish obyekti sifatida o'rganildi, bunda bir qancha olimlarning tadqiqot va ilmiy ishlariga e'tibor qaratildi. Moslashuv sharoitlari haqida ilmiy fikrlar bildirilib maqola so'ngida xulosa va takliflar berildi.

**Kalit so'zlar:** yetim bolalar, ijtimoiy yetimlik, moslashish, ota-onalarning qaramog'isiz qolgan bola, oila, bola huquqi.

## Kirish

Mavzuning bugungi kundagi dolzarbliji ko'plab yetim bolalar va ota-onalarning qaramog'isiz qolgan bolalarning paydo bo'lishiga olib keladigan zamonaviy ijtimoiy jarayonlar bilan belgilanadi. Jamiyatni beqarorlashtiradigan ushbu hodisaning bir qancha sabablari bor. Boshqa tomonidan, axloqiy qadriyatlar va munosabatlarning keskin o'zgarishi bolalarga nisbatan «rad etish» to'lqinini keltirib chiqardi.

Yetim bolalar va ota-onalarning qaramog'isiz qolgan bolalar muammosi ko'p jihatlarga ega va ilmiy adabiyotlarda yetarlichcha batafsil yoritilgan. Shunga qaramay, biz ko'rib chiqilayotgan mavzuning ba'zi jihatlari tadqiqot tomonidan yetarli darajada qamrab olinmaganligini ko'ramiz. Masalan, yetim bolalarni ijtimoiy himoya qilishning asosiy muammolaridan biri bu ularni mustaqil hayotga tayyorlashdir.

Bolalarga e'tiborsizlikning qo'shimcha omillari, disfunktional oiladan tashqari, bolalarning ta'lim, sog'lomlashtirish, kasb va uy-joy olish sohasidagi huquqlarining buzilishi, shuningdek, ishsizlikning ko'payishi, oilalarning moliyaviy ahvolini yanada yomonlashtiradi va ota-onalarda bolalarni ushlab turishning iloji yo'qligi sababli ularni rad etishga undaydi.

## Asosiy qism

Hozirgi vaqtida jamiyat va davlat yetim bolalar muammosiga tobora ko'proq e'tibor qaratayotganiga qaramay, yetim bolalarning hayoti va kasbiy o'zini o'zi belgilashini shakllantirish va rivojlantirish nuqtai nazardan uning psixologik va pedagogik yechimi hali ham mukammallikdan uzoqdir. Ehtimol, ma'lum darajada bu muammoni oilaviy bolalar uylari, homiylik ostidagi oilalar yordamida hal qilish mumkin, ular bilan ishslash mamlakatimizda tobora kengayib bormoqda. Biroq, haqiqat shundaki, an'anaviy bolalar uylari va maktab-internatlar yetim va ota-onalarning qaramog'isiz qolgan bolalarni o'qitish va tarbiyalashning eng keng tarqalgan shakli bo'lib qolmoqda. O'quvchilar tomonidan kasbni, hayot yo'lini ongli ravishda mustaqil tanlashni, ularning ijtimoiy va kasbiy harakatchanligini shakllantirishni ta'minlaydigan kasbiy yo'nalish bo'yicha ishlarini takomillashtirish imkoniyatlari hali tugamagan.

Xorijiy va mahalliy sotsiologiya klassiklari: M. Veber, E. Dyurkgeym, K. Lorens, G. Yaspers, V. Tomas, F. Znanetskiy, J. T. Toshchenko, V. A. Yadov va boshqalarning asarlari insonning hayotiy inqirozi va jamiyat rivojlanishi muammolarini o'rganish uchun uslubiy ahamiyatga ega.

Yuqoridagi olimlardan tashqari Rossiya oimlari bolalar uyida tarbiyalangan bolalar psixologiyasining o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi.

L. N. Zaxarova o'zining «bola mehr-muhabbat uchun navbatda» asarida bolalar uyi o'qituvchi-si-tarbiyachisi sifatida o'z tajribasidan foydalangan holda yetimlik muammolarini ijtimoiy, pedagogik, huquqiy, tibbiy tomonlardan ochib beradi. Yetim bolalarning shaxsiyatining rivojlanish xususiyatlari L. I. Bozovich, I. V. Dubrovina, B. C. Muxinaning tadqiqotlarida ochib berilgan. M. V. Shakurova yetim bolalar bilan ishlashning mazmuni va tizimini aniqlash muammosiga alohida e'tibor beradi. Ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishning nazariy asoslari M. A. Galaguzova va A. B. Mardaxayevning asarlarida keltirilgan.

Ijtimoiy pedagogika tadqiqotchilari A. I. Arnoldov, V. G. Bocharova, S. A. Belicheva, B. Z. Vulfov, A. B. Mudrik va boshqalar shaxsning shakllanishiga turli omillarning ta'sirini ochib berishadi. Oilaviy tarbiya muammolariga o'qituvchi Y.P.Azarov katta e'tibor beradi. Uning «oilaviy pedagogika» pedagogik tadqiqotlarida bolani qanday qilib to'g'ri tarbiyalash kerakligi, ota-onalarning bolalarni tarbiyalashdagi o'rni, oila bolaga nima berishi haqidagi savollariga javob topishingiz mumkin. Muallif ota-onsa qaramog'isiz qolgan bolalarni tarbiyalash, tarbiyalash qiyin bo'lgan bolalarni tarbiyalash muammolariga murojaat qiladi.

Ushbu muammoni o'rganish, shuningdek, mahalliy va xorijiy mualliflarning ilmiy ishlari, me'yoriy hujjatlar, qarovsiz bolalar va o'spirinlar muammolariga bag'ishlangan konferensiylar va simpoziumlar materiallarini tahlil qilishni o'z ichiga olgan.

Yetim bolalar-bu o'zlarining oilaviy muhitidan mahrum bo'lgan bolalar yoki o'z manfaatlari yo'lida bunday muhitda qola olmaydigan bolalar. Bu birinchi navbatda ijtimoiy himoya, psixologik, pedagogik va tibbiy yordamga muhtoj bo'lgan bolalar toifasi, chunki ularning umumiyo yoshdag'i muammolari oila va do'stlar tomonidan qo'llab-quvvatlanmaslik bilan birlashtirilgan. Yetarli hayotiy tajribaga, axloqiy e'tiqodga ega bo'lmagan holda, haqiqiy hayotiy qadriyatlarni xayoliy qadriyatlardan ajrata olmagan holda, ular o'zlarining onglari va xatti-harakatlarida salbiy tendensiyalarni (tajovuzkorlik, murosasizlik, shafqatsizlik) o'rnatalalar.

Ijtimoiy yetimlar-bu ijtimoiy-iqtisodiy sabablarga ko'ra ota-onsa qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning maxsus ijtimoiy-demografik guruhi, ya'niti ota-onalari bo'lgan yetim bolalar.

O'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash oilaviy bolalar uyining muhim vazifalaridan biridir. Ijtimoiy-pedagogik faoliyatning asosiy yo'nalishi "bolalarni oilaviy urf-odatlar asosida tarbiyalash" bo'lib,

bu bolalarning ijtimoiylashuvi va moslashuviga yordam beradi. Oilaviy tipdag'i bolalar uyi sharoitida bolalar turli muassasalarga bo'linish natijasida yuzaga keladigan chuqur psixologik travmadan ozod qilinadi. Oilaviy bolalar uyida bolalar "sun'iy ravishda" yaratilgan oilalarda yashaydilar va bola birodar va opa-singilning yonida qolish imkoniyatiga ega, bu esa qisman saqlanib qolgan oila muhitini yaratadi.

Tadqiqotlar shuni ko'satdiki, oilaviy urf-odatlar oilaviy rishtalarni mustahkamlashda, qarindoshlar, katta va kichik avlod o'rtasida o'zaro tushunishni rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. An'analar orqali umuman insoniyatning ijtimoiy tajribasi va xususan oiladagi hayot bilan tanishish mavjud.

Shunday qilib, oilaviy tipdag'i bolalar uyida oilaviy an'analarni o'rganish bo'yicha olingen natijalar, oila an'analariiga asoslangan yetim bolalarning moslashishiga yordam beradigan sharoitlarni aniqlashga imkon beradi.

